

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND TIBBIYOT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

Xafizova Mashxura Aminovna

KASBIY PEDAGOGIKA

O'quv qo'llanma

Samarqand – 2023

UO'K: 37.013

Xafizova M.A. Kasbiy pedagogika: O'quv qo'llanma. – Samarqand:
"SamDCHTI" nashriyoti, 2023. – 115 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma bakalavriat talim standartlariga kiritilgan «Kasbiy pedagogika» fanini ixtisosligi «Kasbiy pedagogika» bo'lmagan oliygohlarda o'qitishga mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada kasbiy pedagogika fanining asosiy mazmuni, maqsadi, rivojlanish tarixi, tamoyillari va ilmiy tadqiqot metodlari, kasb pedagogikasining rivojlanish jarayonlari, o'zbek psixologlari tadqiqotlarida kasb tanlash va kasbga yo'naltirish muammolari, kasbiy professiogramma va uning pedagogic-psixologik mazmuni, kasbiy motiv va motivatsiya, kasbiy shakllanish jarayonida shaxs taraqqiyoti va shaxsning kasbiy kamoloti, kasb tanlashga yo'llashning umumiy masalalari va kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi, kasbiy faoliyat darajalari va ko'rsatkichlarini tekshirish yo'llari, kasbiy layoqat tashhisi, kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar va shunga doir ilmiy nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

O'quv qo'llanmadagi har bir mavzu uchun reja, qisqacha uning mazmuni, mustahkamlash uchun savollar va adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Mas'ul muharrir:

O.X.Qosimova-p.f.f.d. (PhD), dotsent.

Taqrizchilar:

Xasanova K.X. – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Fakultetlararo pedagogika kafedrası mudiri, professor

Mamadiyarova D.U. – SamDTI Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi p.f.f.d. (PhD).

O'quv qo'llanma Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashi yig'ilishida tasdiqlangan va chop etishga tavsiya qilingan. (2023-yil 6-dekabr 4-sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1.Mavzu: Kasbiy pedagogika mustaqil fan sifatida. Tibbiyotda kasbiy pedagogik bilimlarning o'rne va ahamiyati.....	6
2.Mavzu: Kasbiy pedagogik modulining ilmiy-metodologik asosi.....	25
3.Mavzu: Kasbiy ta'lim jarayoni yagona tizim sifatida. Kasb ta'limi pedagogikasining didaktik prinsiplari.....	47
4.Mavzu: Asosiy- didaktik tushunchalar. Kasb hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillar.....	58
5.Mavzu. Kasbiy metodlari va vositalari. Kasbiy ta'limda dars mashg'ulotini tashkil etishning asosiy shakllari va turlari.....	67
6.Mavzu: Kasbiy ta'lim jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.....	76
7.Mavzu: Tibbiy ta'limga oid xorij kasbiy tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni.....	93
8.Mavzu. Kasbiy ta'limda tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni, tarbiyaning umumiy metodlari va turlari.....	110
9.Mavzu. Kasbiy ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha.....	120
10.Mavzu:Tibbiy ta'lim muassasasida ilg'or kasbiy pedagogik tajribalarni o'rganish va samarali foydalanish hamda ommalashtirish.....	134
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	143

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi, kadrlar tayyorlash to'zilmasi va mazmunini qayta ko'rib chiqish va tashkil etishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida ishlab chiqarish ta'limi, tarbiyaviy soatlar, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlaridan iborat bo'lib, ularning yaxlit pedagogik jarayon sifatida takomillashtirilishi amaliy tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayon oliy ta'lim muassasalarida tegishli yo'nalishdagi mutaxassislik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi (mutaxassislik fanlari bo'yicha laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, mashinalarni boshqarishga o'rgatish, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti)ni yuqori metodik saviyada o'tish orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarning qayd etilgan tashkiliy shakllari talabalarni tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan kasbiy ta'lim natijasida nazariy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi shakllantiriladi, ishlab chiqarish ta'limi jarayonida esa talabalar asosan amaliy kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Bu ikkala mushtarak jarayon mahsuli sifatida muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlash ta'minlanadi. Zamonaviy mutaxassis o'z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun ta'lim muassasasida ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishning samarali shakllari, faol metodlari hamda zamonaviy vositalari majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-metodik jihatdan asoslash lozim bo'ladi. Tibbiyot sohalarida, yirik sanoat korxonalarida va rivojlangan qishloq xo'jaliklarining paydo bo'lishi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni talab qiladi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish ta'limini o'qitish jarayonini alohida ta'lim turi sifatida tashkillashtirilishiga olib keldi. O'qitish jarayoni mustaqil va o'zaro bog'langan


nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi.

Amaliy mashg'ulotni yuqori metodik saviyada o'tish uchun maxsus fanlarning nazariy qismi talab darajasida o'qitilishi lozim. Ma'lum sohada mutaxassis tayyorlashda talabalarning ishlab chiqarish mehnatiga oid nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim masalalardan biridir.

Respublikamizda tobora keng ko'lam olayotgan yangi texnika va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bundan kelib chiqqan holda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari uchun zamonaviy talablar darajasiga o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qo'llanma ham bo'lajak mutaxassislarning kasbiy pedagogika borasidagi nazariy bilimlarini puxta egallashlariga ko'maklashish, amaliy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga puxta zamin tayyorlashga qaratilgan. Shuningdek, qo'llanma oliy ta'lim muassasalari hamda kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari, soha tadqiqotchilari uchun asosiy manba'lardan biri bo'lib qoladi deb ishonaman.

Muallif

1- MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKA MUSTAQIL FAN SIFATIDA. TIBBIYOTDA KASBIY PEDAGOGIK BILIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI.



Reja:

1. O'zbekistonda kasbiy va tibbiy ta'lim tizimidagi islohotlar.
2. Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanish tarixi.
3. Kasbiy pedagogika fanining maqsad va vazifalari.
4. Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari.



Asosiy tayanch iboralar

Talaba	Shaxs
Bilim	Tarkib
Kasbiy Pedagogika	Tibbiyot
Olam	Shaxs
Dunyoqarash	Tushuncha
Kasb	Jarayon

O'zbekistonda kasbiy va tibbiy ta'lim tizimidagi islohotlar

Istiqlolga erishgan hamda dunyoda o'z o'rniga ega bo'lib borayotgan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar ta'limning mazmun-mohiyatini bugungi davr talabidan kelib chiqib tubdan yangilashni taqozo qilmoqda. Bu kabi yangilanish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim

to'g'risida"gi Qonuni va ta'limga oid me'yoriy-xuquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablari asosida shakllantirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimi doirasida kasb ta'limiga alohida o'rin berilishining samarasi sifatida kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, akademik litseylar hamda kasb-hunar maktablari tizimi shakllanmoqda. Ayni kunda kasbiy pedagogika fani dunyo miqyosida tan olingan va e'tirofetilayotgan eng ilg'or, yetakchi metodlar, prinsiplar, paradigmalari hamda yo'nalishlar bilan boyitilib borilmoqda. Bugungi kunda o'zining keng tatbiqini amalga oshirayotgan, fanning boshqa yo'nalishlari va sohalari bilan uzviy aloqadorlikda ishlab chiqilgan yangi, innovatsion konsepsiyalar va nazariyalar jadallik bilan rivojlantirilmoqda. Respublikamizning barcha ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida kasbiy ta'limni samarali tashkil etish, ishchi kasblariga maxsus tayyorlash, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'lim tizimi islohotlarining mohiyati

Ayni davrda barcha fan sohalari, shu jumladan, kasb ta'limi sohasi bo'yicha yangi o'quv darsliklari, qo'llanma va tavsiyalarni ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Shu o'rinda ta'lim jarayonida kasb ta'limining o'rne va unga bo'lgan e'tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida akademik litsey, texnikumlar, kasb-hunar kollejlari, kasb-hunar maktablari va boshqa turdagi ta'lim muassasalarining rivojlanishi hamda shakllantirishilishi;

oliy ta'lim muassasalarida kasb ta'limi bo'yicha bilimlar bilan qurollantirishning yo'lga qo'yilayotganligi, bu yo'nalish bo'yicha alohida fakultetlar va bo'limlarning tashkil topishi;

kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar tizimidagi o'rne hamda boshqa bilan yanada bog'lanib borishi, ta'lim tizimida amalga oshirilishi nazarda tutilgan bilim sohalari birlashuvida yangi konsepsiya va nazariyalar va

g'oyalarning yuzaga kelishi;

kasb ta'limi muassasalarining aholiga ta'lim sohasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyati turlarining yanada ko'proq ortib borishi, o'zining bazasida mavjud mahsulotlarni ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi; mehnat faoliyatini tashkil qilishning eng ilg'or usullari va shakllarini tadbiq etishi va boshqalar.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan. Ushbu qonunning qabul qilinishi yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik va iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini keng ko'lamda isloh qilishning ibtidosi bo'ldi.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun 11 bob va 75 ta moddadan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining maqsadi - ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

O'zbekistonda «Uzluksiz ta'lim» tushunchasi. Uzluksiz ta'lim tuzulishi.

1. Uzluksiz ta'lim tizimi O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ishini ta'minlovchi, har bir shaxs, jamiyat va mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy ijtimoiy, ma'naviy, ilmiy-texnikaviy va ehtiyojlarni qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim tizimi novator, ijodkor, har tomonlama ijtimoiy faol, ma'naviy va axloqiy jihatdan boy shaxsning shakllanishi va yuqori darajadagi malakali raqobatbardosh kadrlarning tayyorlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadilar.

Uzluksiz ta'lim tizimi o'zining faoliyati davomida davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi va uzluksizligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

maktabgacha ta'lim va tarbiya;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

professional ta'lim;
oliy ta'lim;
oliy ta'limdan keying ta'lim;
kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
maktabdan tashqari ta'lim.

2. Kasbiy ta'lim turi va tizimi. Kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy omillari. Uzlüksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borish prinsiplari quyidagilardan iborat:

ta'limning ustuvorligi — uning rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufo'zi;

ta'limning demokratlashuvi — ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda ta'lim muassasi mustaqilligining yanada kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiat tizimiga o'tilishi;

ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ravnaq topishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-xil ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar va an'analarning ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof muhitning o'zaro bir-biriga munosabatlarining uyg'unlashuvi;

ta'limning ijtimoiylashuvi-ta'lim oluvchilarda axloqiy va estetik jihatdan boy dunyoqarashni shakllantirish, har bir shaxsda yuksak ma'naviy- axloqiy, madaniy va ijodiy fikrlashni yanada shakllantirish;

ta'limning milliy yo'naltirilganligi - ta'limning o'tmish tariximiz, ajdodlar tomonidan qoldirilgan an'analar, qadriyatlar va urf-odatlari bilan uzviy bog'liqligi, Sharq xalqlarining madaniyatlarini saqlab qolish va uni yanada boyitish, ta'lim tizimini milliy taraqqiyotning juda muhim omili sifatida qayd etish, boshqa xalqlarning tarixiga hamda madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalash;

ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga va rivojlantirishga yo'naltirilganligi;

iqtidorli yoshlarni anglash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil

ravishda fundamental va maxsus kasbiy bilim olishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

3.Uzluksiz, kasb-hunar ta'limi tizimida professional ta'limning o'рни va ahamiyati.

Umumiy o'rta ta'lim negizida professional ta'lim egallanadigan kasb hamda mutaxassislik bo'yicha quyidagi 3 darajalarni o'zining ichiga oladi.

Boshlang'ich professional ta'lim;

O'rta professional ta'lim;

O'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunarga yo'naltirilgan maktablarida auditoriyani bitiruvchilari negizida bepul asosida kunduzgi ta'lim shakli asosida umum ta'lim hamda mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kasb-hunar va pedagogik kollejlarda davlat buyurtmasi asosida yoki to'lov-shartnoma asosida bir necha kasblar va ixtisosliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, o'qish davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan sirtqi, kechki hamda kunduzgi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim asosida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional ta'lim hamda o'rta professional ta'lim asosida davlat buyurtmasi asosida yoki to'lov-shartnoma asosida bir necha kasblar va ixtisosliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, o'qish davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan sirtqi, kechki hamda kunduzgi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Kasb – hunar kollejlari, texnikumlar va kasb – hunar maktablari ta'lim oluvchi talaba yoshlarning qiziqishi asosida tanlangan kasb egasi bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Har bir fuqoro to'lov shartnoma asosida ikkinchi va undan keying ta'lim olish xuquqiga egadirlar.

Kasb-hunar kollejlari, texnikumlar va kasb-hunar maktablari davlat ta'lim standartlari asosida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beradi; talabalarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari, texnikumlar va kasb-hunar maktablarining jihozlanganlik holati, pedagogik jamoaning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridanchuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

Kasb-hunar kollejlari, texnikumlar va kasb-hunar maktablari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan texnika va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

kasb-hunar kollejlari, texnikumlar va kasb-hunar maktablarida tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

hududlarning jug'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga talabalarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

kasb-hunar kollejlari, texnikumlar va kasb-hunar maktablarining moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimida zamonaviy malakaga ega, chuqur bilimli, salohiyatli va barkamol kadrlarni davlat darajasida ta'minlash masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan uchrashuvlarda bunga alohida urg'u beradi. Xususan, xalqaro tajribalarni o'rganish va shu asosda tibbiy ta'limni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash zarurligi haqida aytib o'tilgan. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida kadrlar tayyorlash, xalqaro miqyosida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning mohiyati va ahamiyatini tubdan yangilash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha vazifalar ham belgilangan.

Har bir sohaning, xususan, tibbiyotning rivojlanishi bevosita ushbu yo'nalishdagi kadrlar tayyorlashga bog'liq. Agar siz zamonaviy uskunalarni o'rnatangiz, eng yangi texnologiyalarni joriy qilsangiz, binolarni rekonstruksiyaqilsangiz, mukammal boshqaruv tizimini shakllantirsangiz ham, lekin kadrlar tayyorlashdagi bo'shliqlarga yo'l qo'ysangiz ham, bu sohada jiddiy ijobiy o'zgarishlarni kutmasligingiz kerak. Bu masala davlat rahbari tomonidan o'tkazilgan sog'liqni saqlash tizimi vakillari bilan to'rtta uchrashuvga bag'ishlanganligi ajablanarli emas.

Davlatimiz rahbarining 2021 yil 5-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni bu borada yangi bosqichni boshlab berdi.

Shuni e'tirof etish kerakki, oliy tibbiyot muassasalarida bakalavr (umumiy tibbiyot) darajasida o'qishning yetti yillik muddati kun talablariga javob bermadi, bundan tashqari, ushbu maxsus mashg'ulotlarga asoslanmagan qo'shimcha moliyaviy harajatlar talab qilindi.

Yurtboshimizning ushbu farmoni tibbiyot xodimlarining yetishmovchiligini hal qilishni ta'minlaydi, tibbiyot sohasidagi bakalavr tizimida o'qitish muddatlarini belgilaydi. Unga ko'ra, 2017/2018 o'quv yilidan boshlab umumiy tibbiyot, kasb- hunar ta'limi (umumiy tibbiyot), harbiy

tibbiyot (umumiy tibbiyot), pediatriya yo'nalishlari bo'yicha o'qish muddati 6 yil, biotibbiyot yo'nalishi-4 yil, tibbiy- profilaktika ishi-5 yil. Bundan tashqari, umumiy tibbiyot, kasbiy ta'lim (umumiy tibbiyot), harbiy tibbiyot fanlari (umumiy tibbiyot), pediatriya bakalavriat yo'nalishlariga o'qishga kirgan 2-5-kurs talabalari o'qishni davom ettiradi.

Mamlakatimizdagi 7 ta oliy tibbiy ta'lim muassasalari va ularning hududiy filiallarida har yili ikki mingdan ortiq shifokorlar tayyorlanadi. Ammo, biz ishning haqiqiy holatini o'rganish uchun borganimizda, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimini kadrlar bilan ta'minlashda nomutanosiblik borligi aniq bo'ldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Prezidentimizning 2017 yil 5-maydagi 2017/2018-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlariga qabul to'g'risidagi farmoni kadrlar bilan ta'minlashni takomillashtirishda muhim hujjat bo'ldi. Unga ko'ra, 2017/2018 o'quv yilidan boshlab birinchi marta tibbiyot xodimlariga muhtoj hududlar uchun qabul davlat granti asosida amalga oshirildi.

Shuning uchun bu yil tibbiyot oliy o'quv yurtlariga talabalarni qabul qilish o'ziga xos tarzda bo'ldi. Bu yil tibbiyot oliy o'quv yurtlariga 44 ming 409 o'g'il-qiz hujjat topshirdi. Shulardan 3455 nafari talaba, 1355 nafari davlat granti asosida va 2090 nafari pullik shartnoma asosida o'qishga qabul qilindi.

O'quv soatlari tahlil qilinganda, o'quv dasturidagi mavzularning 15 foizi yoki undan ko'pi takrorlanganligi aniqlandi. Bundan tashqari, bakalavriat va magistrlar tizimida mutaxassislik bilan bog'liq bo'lmagan mavzular o'qitildi, bu talabalarning mustaqil o'qish vaqtini talab qildi, mutaxassislik bo'yicha bilimlarni egallashga ta'sir ko'rsatdi. Yana bir muammo o'rgatilgan bilimlarni yangilashdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq edi.

Davlatimiz rahbarining farmoni bilan oliy tibbiy ta'limning klinikadan oldingi va klinik bloklarida o'qitish soatlari ulushini ko'paytirish, oliy tibbiy ta'lim standartlarini qayta ko'rib chiqish belgilandi. Uning asosida bakalavriat ta'limining davlat ta'lim standartlari yangitdan ishlab chiqilmoqda. Bu gumanitar va ijtimoiy sohalarda o'qitish soatlarini qisqartirish orqali kasbiy

fanlar blokini kengaytirishni, bakalavr darajasida klinikadan oldingi va klinik ta'lim bloklarida dars soatlari ulushini 85 foizgacha, shu jumladan klinik mashg'ulotlar amaliyoti uchun oshirilishini ta'minlaydi. Iqtisodiy bloklar umumiy vaqtning 7 foiziga teng. Davlat ta'lim standartida belgilangan avvalgi o'quv dasturlarida gumanitar va ijtimoiy- iqtisodiy mavzular bo'yicha dars soatlari hajmi 15-20 foizni, mutaxassislik bo'yicha esa atigi 45-50 foizni tashkil etgan.

Farmonda, shuningdek, ularning ixtisosligi oliy tibbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining diplomlarida ko'rsatilishi aytilgan. Ilgari, ularning tibbiyoti oliy tibbiyot muassasalari bitiruvchilarining diplomlarida ko'rsatilmagan edi. Tibbiy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ushbu hujjat ko'plab sohalar qatori bitiruv diplomida mutaxassislikning ko'rsatilishini bildiradi. Bu bitiruvchilarning malakasini oshirishda va yetakchi xorijiy oliy tibbiy ta'lim muassasalarida va ilmiy markazlarida qayta tayyorlashda uchragan tushunmovchiliklarga chek qo'yadi.

Prezident tashabbusi bilan tibbiy ta'limni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar quyidagilarga xizmat qilishi shubhasizdir:

- Umumiy tibbiyot yo'nalishi bo'yicha qisqartirilgan o'qish davriga o'tish, o'quv soatlarini takomillashtirish va talabalarni maqsadli qabul qilishni ham ta'minlaydi;
- Shubhasiz, Prezident farmonida belgilangan vazifalarning bajarilishi;
- Tibbiy kadrlar yetishmasligini 15 foizga to'ldirish jarayonini tezlashtirish;
- Tibbiy ta'limni xalqaro standartlarga moslashtiradi;
- Byudjet mablag'larini maqsadli sarflash vazifasini bajaradi;
- Oliy tibbiyot muassasalari talabalarining amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydi va o'quv jarayonini va yuqori malakali tibbiyot xodimlarini tayyorlashni samarali tashkil etadi.

Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanish tarixi.

Dunyoning ta'lim tizimida o'sib kelayotgan avlodni kasbiy va mehnat tayyorgarligi alohida o'rin egallaydi, chunki o'zining tarixining hamma bosqichlarida odamzod o'zi uchun muhim bo'lgan vazifa mehnat va kasb tajribasini bir avloddan keyinga avlodga uzatish masalasini yechib kelmoqda.

Qadimgi zamonda kasb-hunarmandlik ishi san'atga tenglashtirilgan. Kasbga bo'lgan bunday munosabat jamiyatning mehnat ma'naviyatini tashkil etgan. O'rta asrdagi shaharlarda hunarmand va savdogarlarning farzandlari uchun ustaning ustaxonasidagi shogirdlik kasbiy o'qitishning asosiy shaklini tashkil etgan. O'rta asrlardagi usta o'zining shogirdiga nafaqat bilim va mahoratlarini, balki o'zining o'zligining bir qismini, o'z obrazlari dunyosini, o'z individualligini gap bilan, amalda bajarish orqali yetkazgan.

Mexanikaga oid san'at darajasiga ko'taruvchi asarlar XI asrda paydo bo'ldi. Parij maktabining tashkilotchisi Gugo Sen-Viktor (1096-1141) o'zining Didaskalion nomli asarida mexanika - narsalarni tayyorlashda kerak bo'lgan san'at deb ta'rif berdi va ularni san'atning 7 turini - movut ishlab chiqarish, asboblarni va qurollarni ishlab chiqarish, navigatsiya, qishloq xo'jaligi madaniyati, ovchilik, meditsina, teatr san'atini ajratdi. Lekin u antik davr mutafakkiri sifatida texnik san'atni-nochor ota-onalar bolalarning qismati, deb hisoblagan.

Birinchii gumanist-utopistlar **T.Mor** (1478-1535) va **T.Kampanelli** (1568-1639)larning asarlarida mehnatda hammaning ishtiroki, adolatsizlik va ekspluatatsiyani qabul qilmaslik g'oyalariga asos solingan. Ular hunarni bilishni, mehnatning turli sohalari bilan tanishishga fuqaroning qadr qiymati va hurmatga sazovorligi siftida qarashgan, kasbni-mehnat turini erkin tanlashni, nazariya va amaliyotning uyg'unligini qo'llab-quvvatlashgan, kasbga tor hunar sifatida qarashga qarshi chiqishgan. **Ya.A. Komenskiy** (1592-1670) hunar roliga demokratik qarashni, jamiyat hayotida kasb muhimligini ta'kidladi. U yoshlarni mehnat hayotiga tayyorlash zarur deb hisoblagan. Uning "Narsalar dunyosi hissiy tasvirlarda" asarida bolalarning diqqat

e'tiborini o'z davrining ko'p hunarlari, mehnat qurollari, ishlab chiqarish texnologiyalari bilan tanishtirishga katta e'tibor qaratilgan. Ingliz iqtisodiyotchisi va pedagogi Dj.Bellersning (1634-1725) Ishlab chiqarish hamkorligini tashkil etish bo'yicha taklif traktati (1695) kasbiy ta'lim haqidagi loyihalarning birinchisi bo'ldi, u kasbni egallash, yaxshi tarbiya va atroflicha ta'lim olish yo'li bilan kambag'allikdan qutulishning ijtimoiy-iqtisodiy masalasini yechishni taklif etdi. U o'qitishni ishlab chiqarish bilan birlashtirishni taklif etdi, keyinchalik bu taklif BMT tomonidan qabul etildi.

Kapitalistik munosabatlar, industrial ishlab chiqarish, fan hamda texnika va san'atning rivojlanishi bolalar va o'smirlarni ishlab chiqarishga ommaviy jalb etilishini keltirib chiqardi, kasbiy maktab va shogirdlikning rivojlanishi zarurligini namoyon etdi. XVIII asr boshlarida yangi tendensiya paydo bo'ldi, unda avvalgi bilimlarga asoslangan o'qitish o'rniga texnologiyalar, jihozlar va asboblarga urg'u berilgan o'qitishga e'tibor qaratildi.

XIX asrning birinchi yarmida **K.A.Sen-Simon** (1770-1825), **Sh.Furye** (1772-1837), **R.Ouen** (1771-1858), **E.Kabe** (1788-1856) va boshqalar inson jamiyatini qayta qurish loyihalarida bo'lajak jamiyatning kasbiy tayyorgarligiga: mehnatning hamma uchun umumiyligi, bolalikka gumanistik yondashuv, har birv tabaqaga oid bolalarning har taraflama rivojlanishi va bolalarning industrial qiziqishi rivojlanishi, ta'limning umumiy tizimida kasbiy maktablarning teng huquqligi bo'lgan yondashuvlar taqdim etildi. Ular nazariy izlanishlar bilan cheklanmadilar. R.Ouen birinchi bo'lib unumdor mehnatni va o'smirlarning o'qishi bilan bog'liqlikni birinchi amalga oshirdi va kasbiy o'qitishni mantiqqa muvofiq tashkil qilishning misolini keltirdi. Fransiya ishchisi va arbobi **K.A.Korbon** (1808-1881) o'zining ishchilarning bolalariga maxsus bag'ishlangan va shogirdlik tizimi - kasbiy ta'lim haqidagi dastlabki asarlaridan birida shaxs va jamiyat uchun kasbni erkin tanlash muhimligiga urg'u bergan, umumkasbiy, kasbiy tayyorgarlik va kasbiy maktablar yaratilishi zarurligini, aqliy va jismoniy mehnat o'zaro bog'liqligini umumiy va kasbiy ta'limda birgalikda olib boorish maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan.

Chartizmning taniqli arbobi **Ernest Jons**(1819-1869) shogirdlik tizimi-zamonaviy industriyaning asosiy sa'natlaridan biri deb atadi. Kasbiy ta'lim muammolariga bo'lgan yondashuv Yevropa buyuk mutafakkirlaridan birining asarida qayd etilgan va unda ishchilarni kasbiy tayyorlashning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ta'limiy-tarbiyaviy funksiyalarining integratsiyasi taklif etilgan. O'zidan oldingi mutafakkirlarning g'oyalariga tayanib va ularni rivojlantirib, bu mutafakkir texnikaviy o'qitishni o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashning eng muhim aspektlaridan biri deb hisobladi, u ishlab chiqarishning hamma jarayonlarining asosiy prinsiplari bilan tanishtiradi va shu bilan birga o'smirlarga ishlab chiqarishning oddiy jihozlari bilan ishlashning ko'nikmalarini beradi. Unda yoshlarning unumdor mehnatini umumiy (aqliy va jismoniy) ta'lim bilan birlashtirishga asoslangan masalasi qo'yilgan, u tor ixtisoslikni keng texno-logik (politexnik) ta'lim bilan birgalikda ko'radi va oxir-oqibatda, nafaqat ishchini mavjud mehnat taqsimotiga moslashishini, balki uning o'zgarayotgan sharoitga moslashuvchanligini, faoliyatga ijodiy yondashuvini ta'minlaydi va bu texnika rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Bu g'oyalar XIX oxiri va XX asr boshlarida pedagoglar davrasida o'z aksini keng topdi. Shu bilan birga bu davrda pedagoglar o'zlarining diqqate'tiborlarini shaxsni shakllantirishga, bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda mehnatning roliga qaratishdi. Bu davrda mustaqil ilmiy bilimning bir sohasi sifatida kasbiy ta'limning nazariyasi va metodikasi shakllana boshladi. U ishlab chiqarish va kapitalizm rivojlanishi, maktab ta'limidagi islohotlar, kasbiy o'quv muassasalari tarmoqlarining kengayishi bilan shartlangan edi.

Ishlab chiqarishga bolalar va o'smirlar ommaviy jalb etilayotgan sharoitdabolalar mehnatini himoya qilish va shogirdlikni reorganizatsiya qilish ijtimoiy masalalari birinchi planga chiqa boshladi.

XX asr oxirlari va XX asr boshlarida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida G'arbiy Yevropa pedagogikasida mehnat maktabini tashkil qilishga yo'nalgan reformatorlik harakati vujudga keldi. Germaniyalik **Georg Kershenshteyner** (1854-1932)-kasbiy ta'lim

reformatori,uning atoqli tashkilotchisi bo'ldi. Kasbiy faoliyatga tayyorlashni u xalq maktabining muhim vazifasi deb hisobladi. U ishlab chiqarishda mashg'ul bo'lgan yosh ishchilar uchun qo'shimcha maktablarni yaratdi, bu maktab o'smir kasbi bilan bog'liq bo'lgan umumta'limiy tayyorgarlikni berar edi. Fabrika va ustaxonalarning egalari ishchi o'smirlarni, ularning oyliklarini saqlagan holda haftasiga maktabda o'qish uchun 8-10 soatga ishdan ozod qilar edilar. Kershenshteyner fabrika-zavod shogirdligining yangi tizimiga asos soldi, u ishlab chiqarishdagi amaliy ishni nazariy o'qish bilan birga olib borar edi. Bu tizim kasbiy ta'limning Germaniya tizimi sifatidi G'arbiy Yevropada kengtarqaldi.

AQShda kasbiy pedagogikaning rivojlanishi yangi texnologiyalar joriy etilishi, mehnatni konveyerli tashkil etish, mehnat unumdorligini va raqobatbardoshlikni oshirish zaruratiga bog'liq mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishga ilmiy yondashuv vujudga kelishi bilan bog'langan. **F.U.Taylor** (1856-1915) mehnatni ilmiy tashkil qilishga asos soldi, mehnatni tashkil etish va ishchilarni o'qitishda yangi metodlarni qo'llash teylorizm nomini oldi. Ish vaqtini zichlash bo'yicha tadbirlar bilan birga Teylor ishlab chiqarish madaniyatini tarbiyalab shakllantirish, mehnat va dam olishni ratsionallashtirish, ishlayotgan odamning psixo-fiziologiyasini mehnat faoliyatida hisobga olish g'oyalarini taklif etdi. Teylor mehnat operatsiyalari va uslublarini tahlil qilish va tanlab olishni taklif etdi. Teylor yozma instruktsiyalashga asos soldi, instruktsion (yo'riq) haritasini nafaqat ishlab chiqarish, balki pedagogik instrument sifatida ko'rdi. Teylorning shogirdlari **F.Djilbret**, **G.L.Gantt**, **R.V.Selvidj**, fransuz **A.Fayol** va boshqalar ishlab chiqarishni takomillashtirish bo'yicha ishchi tashabbuskorligini tarbiyalash zarurati g'oyasini ilgari surishdi. Ommaviy ishlab chiqarish va konveyerda mehnatning operatsiya bo'yicha taqsimlanishi sharoitida teylorizm mehnat unumdorligining ortishiga ko'maklashdi, lekin shu bilan birga mehnatda zo'riqib ishlashga, toliqishga, kasbiy kasalliklarning ko'payishiga olib keldi, buning uchun teylorizm ishchilar harakati arboblari tomonidan tanqidga

uchradi.

Avtomobilsozlik asoschilaridan biri **Genri Ford** (1863-1947) o'zini kasbiy o'qitishni tashkil etish va uning metodikasining reformatori sifatida namoyon etdi.

Ommaviy konveyerli ishlab chiqarishni amalga tatbiq etib, u mehnatni operatsiyalar bo'yicha taqsimlash asosida ishchilarni o'qitishning operatsion-potokli tizimini ishlab chiqdi. Bu mehnat intensivligi va unumdorligini oshirdi, lekin shu bilan birga ishchilar asosiy qismining malakasini soddalashtirishga va o'qish muddatini qisqartirishga olib keldi. Keyinchalik konveyerda mehnat qilishni gumanitarlashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqildi. XIX asr oxirlarida G'arbda amaliy pedagogika kabi kasbiy o'qitishning metodikasi vujudga keldi. U korxonalarda o'ziga xos o'quv ustaxonalarining yaratilishi bilan bog'langan edi, shu tufayli zavod ustaxonadan ajralib chiqdi va unga pedagogik funksiyalar qo'shildi. Ishlab chiqarish o'qitishi uchun shogirdlik tizimi epoxasiga nisbatan ancha o'ylab pishiqlangan, murakkablashib borayotgan ishlar majmuini tanlab olishga, qarab o'rganishga emas, balki usta ko'rsatib bajaradigan ishgaasoslangan tizimboshlandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropada milliy markazlar va xalqaro markazlar urush paytida kasbiy pedagogika bo'yicha to'xtab qolgan tadqiqotlarni qayta tiklashdi. Ular YUNESKO va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qo'llab quvvatlandi. Oxirgi o'n yilliklarda kadrlarni tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlik kuchayib bormoqda.

Kasbiy pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari

Kasbiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari - kasbiy ta'lim, kasbiy o'qitish, kasbiy tayyorlash, kasb, mutaxassislik, malaka, kompetentlilik.

Kasbiy pedagogikaning asosiy kategoriyalarini ko'rib chiqamiz.

Kasbiy ta'lim - u yoki bu kasb doirasida malakali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat va ko'nikmalarni, hamda ma'lum kasbiy muhitda qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va me'yorlarini o'zlashtirish jarayoni, mahsuli va natijasidir.

Kasbiy o'qitish - bu o'qiyotganning kasb bo'yicha ilmiy-texnikaviy bilimlar tizimini, hamda kasbiy masalalarni yechish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirish bo'yicha muhandis-pedagog va o'qiyotganning hamkorlikdagi faoliyatidir.

Kasbiy tarbiya - bu o'qiyotganning ma'lum kasbiy muhitda qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va me'yorlarini o'zlashtirish, hamda unda kasbiy muhim va ijtimoiy ahamiyatli shaxs sifatlarini shakllantirish bo'yicha muhandis-pedagog va o'qiyotganning hamkorlikdagi faoliyatidir.

Kasb - mehnat faoliyatining mahsuli bo'lib, uning yo'nalishi - kasbiy tayyorgarlik va shakllanib bo'lgan va uzluksiz rivojlanayotgan bilimlar, mahoratlar va ko'nikmalar, hamda maxsus qobiliyatlar va kasbiy muhim shaxsiy sifatlar majmuidir, ular insonga daromadning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi va uning rivojlanishini va ijtimoiy mavqeinianiqlaydi.

Kasb - bu mehnatning ijtimoiy taqsimoti bilan belgilangan doimiy faoliyat turi bo'lib, u umuminsoniy axloqiy me'yorlar bilan muvofiqlashtirilgan bo'ladi.

Kasb tushunchasi va unga mos atama juda oldin paydo bo'lgan. Mehnat differensiallashtirib borib sari bir kasb doirasida mehnat taqsimotini aks ettiruvchi atamaga ehtiyoj tug'iladi. Masalan, chilangar kasbi chilangar-yig'uvchi, chilangar- ta'mirlovchi, chilangar-asbobchi va h.k. kabi qator turlarga bo'linadi.

Shu sababli bir qator kasblarda mehnat taqsimoti natijasi sifatida alohida mutaxassisliklarni ajratishadi. Masalan: kasbi-chilangar, mutaxassisligi- chilangar- asbobchi; kasbi-vrach, mutaxassisligi-xirurg, terapevt va sh.k.

Mutaxassislik - bu maxsus tayyorgarlik va ishda orttirgan tajriba orqali egallangan bilimlar, mahoratlar va ko'nikmalar majmui bo'lib, ular ma'lum kasb doirasida faoliyatning muayyan turini bajarish uchun zarurdir. Mutaxassislik-bu kasbiy mehnatda ishlarning nisbatan tor doirasiniqamrovchi kasbiy faoliyat turidir. Mutaxassislikdan tashqari kasbiy faoliyatning alohida

turlarida ixtisoslikni ajratishadi. Masalan, kasbi-vrach, mutaxassisligi-xirurg, ixtisosligi-neyroxirurg (bosh miyada operatsiya qiladi).

Ixtisoslik - mutaxassislikning bir qismi bo'lib, bu mutaxassislik doirasida u yaratiladi va ushbu ixtisoslik profili bo'yicha faoliyatning turli jabhalarida chuqurlashtirilgan kasbiy bilim, mahorat va ko'nikmalar olinishini ta'minlaydi.

Malaka - bu xodim kasbiy tayyorgarligining darajasi va turi, ma'lum ishni bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarning unda bo'lishidir. Kasbiy tayyorgarlik malakasi Davlat ta'lim standarti (DTS)ning malakaviy talablarida aniqlanadi.

Ushbu kasb, mutaxassislik bo'yicha xodim mehnatining mazmuniga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining talablari mutaxassisning malakaviy tavsiflari bilan belgilanadi. Ular DTSda bitiruvchi kasbiy faoliyatining maqsadlari, vazifalari, kasbiy faoliyat obyektlari va turlari, hamda zaruriy bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarning majburiy minimumi va ta'limni davom ettirish imkoniyatlari bilan berilgan.

Demak, malakaviy tavsifnoma - davlat hujjati bo'lib, unda ushbu kasb bo'yicha mutaxassis egallashi kerak bo'lgan bilimlar, amaliy malaka va ko'nikmalarga qo'yilgan talablarning ro'yxati keltirilgan bo'ladi.

Demak, malaka - bu:

- kasbiy tayyorgarlik natijasida olingan mutaxassisstatusi;
- kasbiy tayyorgarlikdarajasi;
- kasbiy faoliyat murakkabliginingdarajasidir.

Oxirgi yillarda malaka tushunchasining ma'nosi ancha kengaydi. Hozirgi paytda xodim malakasiga, yuqorida keltirilgan malakaviy tavsifnomadan tashqari, kasblarning ancha keng doirasi uchun zarur bo'lgan shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatleri qo'shildi. Bu sifatlar tayanch malakalar nomini oldi.

Tayanch malakalar - bu umumkasbiy bilim, amaliy malaka va ko'nikmalar, hamda shaxs qobiliyati va sifatleri bo'lib, ular kasblarning ma'lum guruhi bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarurdir.

Tayanch malakalar - faoliyatning integrativ turlarini samarali amalga

oshirilishini taqozo qiladi va professionallar uchun harakterlidir. Kognitiv bilim berishga yo'nalgan akademik ta'lim doirasida tayanch malakalarning rivojlanishini qiyin, chunki bilim, amaliy malaka va ko'nikmalardan tashqari ularning tarkibiga kognitiv qobiliyatlar, shaxsning sifati va kasbiy xulq-atvorning shakllari ham kiradi. Tayanch malakalarning rivojlanishi - shaxsga yo'nalgan ta'limning imtiyozidir.

Tushunchaning ma'nosi tayanch malakalar xodim shaxsining kasbiy muhim sifatlariga taalluqli ekanligini bildiradi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar60 ga yaqin tayanch malakalarni aniqlash imkonini berdi.

Amaliyot esa muayyan kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun, odatda, kasbiy muhim universal sifatlar talab qilinishini ko'rsatdi, ularga quyidagilar kiradi:

- mas'uliyatlilik;
- shonchlilik;
- kommunikativlik;
- hamkorlikka bo'lganqobiliyat;
- kreativlik;
- mustaqil qaror qabul qilishga bo'lgan qobiliyatlar.

Tayanch malakalar-mutaxassislar tayanch kompetensiyalari rivojlanishining muhim shartidir.

Kompetensiya (lotincha *competo*-erishmoqdaman, mos kelaman,yaqinlash- moqdaman)

- 1) qonun, ustav yoki boshqa me'yoriy hujjat bilan muayyan tashkilotga yokimansabdor shaxsga taqdim etilgan vakolatlar doirasidir;
- 2) u yoki bu jabhadagi bilim va tajribadir. Kompetensiyalarning ma'nolari: kompetensiya (lotincha *competere*-mos kelish)-bu mutaxassis (xodim)ning kasbiy vazifalarning ma'lum auditoriyani yechishga bo'lgan shaxsiy qobiliyatdir;
- 3) kompetensiya-bu ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda bilim, amaliy malaka va tajribani qo'llash qobiliyatidir;

4) kompetensiya-muayyan organ yoki mansabdor shaxsning yuridik o'rnatilgan vakolatlari, huquqlari va majburiyatlarining majmuidir; davlat organlari (mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari) tizimida uning o'rnini belgilaydi;

5) umumiy kompetensiya-faoliyatning umumiy turi masalalarini yechishda amaliy tajriba, mahorat va bilimlar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir;

6) kasbiy kompetensiya-faoliyatning kasbiy turi masalalarini yechishda amaliy tajriba, mahorat va bilimlar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir.

Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar simpoziumining (Bern, 1996 y.) materiallari kompetensiyaga quyidagi ta'rifni berishga imkon tug'diradi:

Kompetensiya-bu mutaxassisning kasbiy faoliyatda o'zining bilim va amaliy ko'nikmalarini qo'llashga bo'lgan umumiy qobiliyati hamda amallarni bajarishning umumlashgan usullaridir.

Tayanch kompetensiyalar-bu turli kasbiy hamjamiyatlarga moslashish va mahsuldor faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, amaliy malakalar va qobiliyatlardir. Tayanch kompetensiyalar kasbdan yuqori turuvchi alohida tavsifga ega.

Kasbiy ta'limda alohida ahamiyatga ega bo'lgan beshta tayanch kompetensiyalarni farqlashadi (1.1-rasm):

1. *Ijtimoiy kompetensiya*-o'ziga mas'uliyatni olish, qarorlarni birgalikda ishlab chiqish va uni amalga oshirishda ishtirok etish qobiliyati, turli elatlar va dinlarga nisbatan tolerantlik, o'zining manfaatlarini ishlab chiqarish vajamiyat ehtiyojlariga mos kelishini namoyon qilishdir.
2. *Kommunikativ kompetensiya*-har xil tillarda og'zaki va yozma jumladan kompyuterli dasturlashdan foydalanib, muloqot qilish texnologiyalarini egallash, xususan, Internet orqali muloqot qilish.
3. *Ijtimoiy-informatsion kompetensiya* – informatsion texnologiyalarni egallaganlik va Internet orqali tarqatilayotgan ijtimoiy

ma'lumotga tanqidiy munosabatdabo'lish.

4. *Kognitiv kompetensiya*-ta'lim darajasini doimiy ravishda orttirib borishga hozirlik, o'zining shaxsiy potensialini dolzarblashtirish va realizatsiya qilishga ehtiyoj, yangi bilim va amaliy ko'nikmalarni mustaqil egallash qobiliyati, o'z- o'zini rivojlantirishqobiliyati.
5. *Maxsus kompetensiya*-kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorlanganlik, o'z mehnati natijalarini baholash.

**KASBIY TA'LIMDA ALOHIDA AHAMIYATGA EGA BO'LGAN TAYANCH
KOMPETENSIYALAR**

<i>Ijtimoiy kompetensiy a</i>	<i>Kommunikati v kompetensi</i>	<i>Ijtimoiy- informat si on kompetensiv</i>	<i>Kognitiv kompetensiy a</i>	<i>Maxsus kompetensi ya</i>

1.1-rasm. Tayanch kompetensiyalar

Demak, *tayanch kompetensiyalar*-bu muayyan kasbiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'lgan amaldagi bilimlar, amaliy malakalar, hamda qobiliyatlardir. Ular faoliyat subyektlarining shaxsiy karakteristikalarini emas (tayanch malakalardan prinsipial farqi ham ana shunda), balki shaxs sifatlarini realizatsiya qilishga ko'maklashadi, faoliyat subyektlari kasbiy mahorat va obyektiv ijodiyotning yuqori pog'onalariga chiqishganida ularning raqobatbardoshligi va ijtimoiy-kasbiy mobilligini belgilaydi. Ular turli ijtimoiy va kasbiy hamjamiyatlarda muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi. Umumlashganlikning yuqori darajadagi ijtimoiy-kasbiy to'zilmasi sifatida ular subyekt maqsadli (ijtimoiy-kasbiy va kasbiy-ijodiy) funksiyalarining tahlili bilan aniqlanadi. Bu maqsadga muqim va

kafolatlangan erishish mutaxassisda kasbiy- ijodiy potensial shakllanganda *kreativ kasbiy ta'lim* doirasida erishish mumkin.

<u>Fokus</u>			
<u>Kompetensiya</u> <u>jabhalari</u>	<u>Bilimi</u>	<u>Xulq-atvori</u>	<u>Mahorati</u>
<u>Kasbiy</u> <u>kompetensiya</u>	Mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda o'z fanining mazmunini biladi va tushunadi	Talabalarga nisbatan halol va adolatli	Yakuniy atijaga yo'nalgan o'qitishni muvaffaqiyatli o'tkazadi
<u>Ijtimoiy</u> <u>kompetensiya</u>	O'z talabalarining har xil qobiliyatlari va hissiyotlarini tushunadi	Talabalarga va ham kasblariga tushunish bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi	O'qiyotganlar, hamkasblar, rahbarlar, ota-onalar hamda firmalar bilan muvaffaqiyatli hamkorlikda bo'ladi
<u>Shaxsiy</u> <u>kompetensiya</u>	O'zining kuchliva bo'sh tomonlarini va ularning sabab- larini biladi	O'zining kuchli taraflarini qadrlaydi va ularidan saboqoladi	O'z qobiliyatla-rini tan oladi va o'z potensialini ivojlantirishda davom etadi

1.1-jadval

Kasbiy o'qitishning zamonaviy o'qituvchisi profili uchun mumkin bo'lgan jabha misoli.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimida qanday asosiy islohotlar amalga oshirildi?
2. Kasbiy ta'lim pedagogikaning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar

haqida nimalarni bilasiz?

3. «Kasbiy pedagogika» fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari nimalardan iborat?
5. Kasbiy pedagogika mazmunini belgilovchi asosiy ilmiy yo'nalishlar

nimalardan iborat?

6. «Kasbiy pedagogika» fani qanday fan? U qaysi fanlar bilan uzviy aloqador?

2-MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKA MODULINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSI.



Reja:

1. Kasbiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
2. Pedagogik faoliyatga qo'yilgan talablar, pedagogning asosiy professional sifatlari
3. Pedagogikada o'qitish metodlarining asosiy masalalari
4. Kasb ta'limining og'zaki nutq metodlari
5. Kasb ta'limining ko'rgazmali metodlari



Asosiy tayanch iboralar

Milliy go'ya

Milliy qadryatlar

Ilmiy tadqiqot

Ilmiy usullar

Xalq pedagogikasi	Ta'lim shakllari
Pedagogik izlanishlar	Ko'nikma
Vatan ravnaqi	Audiovizual tushuncha
Odob	Ta'lim vositalari

1.3-§. Kasbiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Pedagog-olimlar va amaliyotchilar o'z ishlarini mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni, yangi g'oyalarni, bironta metod, usul, vosita, mashq, o'yin yoki ularning majmuasi samarasini, qaysi bir yoki bir guruh talabalarning bilim, saviya, hulq-atvorlarini o'rganishda, umuman olganda ta'lim-tarbiya mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda pedagogikaning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Kasbiy pedagogika talabalarga ilmiy-tadqiqot metodlarni taqdim qilganda ularni o'rta va o'rta maxsus bilim yurtlarda tahsil olayotgan yosh avlodni tarbiyalash, o'z kasbiga bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan tashqi va ichki aloqa va munosabatlarni toptirishga, ularning ijobiy va salbiy tomonlarni ajratishga, bilim berishning optimal yo'llari, metod va vositalarini ilmiy tekshirishlar o'tkazib aniqlashga o'rgatadi. Talaba-bo'lajak mutaxassis-o'qituvchi sifatida ta'lim- tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari qanchalik to'g'ri tanlansa, bu jarayonni takomillashtirish darajasi shunchalik yuksaladi. O'qitish va tarbiyalashdan avval hamda shuning ayni paytida tekshirishga yo'naltirilgan ilmiy- tadqiqot metodlari tizimi kasbiy pedagogika fanida to'la yaratilgan. Quyidagi mazkur holatlar o'qituvchining talabalar to'g'risida bilimlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi:

- talabalarning munosabatlari va bir-biri o'rtasidagitafovutlar mavjudligi;
- o'qitish va tarbiyalash jarayonida vujudga keladigan o'qitish vatarbiyalash
- vazifalari, shakl, metod va vositalarningo'zgarishi;
- metod va vositalarning amalga oshirishning qay

darajada murakkabligi;

- har bir talabaning oila, ota-ona, aka-uka, do'stlari, mahallasi, o'qituvchisi,
- maktabi, auditoriyai, guruhi, vataniga ixlosi;
- har bir talabaning bilim, mehnat, qaysidir ish, kimnidir qutqarish, himoyalash, yordamga hamma vaqt tayyor bo'lishiga, mardlik, jasurlikko'rsatishiga intilganligi;
- har bir talabaning o'ziga xos xususiyatlarini, aqliy, ruhiy, xulqiy va jismoniy tomonlarini qay darajada o'sib borishi;
- har bir talabani uning bilimi, saviyasi, qobiliyatlarini bilib olib qaysi andozada o'qitish va tarbiyalash mumkinligi;
- talaba kamolotiga ta'sir etuvchi irsiyat, oila sharoiti, atrof-muhitaniqligi;
- bilim, ko'nikma va malaka o'zlashtirish qobiliyatidarajasi.

Mazkur quyida ishlab chiqilgan metodlarga tayangan holda ish yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Pedagogik kuzatish-odatda pedagogik kuzatish ma'lum reja asosida o'tkaziladi. U orqali talabalarga aytmasdan va sezdirmasdan ularning bilimlarnio'zlashtirishlarini, ularning xulq-atvori va xususiyatlarining o'zgarishlarni, qobiliyatlarining o'sishlarini, qo'yilgan maqsad amalga oshayotganligini, shaxsiy farqlarini aniqlash, qiyoslash, hisobga olish va biror aniq maqsadni amalga oshirishni maqsad qilib, idrok qilish uchun amalga oshiriladi hamda ta'limiy hamda tarbiyaviy ta'sir etish asosida metod va vositalarni belgilash uchun qo'llaniladi. Kuzatish orqali to'plangan materiallar o'rganiladi va tadqiqotchini u yoki bu pedagogik xulosalar qilishiga zamin yaratadi.

Bunda kuzatishlar davomiyligi va soni, kuzatish ob'yekti, vaqti, yig'ilgan dalillar tahlil qilinadi va qiyoslanadi. Nihoyat, kuzatish natijalariga qarab, pedagogik vaziyatlarni ijobiy tomonlarga o'zgartirish uchun kerakli tavsiyalar taqdim etiladi. Pedagogik kuzatish metodi bevosita va bilvosita kuzatish

turlariga bo'linadi. Bevosita kuzatish metodi biror-bir hodisaning oqibatlari, talabani shu vaziyatda bo'lgan hatti-harakatlari, so'zlari haqidagi aniq materialni talabalar, o'qituvchilar, ota-onalar, boshqa shaxslar orqali yoki video, diktofonni qo'llashi bilan o'rganib olishga imkon beradi. Bilvosita kuzatishda to'g'ri, ob'yektiv natijalar olish uchun shaxsan tadqiqotchi pedagog o'zi ishtirok qilib, borish, hodisa va vaziyatlarni, kerakli talabalar hatti-harakatlarini o'z ko'zi bilan kechiradi.

Kasbiy pedagogikanin

ilmiy – tadqiqot metodlari yosh avlodni tarbiyalash, o'z kasbiga bilimni qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan tashqi va ichki aloqa va munosabatlarni tarkib toptirishga, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini ajratishga, bilim berish va tarbiyalashning optimal yo'llari, metod va vositalarini ilmiy tekshirishlar o'tkazib aniqlashga yordam beradi

Pedagogik kuzatish

Suhbat

O'qituvchi ijodini o'rganish

So'rovnoma test

Maktab hujjatlarni tahlil qilish

Eksperiment tajriba-sinov

Statistika ma'lumotlar tahlil

Matematika – kibernetika metodi

1.2-rasm. Kasbiy pedagogikaning tadqiqot metodlari

Suhbat metodi-maktab, texnikum, oliy ta'lim o'qituvchilari hamda ta'lim muassasi talabalari jamoalari bilan, ota-onalar, tanish va notanish odamlar bilan ta'lim muassasalarda, xonadon va ko'chada, transport yoki biron tashkilotda yakka, guruhli yoki ommaviy tarzda qo'yilgan pedagogik masalalarni aniqlash uchun olib borilganda qo'llaniladi. Har bir pedagogik maqsadga yo'naltirilgan suhbat tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rganini

bildiradi. Jumladan, suhbat mazmunli va maqsadga muvofiq o'tishi uchun avvalambor quyidagi masalalar yechishi talab etadi:

suhbat rejasini to'zish, uni amalga oshirish yo'llarini belgilash;

qo'yilgan masalalarga oid kerakli savollarni topish;

suhbatni o'tkazish joyi va vaqtini belgilash va erkin, do'stona gaplashishga qulay sharoitlar (shinam joy, chiroyli musiqa, yorug'lik, guldastalar va h.k.) yaratish;

suhbatdoshlarning soni, yoshi, kasbi, bilim va madaniyat darajasi va hulq atvorini, umuman kimligini oldindan bilish yoki aniqlab olish, suhbat ch og'ida shularni unutmaslik;

suhbatga madaniy chaqirish, taklif qilish yoki suhbat qilishni so'rash, iltimos qilish;

suhbatda tashqi ko'rinish va o'zini madaniy tutishi, mazmunli so'zlari bilan suhbatdoshlarni lolqoldirish;

o'zi va suhbatdoshidan mahmadona va bachkana bo'lmasligini so'rash, bor savollarini aniq va ravon qo'yish;

muomala ohangini ijobiy to'g'irlash, jiddiy tusdagapirish;

suhbatning qaysi bir daqiqasida uni kerakli, maqsadiy tomonga yo'naltira olishni bilish, suhbatdoshning ayni paytdagi ruhiy holatini sezib, suhbatni shunga moslashtirish, o'zgartirish yoki mutlaqo to'xtatish.

Tekshirayotgan suhbatdosh bilan bevosita og'zaki suhbat tarzida aloqada bo'lish paytida uning javoblarini ko'pincha yozmasdan erkin muomala shaklida qo'llaniladi. Lekin bu pedagogik tadqiqotga yo'naltirilgan suhbat erkini suhbatemas, savollarni oldindan belgilangan izchillikda bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar suhbatdoshlarning roziligi bilan video yoki diktofonga yozib olinadi. Suhbat natijalari tahlil qilinadi, qiyoslanadi, umumlashtiriladi, tegishli xulosalar chiqariladi, ular qo'shimchalar bilan pedagogik jarayonga kiritish yoki kiritmasligiga tavsiya beriladi.

Bolalar ijodini o'rganish-bunda talabalarning o'ziga xos faoliyatlariga, shaxsiy bilim, malaka va qobiliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, muayyan

xulosalar yasaladi. Har bir inson bu bir katta mo'jiza va bir dunyodir. U hayotga kelishi bilanoq xudo, tabiat bergan, ota-ona qoni bilan kelgan nafaqat o'z tashqi ko'rinishi, balki qobiliyatlari, intilishlari bilan boshqalardan farqlanadi. Shunga qarab har bir o'qituvchining vazifasi-bolaning o'zini nimalarga tortilishini topib, shu xislatlarni shakllantirish va rivojlantirishini ta'minlab berishi darkor. Bolalarning qaysi ijodga mansubligini aniqlashda pedagogik tadqiqotlar va tahlillar o'tkaziladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun ularning turli daftarlari, tutgan kundaliklari, bayon va insholari, yozilgan ertak, hikoya va she'rlari, to'qilgan mato va tiqilgan kiyim-bosh kiyim-oyoq kiyimlari, chizilgan rasmlari va ishlagan fotosur'atlari, to'zilgan asbob-uskunalar va apparat yoki mashina- mexanizmlarning maketlari, matematika formulalarni yechishga yangicha yondoshuvlari, fizika- kimyo-biologiyadan o'tkazilgan tajriba-sinovlari, ona yurtimizning turli joylariga sayr qilishlari, arxeologik qazishlarga ishtirok etishlari, tarixiy meros va yodgorliklarimizni astoydil o'rganishlari, majlis va munozaralarda so'zga chiqishlari va sahnada she'r aytish va spektakl qo'yishlari, musiqa bilan shug'ullanishlari, jismoniy tarbiya va sport biron turi bilan mashg'ulotlari, sartaroshlik, o'yni bezatish, pazandachilikka o'rinishlari, o'ydagi hayvonlari, bog'i va polizlariga qarashlarini o'rganishi hizmat qiladi. Bolalar ijodini o'rganish, tahlil qilish va baholash uchun mamlakatimizda tugalmaydigan ravishda har bir maktabdan tortib respublika miqyosigacha ko'p fan va san'at olimpiadalari, tanlov va festivallar, konsert va ko'rgazmalar, musobaqa va ijodiy uchrashuvlar o'tkaziladi. Bularning natijasi yoshlar orasidanqobiliyatli, salohiyatli, zukko, bir ishga ixlos qo'ygan, intilishlari zo'r o'g'il va qizlarimizni aniqlab olishdir. Bu aynan tadqiqotchi pedagoglarning ishidir. Keyingi bosqichda yoshlarning iste'dodlarini o'stirish uchun har bir ta'lim muassasida dastur, reja, moddiy va ilmiy sharoitlar to'zilgan, maxsus maktablar va to'garaklar ishlamoqda.

Test, so'rovnomalar metodi - izlanuvchi-tadqiqotchining boshqa shaxslardan pedagogik-psixologik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot, ma'lumot olish bu metodning asosiy xususiyatini tashkil

qiladi va ta'lim-tarbiyada faol qo'llanilmoqda. So'rovnoma, ya'ni anketada yaratilgan ilmiy farazning dolbzarligi va yangiligini aniqlash, talabalarning bilimini va saviyasini aniqlash, ularning fikrlarini, qarashlarini, qaysi fanlarga va qanday kasblarga qiziqishlarini, qaysi darsda qanday usullar bilan ishlash, qanday vositadan foydalanish, qanday o'yin qilish foydali, unumli va qiziqarli o'tadi, qaysi adabiy qahramon, ishchi, shifokor, olim, san'atkor, o'qituvchi, talaba, sportchidan o'rnak olsa arziydi, kelajakdagi maqsadlari va rejalarini bilish va u haqda xulosalar chiqarish, tavsiya va maslahatlar berish maqsadida o'tkaziladi. So'rovnomalarda oila, auditoriya, guruh, maktab jamoadagi o'zaro munosabatlarni o'rganishda qo'llaniladi, ularning materiallari munosabatlarning shakllanishidagi turli bosqichlarni ta'riflovchi to'siqlar va faol holatlarni ko'rsatadi.

So'rovnoma metodlaridan biri-bu test yordamidagi sinov metodidir.

Test sinovlar metodi-bu yozma ravishda berilgan javoblarni umumiy tarzda yig'ib olish metodidir. Test savollari natijasida olingan javoblardan kutiladigan maqsad qisqa vaqt davomida talabalarning bilimlarini bir vaqtichida umumiy baholashdir. Test yordamida sinov talaba yoki o'qituvchining bilish qobiliyati, aqliy tafakkuri, shaxsiy va kasbiy fazilatlar hamda yoshlarning qaysi soha va kasb mutaxassislikka layoqati, iqtidori borligini qisqa vaqt davomida aniqlik kiritish yoki baholash imkonini beradi. So'rovnomalarda javoblarning ta'rifi va miqdori oldindan nazarga olinmasada, test so'rovlarda- savollar muayyan tarzda ifodalanib, taklif qilinayotgan javoblardan bir yoki bir nechtasini tanlab olishni nazarda tutadi. Test yordamida so'roq o'tkazish yanabir ijobiy tomoni -testni ommaviy tarzda o'tkazsa bo'ladi, chunki bilimni baholash jarayonini kompyuter yordamida avtomatlashtirish mumkin.

Bundan tashqari, test savollari va masalalarining o'ziga xos yana bir tomoni shundaki, uning qisqa va lo'ndaligi, to'g'ri javobni umumiy javoblar ichida borligi va ularning talabalarga ko'rsatma bo'lib hizmat qilishi, uning javobni topishda nafaqat bilim, balki diqqat, xotira, sezgirlik va topqirliklar qo'l keladi. Test sinovlarni o'tkazishda talaba va o'qituvchi orasidagi noxush

psixologik to'siqlar yo'qoladi. Barcha talabalarga beriladigan imtihon sharoitlari vaqti, variantlarning murakkablik darajasi, baholash mezonlari deyarli bir xil bo'lishiga erishiladi. Test savollari talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi. Test sinovini oliy, o'rta va o'rta maxsus o'quv yurtlariga reyting nazoratlarida qo'llash ijobiy natijalar bermoqda. Test natijalarini avtomatlash- tirilgan holda ishlab chiqish amalga oshirildi, talabalarning qaysi fandan bilimlarining past yoki yuqoriligini baholash va uni darhol muassasaning o'zida tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Test sinovlarini to'zish murakkab ta'limiy va ilmiy jarayondir. Test sinovlari asosida olingan natija tadqiqot ishi natijalarining real va ishonchliligi testda berilgan savollarning shakliga hamda uning mazmuniga uzviy ravishda bog'liqdir.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi-qator yillar davomidagi materiallarni o'rganish maktab, litsey, kollej o'qituvchi, murabbiy, metodist, psixolog, talabaning faoliyatini ta'riflab berish uchun benihoyat qimmatli ma'lumot beradi. Har bir ta'lim muassasining arxivida saqlanib kelayotgan o'zining tarixiy qiymati baland xalq maorifiga oid hujjatlar, kafedra, bo'lim, fakultet xujjatlari hozirgi vaqtdagi pedagogik jarayon holatini, uning o'tmishdagi holatdan farqli o'laroq qiyosiy tarzda yorituvchi aniq ilmiy ahborot to'plashga, har bir talaba shu yerda tahsil olayotganda har bir qadamini bilib olishga imkon beradi. Shu materiallardan pedagog tadqiqotchi talaba-talabalarning umumiy soni, ijtimoiy tarkibi, ularning o'sishlari yoki kamayish sabablarini, talabalarning har bir fan bo'yicha bilimlarni egallashko'rsatgichi, a'lochi va qoloqlar, iqtidorli, olimpiada qatnashchilari har bir o'quv yiliga qarab soni, muassasaning ilmiy- pedagogik va moddiy baza bilan ta'minlashini aniqlab olishi mumkin. Tadqiqotchi pedagog maktab holatini va unda tashkil qilgan ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganishda o'qituvchilar ishini aks ettiruvchi materiallar, ya'ni davlat ta'lim standartlari, o'quv mashg'ulotlarning jadvallari, o'quv tartibi qoidalari va nizomlari, o'quv reja, dastur, konspekt, ma'ruza matni, bo'lim, kafedra, fakultet, pedagogik kengashining bayonnomalari, yoritilgan darslik va qo'llanmalar, o'qituvchi, kurator, metodist, psixolog, tarbiyachilar

o'quv-tarbiyaviy ishlari to'g'risidagi kundalik va hisobotlarni so'rab tadqiqiy o'rganadi va taqqoslaydi.

Eksperiment, tajriba-sinov metodi-ushbu metod asosan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarga tegishli ilmiy qarashlar yoki amaliy ishlarning tadbiqu jarayonlarini sinov-tekshiruvdan o'tkazish, aniqlik kiritish uchun o'tkaziladi. Pedagogik eksperiment bu ham kuzatish metodiga yaqin, lekin bularning bir-biridan farqi shundaki, pedagogik kuzatishda toza, ob'yektiv natija olish uchun hech kim mazkur jarayonga aralashmaydi, eksperimentda esa tadqiqotchi pedagog aralashadi, muayyan sharoitlar yaratadi, pedagogik jarayonga yangiliklar kiritadi, uni bir necha marta qayta-qayta takrorlaydi. Eksperimental tekshirish har doim yangi tajriba o'tkazishni nazarda tutadi. Bu tajribaning mohiyati ta'lim-tarbiya jarayonining o'tkazish sharoitini o'zgartirishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik eksperiment maqsadi dastlabki o'qitish yoki tarbiya holatini o'zgartirishda darsga kiritilayotgan aniq metod va vositalar, tanlangan materiallar muhimligini belgilab qo'yishdir. Pedagogik eksperiment o'tkazishdan avval tadqiqotchi pedagog bu ish yuzasidan oldiga qo'ygan ilmiy tushunchalar asosida maqsad va vazifalarni aniqlab olishi kerak. Masalan, faraz (o'rta tashlangan yangi fikrni qanday holatda pedagogik jarayonni o'zgartirishda qaysi ijobiy natijalarni kutmoqda); tadqiqot ob'yekti (qaysi ta'lim muassasasida qaysi fan bo'yicha va qaysi bosqichdagi pedagogik jarayon); tadqiqot predmeti (shu fanning qaysi o'quv material bo'yicha ishlamoqchi); tadqiqot dolzarbligi (bu tadqiqot ilmga, ta'lim-tarbiya tizimiga qaysi oziqa beradi); tadqiqot ilmiy yangiligi (tadqiqotchi o'zi o'ylab chiqqan qaysi fikr va g'oyalarni taqdim qilmoqchi); nazariy muhimligi (ilmni qanday rivojlantiradi); amaliy muhimligi (ta'lim-tarbiya amaliyotiga nima beradi).

Pedagogik eksperimentning quyidagi metodlar mavjud: birdan-bir farqlanish -yangi metod yoki vosita sifati tekshiriladi. Bunda eksperimentda ishtirok etadigan talabalar ikki guruhga bo'linadi, birinchi, nazorat guruhida o'quv ish eskicha, yangi metod vositani ishga kiritmasdan o'tkaziladi, ikkinchi

eksperimental guruhda esa o'quv ish yoki aksincha, yangi metod- vositani kiritib o'tkaziladi. Sinovlar o'tish vaqti va mashg'ulotlar hajmi belgilanadi. Sinovlar tugashi bilan natijalar solishtiriladi, natijalar tahlili yangi metod-vosita ijobiy ta'sir etishi qanchaligini ko'rsatadi. Bunday pedagogik eksperiment ko'zda tutilgan maqsadga qarab uch bosqichgabo'linadi:

1) Ta'kidlovchi bosqich-hozirgi kunda mavjud bo'lgan pedagogik vaziyat o'rganiladi;

2) Nazorat bosqichi-eksperimentda ishtirok qiladigan talaba-talabalar bilim malakalari tekshiriladi va ikki, tarkiblari bilim-malaka bo'yicha teng talabalardan iborat guruhga ajratilgan holda o'rganiladi;

3) O'qitish bosqichi-taqdim etilgan faraz bo'yicha yangi metod-vositalardan iborat pedagogik jarayon yaratiladi va muhimligi tekshiriladi. Birdan-bir o'xshashlik-ikki yoki bir necha guruhlarda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalar darajalarini tekshirish maqsadida darslar turli metod-vositalar asosida o'tkaziladi. Sinovlar tugashi bilan natijalar solishtiriladi, natijalar tahlili har bir guruh talaba-yoshlarning bilimi, ko'nikma hamda malakalar darajalar qanchaligi va sifatini ko'rsatadi. Birga bo'ladigan o'zgarishlar ikki yoki bir necha guruhlarda talaba-yoshlarning bilimi, ko'nikma hamda malakalar darajalarini o'zgartirish maqsadida yangi metod-vositani kiritilib o'tkaziladi. Sinovlar tugashi bilan natijalar solishtiriladi, natijalar tahlili har bir guruh talabalarning bilimi, ko'nikmasi hamda malaka darajalari o'zgarishlar qanchaligi va sifatini ko'rsatadi.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi - respublikamizda har bir tashkilot va ta'lim muassasasining o'zining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Davlat xalq xo'jaligi rejalariga asoslanib, ta'lim muassasalari ajratilgan kapital mablag'larning doimiy ravishda ortib borishi, maktab binolari va ularning jihozlari, kabinet, kompyuter xonalari va laboratoriyalari, muassasa xududi, sport maydoni va stadionlari, kutubxonlari, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalari va ko'rgazmali qurollarini ko'payishi, yaxshi saqlashi va ta'mirlashi, talabalar soni, o'qituvchi kadrlar soni va ilmiy darajalari, ta'lim

muassasasi barpo etilishi, xo'jalik kelishuvlari va ular orqali kelayotgan mablag'larni o'rnatilgan tartibga ko'ra tasarruf etishi qonun va qonun osti hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Bularning hammasi-davlat, jamiyat, xalq nazoratida bo'lib va ishni doimo yaxshilash uchun statistik ma'lumotlarni jamlash va aniqlash tashkiloti orqali aniqlanadi. Tadqiqotchi pedagog uchun statistik ma'lumotlarni tahlil qilish-ta'lim-tarbiya jarayoniga bularning alohida qaysi biri yoki majmua holatda ta'sir ko'rsatishini aniqlash va pedagogik jamoaga tavsiyalarni berish ko'rsatib o'tilgan.

Matematika-kiberiyetika metodi- ta'lim-tarbiya nazariyasi hozirgi kunda hisoblash matematikasi va kibernetika mashinalari yordamida o'zining ko'p ilmiy tadqiqotlarini olib bormoqda. Tadqiqotchi pedagoglar o'zining ilmiy ishlarida dasturli ta'lim, o'qitish jarayonini mustahkamlash, reyting va testlar asosida baholash, ta'lim va tarbiya jarayoni natijasi samaradorligini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim berish, ta'lim muassasalari hisobotini mashinalar asosida to'zish va mashina orqali boshqarish to'g'risida ko'p qimmatli tavsiyalar bermoqda. Bundan tashqari, har bir ta'lim muassasasidagi kompyuterlarda talabalar to'g'risida kerakli ma'lumotlar mavjud. Masalan, talaba talabalar shart-sharoitlarni, yutuq va kamchiliklarni bilish, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlar darajasi, bilimlarni o'zlashtirishga ishtiyoqi, ta'lim vositalari xususan adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, professor-o'qituvchilarning o'qitish ko'rsatgichlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarining sifati, kompyuter bilan mashg'ulot olib borish turlarini o'rganish, qo'llanilayotgan testlar muhimligi, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, talabalar stipendiyasi miqdori, otanonalar va vasiylik kengashlarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, istiqomat tiladigan joyi, ilmiy va diniy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, yetakchi kadr bo'lib yetishida asosiy omillar, talabalarning onglilik darajasi jarayoni, komil inson, ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxs bo'lishi uchun kerakli bo'lgan

ma'naviy sifatlar, komillikka erishish uchun tezroq qutulish kerak bo'lgan salbiy sifatlar, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati haqidagi talabalarning fikrlari va munosabati kabi masalalar kompyuterlarda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

Bundan maqsad, barcha talabalarni bilim, saviya, aqliy salohiyati, ruhiy va jismoniy salomatligi, hozirgi ehtiyojlari va dunyoqarashlarini ilmiy o'rganish hamda vaqtida kerakli tajriba va amaliyotlar o'tkazishdir.

O'qituvchining pedagog–tarbiyachilik faoliyati, uning har bir soha bo'yicha bilim va malumotlardan xabardor bo'lishi, o'z mutaxassisligiga tegishli fundamental bilimga ega bo'lishi hamda ta'lim muassasi o'qituvchisining rivojlanib kelayotgan shaxsi psixologiyasi, uning layoqati, iqtidori va qobiliyatlari to'g'risida chuqur malumotga ega bo'lishi, kishilik olamida sodir bo'layotgan sotsial voqea-hodisalarni to'g'ri idrok etishi va tahlil qila olishi hamda ularni adolatli baholay olishi, guruh jamoasini to'laligicha aniqlikda, yaxlit va har bir talabani induvidual tarzda bilishi, har bir talabaning axloqi, xulqi va jamiyatdagi faoliyatini oldindan aytib bera olish mahoratiga ega bo'lishi muhimdir.

Pedagog kasb etikasi, fazilatlari va mahorati shakllanib borishida pedagogga nisbatan ta'lim muassasi ma'muriyati, kasbdoshlari, talabalar, ularning ota-onalari va yaqinlari tomonidan beriladigan sotsial munosabatlarning ahamiyati kattadir. Pedagogning obro'si uning o'quv jarayonidagi faolligi, ta'lim muassasi jamoasida olib boradigan manaviy-ma'rifiy ishlari, ota-onalar bilan muloqoti xullas, o'z axloqiy idealiga mos hatti-harakatlari bilan belgilanadi. U o'z talabalarida topshirilgan ish uchun yuksak darajadagi sotsial mas'uliyatni his qilish odatini, insoniylik va oliyjanoblik xislatlarini tarbiyalashi, uning aqliy kamolotiga erishib, ma'naviy jihatdan yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishiga muvaffaq bo'lishi kerak.

Pedagog faoliyatiga, uning talabalar turli yosh davrlarida ular bilan qay holatda, qanday tamoyillar va metodlar asosida ishlash va yondashish juda katta ahamiyatga ega. Psixologik-pedagogik manbalarda talabalarga rahbarlik

qilishda doimiy uchrab turadigan quyidagi besh xil ish uslubi alohida ajratib ko'rsatiladi:

- Avtokrat (o'zini doimo hammadan ustun qo'yish, balanddimog');
- Avtoritar (ma'muriy buyruqboz);
- Demokratik (jamoasiga tayangan holda ish olib boruvchi);
- Liberal –loqayd (amalda rahbar-boshqarish mahoratidan chetda, o'z lavozim vazifasini shunchaki bajaradi);
- Noizchil (talabalar bilan amalga oshiradigan munosabatlarda shu vaziyatdagi holatga qarab ish qiladi, uning kim tomonida ekanligini bilib bo'lmaydi!).

Real hayotda pedagog o'z faoliyatida uning rahbarlik uslubi har bir subektiv va obektiv omillarning ta'siri ostida takomillashib boradi. Bunday omillar –pedagogik faoliyatining bir subekti sifatida pedagogning yuksak darajadagi pedagogik madaniyati shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur shartlardan biridir.

Pedagog bilan talabalarning birgalikdagi olib boradigan mashg'ulotlarida har-xil holatlardagi o'zaro munosabatlarni o'rganish natijasida talabalar jamoasidagi psixologik muhit va kommunikativ madaniyat pedagogning talabalar bilan qiladigan muomala tarzi va uning pedagogik nazokatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Ta'lim muassasalaridagi o'qituvchining pedagogik faoliyatiga hamkorlikning quyidagi sakkizta shakli mavjud:

faoliyatga kirish;

mustaqil harakatlar (o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar hamkorlikda bajaradilar);

o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga ta'lim oluvchilarni jalb etadi;

taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan ta'lim oluvchilar ana shu namuna asosida harakat qiladi);

madad harakatlari (o'qituvchi ta'lim oluvchilarga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat

qiladi);

o'zini-o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'tarishda va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);

o'zini-o'zi qo'zg'atuvchi harakatlar;

o'zini uyushtiruvchi harakatlar.

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi hatti-harakatlar shaklida namoyon bo'lib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Birgalikdagi harakat davri qo'yiladigan ushbu almashuvni o'z ichiga oladi: talaba harakat boshlaydi, ta'lim oluvchilaruni davom ettiradi yoki tugallaydi.

Ta'lim muassasalaridagi hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini o'rganish va tajribalarda sinab ko'rishning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarining sabablarini va manbalarini tadqiq etish

hamda ta'lim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyat bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iboratdir.

Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi.

Ta'lim to'g'risidagi qonun g'oyalarini amaliyotga joriy etish Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'qituvchi, ustoz-murabbiy, tarbiyachi va ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy-axloqiy qiyofasi shu bilan birga kasbiy layoqati, mahoratiga uzviy bog'liqdir.

Shaxsni kamol toptirish va tarbiyalash nihoyatda murakkab va nozik jarayoni bo'lib, qadim o'tmishdan bu jarayonni amalga oshirishga jamiyatning eng ilg'or, etuk kishilari jalb etilgandir. Ushbu holat yosh avlodlar ta'lim tarbiyasi, uni amalga oshirish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat, davlat taraqqiyoti va rivojini ham belgilashda ham dolzarb ekanligini anglatadi. O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutahassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, bilim, kasb tayyorgarligi, yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlar egasi hamda barcha ta'lim muassasalarida faoliyat olib

boruvchi kadrdir.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar:

O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada talabalarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishlari lozim. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

O'qituvchi ta'lim muassasida olib boriladigan ta'limiy- tarbiyaviy faoliyatda eng samarali va maqbul metodlar, usullar va ta'lim vositalardan unumli, samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi novator, ijodkor, belgilangan maqsadga erishishda natijani oldindan ko'ra bilish, tashkilotchilik va tashabbuskorlik kabi qobiliyatlar egasi bo'lishi lozim.

O'qituvchi-pedagogolik darajadagi pedagogik intellekt, mahorat, shu bilan birga kommunikativ layoqat, pedagogik takt, texnika (notiqlik sa'ati, gavda, yuz, qo'l-oyoq harakatlari, pantomimika, mimika, jestlar) qoidalari chuqur va mukammal ravishda o'zlashtirishi shart.

O'qituvchi-pedagog notiqlik san'atini va madaniyatini chuqur egallashi lozim, uning nutqi quyida keltirilgan bir qancha xususiyatlarni o'z ichiga olishi lozim: nutqning ravonligi, to'g'riligi, ifodaviyligi, aniqligi, sofligi hamda nutqning rang-barangligi ya'ni boyligi.

O'qituvchi kiyinish ma'daniyati (sodda, turli bezaklardan xoli, ozoda, yorqin ranglarsiz bejirim kiyinishi), ta'lim- tarbiya jarayonida talabaning diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezak va taqinchoqlardan foydalanmasligi, kiyinish uslubi fasllarga mos. O'qituvchi-pedagogning yoshi, gavda to'zilishi, yo'zining qiyofasi, hatto, sochlarining rangi va turmagiga mos ravishda kiyinishi lozim.

O'qituvchi shaxsiy hayotda sofdil, sodda hamda atrofdagi shaxslarga o'rnak bo'la oladigan fazilatlarga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchi jamiyatda va pedagogik faoliyatda muloqot jarayonining eng faol qatnashchisi sifatida o'zida qator fazilatlarni rivojlantirishga erishishi lozim. Chunki, u eng avvalo, vazmin, mulohazali, har bir holat bo'yicha atroflicha fikrlay oladigan, vaziyatga to'g'ri va haqqoniy baho beradigan, mavjud konflikt holatlarning oldini oladigan va uni bartaraf etishda eng maqbul yo'lni tanlay oladigan bo'lishi lozimdir. Talabalar, ularning ota-onalari hamda kasbdoshlari bilan o'zaro muomila jarayonida fikrini aniq, ravshan va to'laligicha yetkazib berishiga alohida e'tibor qaratishi kerakdir. Ular bilan muloqot jarayonida so'zlarni salbiy holatlar to'g'risidagi misollarni keltirishdan emas, balki, talabaning egallagan mavaffaqiyatlarini bayon etishi, ularning bundanda yuqori martabalarni egallashiga ishonch bildirishi zarurdir. Muloqot jarayonida o'qituvchi-pedagogning har bir so'zidan o'z suhbatdoshiga nisbatan samimiylik, hayrixohlik, unga ishonch tuyg'ulari bo'lishi kerak. Shu bilan birga suhbatdoshiga do'stona munosabati sezilib turishi, imkoni boricha ijobiy kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchi-pedagog shaxsi yuqoridagi talablariga mos keluvchi qiyofasi uning nafaqat talabalar balki hamkasblar hamda talabalarning ota-onalari orasida ham obro'-e'tibor va hurmat qozonishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni g'oyalarini amaliyotga joriy etish vaqtida o'qituvchi kadrlarning ro'li beqiyosdir. Komil inson va yetuk malakali kadrlar maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayoni asosida tarbiyalanar ekan, bu jarayonda o'qituvchi-pedagoglarning o'rne kattadir. Shuning uchun o'qituvchilarning shaxsida bir qancha ijobiy xususiyatlar, ma'naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo'lishi aynimaqsadga muvofiqdir.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalar faoliyatining yo'nalishini, o'qitish jarayonining qanday tashkil etilishi va olib borilishi hamda o'qituvchining ish harakatlarini belgilaydi. Bu metodlar o'qituvchi tomonidan

o'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun qo'llaniladigan usullar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimida o'qitish metodlari bilan birga «usul» va «vosita» degan atamalar ishlatiladi.

Usul - ma'lum o'quv materialini o'tishda qo'llanayotgan asosiy o'qitish metodi bilan birga ikkinchi bir o'qitish metodining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rishdir.

Vosita - o'qitish metodlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari - asbob, qurol, apparat va shu kabilardan foydalanishdir.

Ta'lim metodlari o'qitish jarayonida va pedagogik tafakkurning ko'p asrlik rivojlanishi tarixida muhim o'zgarishlarga duch keladi. Pedagogikada ta'lim metodlarini tasniflash va belgilashga bir xil yondashish mavjud emas. Ayrim mualliflar metodlarni belgilashda bilish manbalarining xususiyatlarini asosiy deb hisoblaydilar.

Metod yunonchada -izlanish yo'li, o'rganish, tushunish demakdir.

Ta'lim metodi ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishga qaratilgan o'qituvchi bilan talabalar faoliyatidir (Yu.K. Babaskiy).

O'qitish metodlari - o'qituvchining ishlash uslubi bo'lib, u bu uslub orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi (M.A.Daiilov),

Kasbiy ta'limda ta'lim metodlari didaktikaning eng asosiy kategoriyasidan hisoblanadi. Agar ta'lim mazmuni nimaga o'qitish kerak degan savolga javob bersa, metodi esa qanday o'qitish kerak degan savolga javob beradi.

Fan, texnika va ishlab chiqarish taraqqiy etib borishi munosabati bilan mehnat hamda kasb ta'limi metodlari doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bu metodlarning rivojlanishi va takomillashuvi ilg'or pedagogik tajribaning to'planishi, ilmiy-metodik tadqiqotlarning kengayib, chuqurlashib borishi asosida didaktik tamoyillarning, mehnat va kasb ta'limi tizimlarining takomillashib borishi bilan o'zaro bog'langan holda ro'y bermoqda.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonining eng muhim jihatlaridan biri, ta'lim

metodlaridir. Ishlab chiqarish ta'limi metodlari deganda, ustoz bilan o'quvchilarning birgalikda tashkil qilingan faoliyatining shunday usullari tushuniladiki, ular yordamida o'quvchilar amaliy bilimlarni, ko'nikma va malakalarni egallaydilar, ulaming kasbiy mahorati, mehnatga munosabati asoslari shakllantiriladi, aqliy hamda jismoniy kuchlar, ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi. Ular bilim va ko'nikma manbalari jihatidan:

Nutqiy (tushuntirish, suhbat, yozma yo'riqnoma va hokazolar);

Ko'rgazmali (mehnat usullari va harakatlarini ko'rsatish, ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish, ekran vositalaridan foydalanish, o'quvchilarning kuzatishlari va hokazo); amaliy (mashqlar, laboratoriya-amaliy ishlar); ishlab chiqarish-texnika vazifalarini hal etish;

bilimlar, mehnat ko'nikmalarini va malakalarini tekshirish; tadqiqot metodlari va faol izlash usullarga bo'linadi.

Nutq metodlaridan odatda, kirish instruktaji o'tkazilayotganida, shuningdek, talabalar ish jarayonida joriy instruktaj bilan tanishishlari davomida foydalaniladi.

Ko'rgazmoli metodlar ham kirish instruktaji uchun xosdir. Bu metod ish usullari va operatsiyalarini o'rganish davrida alohida ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish ta'limi uchun amaliy metodlar, avvalo, mashqlar g'oyat muhimdir.

Keyingi paytlarda ishlab chiqarish ta'limida ta'lim berishning «faol» metodlari deb ataladigan ishlab chiqarishga old amaliy o'yinlar, real ishlab chiqarish vaziyatini, ishlab chiqarish hujjatlarini tahlil qilish, ratsionalizatsiya takliflarini jamoa muhokamasida o'tkazish, o'quvchilar ishlab chiqqan asil texnologiya jarayonlarini jamoada muhokama qilish tobora keng qo'llanilmoqda.

Ta'limning boshqa har qanday jarayoni singari ishlab chiqarish ta'limi jarayoni ham muayyan ta'lim vositalaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

O'quv-ishlab chiqarish uskunalari, asboblari va moslamalar, priborlar, hujjatlar (o'quv va ishlab chiqarish hujjatlari), ishlov beriladigan, foydalaniladigan materiallar, ko'rgazmali qurollar, ta'limning boshqa vositalari va hokozolar, ya'ni ishlab chiqarish jarayoni normal kechish uchun bo'ladigan va uni ta'minlaydigan

barcha narsalar ishlab chiqarish ta'limi vositalari jumlasiga kiradi. Ishlab chiqarish ta'limi jarayoning samaradorligi ko'p jihatdan, ba'zan esa hal qiluvchi darajada ta'lim vositalarining mavjudligi sifati va holatiga bog'liq bo'ladi.

Endi yuqorida sanab o'tgan har bir metodni alohida ko'rib chiqamiz.

Kasb ta'limining og'zaki nutq metodlari

Materialni og'zaki bayon qilish. Bu metod o'quv materialini shunday bayon qilishni nazarda tutadiki, buning natijasida yangi texnika, mehnat tushunchalari ochib beriladi. Umuman, mehnat usullari va topshiriqlarini bajarish yuzasidan tushuntirishlar beriladi. Bu metod asosida o'quvchilarning, ustozning jonli so'zi yotadi, bu so'z esa talabalarga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadi, ularning tasavvurini boyitadi, ijodiy fikr yuritishga undaydi, ko'pgina shaxsiy ijobiy sifatlarini tarkib toptirishga yordam beradi.

O'qituvchi (usta) og'zaki bayon qilish jarayonida o'z yozuvlari, hisoblar, hisob-kitoblar, eskizlardan keng foydalanadi. O'quv materialini bayon qilish muntazam, mantiqan izchil va tugallangan bo'lishi kerak. Bunda talabalar materialni oson anglab olishlari uchun o'qituvchi (usta) o'z tushuntirishini o'quvchilarga savollar berish bilan ularning o'zlashtirishini va diqqatini tekshirish kerak.

Og'zaki bayon qilish metodi ayrim kamchiliklarga egadir (ba'zi o'quvchilarning passivligi va dars mazmunini yaxshi o'zlashtirmasligi kuzatiladi), natijada o'qituvchi (usta) ko'pincha darsning o'zlashtirilishi jarayonini tez boshqarish imkonidan mahrum bo'lib qoladi. Bu kamchiliklarga barham berish uchun darsda retorik savollar berish (ya'ni bular shunday savollarki, ularga o'qituvchining o'zi javob qaytaradi), shuningdek, ko'rgazmali

qo'llanmalarni namoyish qilish, (texnologiya hujjatlarini, kinematik sxemalarni tahlil qilish, hisob-kitoblar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi (usta) mavzuni bayon qilishni tamomlar ekan, o'quv materialining asosiy qoidalariga qisqacha yakun yasashi lozim.

Suhbat. Bu mehnat va kasb-hunar ta'limining shunday usulidirki, unda o'qituvchi to'g'ri qo'yilgan savollar yordamida o'quvchilarda ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar hosil qilishga undaydi.

Mehnat va kasb ta'limi metodi bo'lgan suhbatdan yangi materiallarni o'rganish vaqtida ko'proq foydalaniladi, ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va amaliy tajriba uning bazasi bo'lib, xizmat qiladi.

O'quvchilarning yangi o'quv materialini suhbat usuli bilan o'rganishi o'quvchilardan mashg'ulotga puxta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Bu tayyorgarlik shundan iborat bo'ladiki, o'qituvchi (usta) dars rejasi to'zish vaqtida suhbatning asosiy mazmunini belgilab oladi, asosiy savollarni to'zib chiqadi, butun suhbatning borishini, o'quvchilar berishi mumkin bo'lgan javoblarning mazmunini o'ylab oladi, qisqacha kirish va yakunlovchi suhbatlarni tayyorlaydi.

Talabalar suhbatining borishi jarayonida o'qituvchining savollariga javob berar ekanlar, o'zlariga ilgarigi materiallardan ma'lum bo'lgan faktlar, qoidalarni tahlil qiladilar, yangi yakunlarni ifodalaydilar va umumiy xulosa chiqaradilar.

Kasb ta'limi bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar, o'quv materialining mazmuni suhbat metodidan foydalanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Masalan, ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida ishlatiladigan mashinalar, mexanizm va asboblari, texnologiya, mehnat jarayonlari hamda operatsiyalari, mehnatni rejalashtirish, tashkil etishni o'rganish, qiyosiy tahlil qilish asosida talabalarning fikrlash faolligini rivojlantiradi. Ularning olgan bilimlarini e'tiqodga aylantiradi.

Kasb ta'limi darslarida foydalaniladigan suhbat metodining afzalligi

shundaki, u talabalarning bilishga oid qobulyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, ularning fikrini faollashtiradi, ta'lim jarayonini jadal boshqarish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Biroq bu metodni universal metod deb hisoblab bo'lmaydi, chunki u talabalarda mehnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishni ta'minlamaydi.

Instruktaj metodi. Instruktaj - ishlab chiqarish ta'limining amaliy o'qitish jarayonida talabalarda kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan muhandis-pedagog (ustaning) asosiy ish uslubi ko'rsatmasi.

Instruktaj - tushuntirish va ko'rsatish metodlarining birgalikdagi qo'llanishi bo'lib, metodik nuqtayi-nazardan instruktaj bu tushuntirish va amaliy harakat hamda uslublarni birgalikda bajarishdir.

Tushuntirish va ko'rsatishni birgalikda har xil ishlatish natijasida bo'lajak mutaxassislarda texnik, texnologik tushunchalarni, texnikaviy fikrlashni, mehnatni sevis, qiziqish va kasblarga mehrni tarbiyalaydi.

Instruktaj tashkiliy ahamiyatga ham ega bo'lib, ko'p holda amaliy ishlarni bajarishdan oldin ish jarayonida va ish oxirida o'tkaziladi, Instruktaj o'z navbatida: kirish, joriy va yakuniy instruktajlardan iborat.

Kirish mstruktajini mashg'ulotning tashkiliy shakliga ko'ra, **butun** guruhga, **brigada** va ayrim talabalarga amaliy ish bajarishdan oldin o'tkaziladi.

Bu instruktajda - talabalarga mashg'ulot mavzusi, maqsadi aytiladi.

- mashg'ulotning ta'minoti (uskunalar, priborlar, asboblari, moslamalar, materiallar) bilan tanishtiradi va ish joylarining tashkiliy tamoyillarini aytib o'tadi;
- ichki bajarish ketma-ketligini tushuntiradi va bajarish usullarini ko'rsatadi;
- texnik va texnologik hujjatlar bilan tanishtiradi;
- ish jarayonida uchraydigan o'ziga xos kamchiliklarning paydo bo'lishi haqida ogohlantiradi;
- o'z-o'zini nazorat qilish va nazorat usullari bilan tanishtiradi;
- ish bajarish vaqtida, xavfsizlik choralariga e'tibor berishni tushuntiradi.

Kirish instruktajida talabalarga zaruriy hajmdagi texnik texnologik bilimlarni beradi. Shuning uchun ham kirish instruksiyasida oddiy dars shakllari elementlari mavjuddir, ya'ni tushuntirish, suhbat, hikoya, kitob bilan ishlash, ko'rsatish, kuzatish va boshqalar.

Ishlab chiqarish ta'limida kirish instruktajining katta ahamiyatga ega bo'lgani sababli bunga chuqur tayyorgarlik ko'rish va rejalashtirish kerak.

Joriy instruktajda ustoz talabalarning amaliy ishlarni bajarish jarayonida ularning mehnat faolliyatiga tuzatishlar kiritadi va to'g'ri bajarishga ularni yo'naltiradi.

Joriy instruktaj jarayonida o'quvchilar ish faoliyatini faqat nazorat qilmasdan uni boshqarish va rejalashtirib borish kerak. Joriy instruktajda o'quvchilarning ish joylarini tashkil qilganliklarini (asboblarni joylashtirishni, texnologik haritalar, zagotovkalar), mehnat jarayonini amalga oshirayotgan qirralarni kesuvchi asboblarning stanoklarda joylashishi, asboblarni va detallarning mahkamlanganligini va hokazolarni kuzatadi.

Yakuniy instruktaj ham guruhli, brigadali, yakka tarzda bo'lishi mumkin. Yakuniy instruktajda tushuntirish, suhbat, ko'rsatish va namoyish etish uslublari birgalikda qo'llaniladi.

Kasb ta'limining ko'rgazmali metodlari

Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish mehnat va kasb-hunar ta'limining o'rganilayotgan obyektlarni ko'rgazmali-hissiy idrok qilishga asoslangan metodidir. Bu metod o'quv materialini bayon qilish jarayonida quyidagilarni ko'rsatishni nazarda tutadi:

1. tabiiy namunalar: mashinalar, stanoklar, mexanizmlar, moslamalar, asboblarni, zagotovkalar, materiallar va hokazolarni;
2. yassi va hajmdor qo'llanmalar (plakatlar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, maketlar, modellar va hokazolarni);
3. ekranli qo'llanmalar (diapozitivlar, diafilmlar, o'quv kinofilmlari va hokazolarni).

Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish vaqtida muayyan izchillikka

amal qilish, talabalar kuzatayotgan obyektни bayon qilayotgan material mazmuni bilan bog'lash kerak.

Kasb-hunar ta'limi darslarida ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish metodining samarali bo'lishi quyidagi talablarga roya qilishga bog'liqdir:

1. Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish vaqtida ularning barcha talabalarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishini ta'minlash zarur.

2. Ko'rgazmali qo'llanmalar o'quv material mazmunining eng muhim belgilarini aks ettirish lozim.

3. Ortiqcha kuzatish obyektlari bo'lmasligi lozim, chunki ular talabalar diqqatini chalg'itishi mumkin.

4. O'qituvchi ko'rsatilayotgan narsaning talabalar tomonidan idrok etilishi jarayoniga aniq rahbarlik qilishi lozim.

Mehnat usullarini ko'rsatish- mehnat va kasb-hunar ta'limining mehnat usullari, jarayonlari va ularning qismlarini o'rganish vaqtida foydalaniladigan alohida metodi bo'lib, yangi mehnat ishlarini o'rganish vaqtida foydalaniladigan metoddir.

Yangi «mehnat ishlarini o'rganish vaqtida o'qituvchi (usta) undan talabalar o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan eng muhim mehnat usullarini alohida ajratib ko'rsatish zarur.

Mehnat usuli shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining mehnat usulini ish jarayonida ko'rsatish.
2. Mehnat usulini alohida qismlarga (ish va ish bajarishdagi harakatlarga) ajratish va ulardan birini sekin sur'at bilan ko'rsatish.
3. Mehnat usulini ish jarayonida takroriy ko'rsatish.
4. Talabalarning ko'rsatilgan mehnat usulini (uning qismlarini) sinov tariqasida bajarish bilan o'zlashtirishlarini tekshirish.

Mehnat usulini ko'rsatish vaqtida uning talabalarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishini ta'minlash zarur.

Mustaqil kuzatishlar mehnat va kasb ta'limining shunday metodidirki, u o'quvchilarning tabiiy sharoitlarda hodisa va ishlab chiqarish jarayonlarini

bevosita idrok qilishni ta'minlaydi. Bu metoddan texnologiya va mehnat jarayonlarining borishini, mashinalar va ularning ish rejimini o'rganish uchun stanoklar, mashinalarning ishidagi nuqsonlarini aniqlash, mehnat usullarini hamda ularning ayrim qismlarini o'rganish vaqtida foydalanish mumkin.

Mustaqil kuzatishlar jarayon talabalarida texnologiya yoki mehnat jarayonining borishini to'g'ri va tez aniqlab olishga oid ayrim ko'nikma malakalarnigina emas, balki bir-biriga o'xshash xususiyatlar, hodisalar, faktlarni guruhlariga ajratishda, ulardagi o'xshash hamda farq qiluvchi belgilarni topishda, xulosalar chiqarishda namoyon bo'ladigan aqliy faoliyatni rivojlantirish ham ro'y beradi.

Talabalarning mustaqil kuzatishlarini quyidagi sxema asosida tashkil etish va o'tkazish maqsada muvofiqdir.

1. O'qituvchining kuzatish obyektlarini tanlashi.
2. Kuzatishga oid yakka tartibdagi jamoa topshiriqlarini tayyorlash va berish (bu topshiriqlarda kuzatish vaqtida aniqlanishi lozim bo'lgan masalalar aniq ifodalangan bo'lishi lozim).
3. Bevosita kuzatishlarning bajarilishi (kuzatishni qanday olib borish, qanday tizimda va ishchilikda o'tkazish kerakligi haqida yo'l-yo'riq beriladi).
4. Kuzatish natijalarini yozma, grafik hisoblar tarzida rasmiylashtirish.
5. Kuzatish natijalarini jamoa tarzida muhokama qilish va ularga baho berish.

Mehnat va kasb ta'limi darslarida mustaqil kuzatishga oid topshiriqlar o'z murakkabligini, xususiyati va mazmuniga qarab o'qituvchi (usta) tomonidan turli muddatlarga berilishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Ilmiy tadqiqot usullari deganda nima tushuniladi?
2. Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan qanday asosiy ilmiy tadqiqot usullari bor? Ularning mazmuni nimalardan iborat?
3. Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish shakllari va vositalari deganda nima tushunasiz?

4. Kasb-hunar ta'limini tashkil qilishning qanday shakllari va vositalari bor, uning mazmuni nimalardan iborat?

3.MAVZU: KASBIY TA'LIM JARAYONI YAGONA TIZIM SIFATIDA. KASB TA'LIMI PEDAGOGIKASINING DIDAKTIK PRINSIPLARI.



Reja:

- 1.Kasb-hunar ta'limi jarayoni tizim sifatida..
- 2.Kasb-hunar ta'limi didaktikasining asosiy masalalari.
- 3.Kasb-hunar ta'limining qonuniyatlari va printsiplari



Asosiy tayanch iboralar

- | | |
|--|---|
| <ul style="list-style-type: none">• Kasb-hunar• Didaktika• Jarayon• Munosabat• Dunyoqarash• Qonun | <ul style="list-style-type: none">• Komponent• Ijtimoiy munosabat• Uzviy aloqadorlik• Ehtiyoj• Borliq• Tizim |
|--|---|

Umuman pedagogik, shu jumladan kasb-hunar ta'limi jarayonining qonuniyatlari ta'lim-tarbiya va talaba shaxsini rivojlantirish jarayonida ob'yektiv ravishda mavjud aloqadorlik va o'zaro munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Rus pedagog olimi L.D. Stolyarenko va uning maslakdoshlari

tomonidan quyidagi ta'lim qonuniyatlari e'tirof etilgan bo'lib, ular bevosita kasb-hunar ta'limiga ham tegishlidir.

Kasb-hunar ta'limi jarayonining tizim shaklida yaxlit va uzviy aloqador hamda ma'lum o'zaro munosabatda bo'lgan komponentlardan iborat ekanligi;

Ta'limning tarkibiy qismlari: maqsadi, mazmuni, metodlari, vosita va natijalarining ijtimoiy tuzumga bog'liqligi, ya'ni: ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoji va talablari, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalari, madaniyat kabilarni pedagogik jarayonning barcha tashkil etuvchi komponentlarini shakllantirishga ta'siri;

- ta'limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tavsifga ega ekanligi;
- ta'lim natijalarining talabalarning ongli, faol o'quv-bilish faoliyatlariga bog'liqligi;
- kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik va ishlab chiqarish qonuniyatlarining hisobga olinishi, ularning birligi va o'zaro aloqadorligi;
- kasbiy tayyorgarlik jarayonining o'zaro bog'liq nazariy va amaliy ta'lim integratsiyasidan iboratligi;
- kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning yakkama-yakka (individual)-va jamoaviy faoliyatlarining tashkil etilishi kabilar.

Uzluksiz ta'lim, shu jumladan, kasb-hunar ta'limi quyidagi pedagogik qonuniyatlarga asoslanadi:

- kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi (muhandis-pedagog) va talabalar hamda o'rganilayotgan ob'ektlarning o'zaro ta'siri;
- kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning ongliligi, mustaqilligi va faolligi;
- kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida uning ishtirokchilari (o'qituvchi va talabalar) maqsadlarining bir-biriga mushtarakligi;
- kasbiy ta'lim-tarbiya ishi natijalarining talabalar ongi, faol o'quv-bilish faoliyatiga bog'liqligi;
- kasbiy ta'lim-tarbiya, ya'ni pedagogik jarayonni tashkil etuvchi maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl, natija va ishtirokchilar orasida o'zaro bog'liqlik

hamda munosabatlarning mavjudligi;

- kasbiy ta'lim maqsadi, uning mazmuni va metodlari, metod va mazmuni maqsadga erishilganlik darajasini belgilashi;

- kasbiy ta'lim mazmunining fakti, talabalar yoshi, tayyorgarlik darajasi va boshqa individual xususiyatlariga mos holda tashkil etilganda maqbul o'zlashtirilishi;

- kasbiy hatti-harakat usullari (ko'nikma va malakalar)ning asosi hisoblangan bilimlar mohiyatini anglagan holda ish-harakat operatsiyalarini takror bajarish orqali shakllanishi;

- o'quv materialini puxta o'zlashtirilishi avval o'zlashtirganlariga tayanganligi va muntazam ravishda takrorlanganligiga bog'liqligi;

- o'quv materialining maqsadga muvofiq holda shakllantirilganligi va o'quvchilarga yetkazilishi;

- o'zlashtirish sifat va darajasining talabalar imkoniyatlari, qiziqishi, idroki, tafakkuri, xotirasi, qobiliyati, o'qituvchi tomonidan uning ahamiyatli jihatlarini yoritilishi kabilarga bog'liqligi;

- o'zlashtirish maromi va puxtaligini o'qituvchi tomonidan o'quv materialini aniq, lo'nda hamda qiziqarli yetkazilishiga bog'liqligi;

- o'quvchining aqliy rivojlanganligi, o'zlashtirgan bilim, hatti-harakat usullari, hayotiy tajribalariga to'g'ri proportsional bog'liqligi;

- kasb-hunar ta'limining muvaffaqiyati, tezligi va natijalarining o'quvchilar individual xususiyatlariga bog'liqligi.

- o'quvchilarda mustaqil ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish va rivojlantirishning ular oldiga muhim ahamiyatga ega hayotiy dolzarb muammolar yechimini topish vazifasining qo'yilganligiga bog'liqligi kabilar. Kasb-hunar ta'limi jarayonida ishlab chiqarishning quyidagi qonuniyatlarini hisobga olinishi zarur:

- ishlab chiqarish munosabatlarning ishlab chiqarish kuchlari tavsifiga mosligi;

- mulkchilik munosabatlari;

- mehnat harakteridagi o'zgarishlar;
- talab va ehtiyojning ishlab chiqarish darajasidan yuqoriligi;
- mehnatga yarasha taqsimot;
- ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarishga nisbatan o'sishi;
- rejali, proporsional rivojlanish;
- moddiy ne'matlar yaratuvchi odamlarning ongi, xulq-atvori va his-tuyg'ularini qayta ishlab chiqishi;
- yirik mashinasozlik sanoatining uzluksiz ortib borishi;
- ishlab chiqarish jarayonlarini tabaqalashtirish va integratsiyalashtirish;
- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirish;
- ishlab chiqarishni majmuaviy mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va robotlashtirish;
- ishlab chiqarishning intellektuallasuvi;
- mehnat resurslarining o'zaro taqsimlanish sur'atini ortishi;
- xujalik hisobi, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash;
- sanoat sohasi bilan mashg'ul mutaxassislar sonini qisqarishi;
- mehnatni jamoaviy tashkil etishning ortishi, demokratiyalash, o'z-o'zini boshqarish va shu kabilar.

Kasb hunar ta'limi didaktikasining asosiy masalalaridan biri ta'lim printsiplaridir. Zikr etilgan qonuniyatlardan ma'lum qoidalar kelib chiqadi.

Biz o'z ishimizda ta'lim qoidalari, tamoyillari va printsiplarini sinonim sifatida e'tirof etib, xalqaro ko'lamda printsiip deb yuritilganligi bois ushbu iboradan foydalanamiz. Ta'lim printsiplari - bu pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarini belgilovchi asosiy qoidalar tizimidir. Bu qoidalar tizimini bilmaslik yoki ularga asoslanishda no'noqlikka yo'l qo'yish butun yaxlit kasbiy ta'lim-tarbiya ishiga to'sqinlik qiladi.

Ta'lim printsiplari tizimini birinchi bo'lib chex pedagogi Ya.A. Komenskiy ilmiy asosda ishlab chiqdi. U bu printsiplarni, o'quv jarayonini tashkil etilishi uchun asos bo'ladigan qoidalar deb atagan edi.

Pedagogik jarayon amal qilishi zarur bo'lgan qoidalar, ya'ni printsiplarning

mohiyatini bilish ushbu jarayon haqida aniq bilimga ega bo'lish imkonini beradi. SHu bois, biz quyida ularning ba'zi birlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Pedagogik jarayonning tizimlilik (yaxlitlik, bir butunlik) prinsipi - ta'lim-tarbiya va shaxs rivojlanishi (kamoloti)ning uyg'unligi, muayyan tizimga ega ekanligini anglatadi. Bu printsipti ta'lim maqsadi va mazmunini aniqlash, uning tashkil etish shakllari, amalga oshirish metod va vositalarini tanlash, maqsad bilan natijaning uyg'unligini ta'minlash imkonini beradi.

2. Asoslanganlik prinsipi - turkum o'quv predmetlarini o'rganish ob'yekti (predmet, xodisa, jarayon, xatto tirik mavjudot sifatida inson)ning mohiyati, muhim xususiyatlari, aloqalari, ob'yektiv olam bilan muayyan munosabatlarini o'zida ifodalaydi. U har bir o'quv predmetini tegishli fan asoslari sifatida talqin etib, o'zi uchun "yadro" va "o'zak" hisoblangan ma'lumotlarga ega bo'ladi hamda ushbu ma'lumotlarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi, uning aniq soha bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishida tayanch bo'lib xizmat qiladi. O'quv materialiga bunday yondashuv axborotlarning shiddatli oqimi sharoitida pedagogik jarayonni maqbullashtirish (Yu.K. Babanskiy., M.M. Potapshik), jadallashtirish (R.X. Juraev, F. Yuzlikaev, V.F. SHatalov, N.G. Dayri, M.I. Maxmutov) asosiy o'quv materialini mukammal o'zlashtirishga imkon beradi

3. Insonparvarlashtirish prinsipi - pedagogik amaliyotda insoniylashtirish bilan birgalikda qo'llaniladi. Bu har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan yunoncha "humanus" insoniylik va "humanitas" insoniyat so'zidan olinib, bir o'zakka ega bo'lsada, ularning boshqa-boshqa ma'nolar anglatishi olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmetlari mazmuniga inson omili, uning qadr qimmat, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlash g'oyalarini singdirish zarurligini nazarda tutadi.

Insoniylashtirish prinsipi - ob'yektiv olamdagi barcha ne'matlar, shart-

sharoit inson kamoloti, kishilik jamiyati farovonligi, tinchligi uchun xizmat qilish(shartligi) haqidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oya, hozirgi zamon va istiqbol talablari pedagogik jarayonga yakka hokimlik (avtoritar) tarzida yondoshmay, balki uni ishtirokchilarning hamkorligi asosida tashkil etib amalga oshirish zarurligini asoslaydi.

4. Uzlüksizlik prinsipi - fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotga keng ko'lamda qo'llash hozirgi zamon va istiqbolda mustaqil ravishda ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun shaxsga uning butun umri uchun yetarli bo'lgan bilim, hatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni belgilangan vaqt davomida berish mumkin bo'lmay, balki u butun hayoti davomida takomillashtirilib borishini nazarda tutadi. Mazkur printsipt o'qituvchidan ta'lim-tarbiya ishida talabalarning mustaqilligini ta'minlash uchun kerakli shart-sharoit yaratishni talab qiladi.

5. Nazariyaning amaliyot (hayot) bilan bog'liqlik prinsipi - o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlari ularning bevosita hayot faoliyatida qullangan yoki unda dasturulamal bo'lib xizmat qilgandagina ahamiyatli ekanligiga ishora qiladi. Amaliyotda qo'llanmagan bilimlar asossiz bo'lib, qisqa vaqt davomida unutiladi. Bunda bilim, ko'nikma va malakalar ma'lum tartibda shakllantirilib, amalda qo'llanilishi ko'zda tutiladi.

6. Ta'limning ilmiylik prinsipi. Bizni qurshab turgan olamni bilish jarayoni murakkab va ziddiyatli. Ilmiy bilish hodisadan mohiyatga, narsaning tashqi ta'siridan uning ichki to'zilishini tasvirlashga utishdan iboratdir. Agar o'quv material talabani qonunlar, tushunchalar, formulalar va teoremlar olami bilan tanishtirsa, bunday bilimlar ilmiy bilimlar deb ataladi. Ular aqliy rivojlanish uchun yetakchi ahamiyatga egadir. Faqat ana shunday bilimlarga o'quv predmetining ilmiy mohiyatini anglab yetishga, kelgusida esa fan asoslarini chuqurroq egallab, mehnatda faol ishtirok etishga, sabab-oqibat munosabatlarini uzviy bog'lash anglanishiga imkon beradi.

7. Tushunarlilik prinsipi. Bilimlarvpi o'zlashtirishning osonligi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi talabalarning rivojlanish darajasi, shaxsiy

tajribasi bilan aloqasini ko'rsatadi. Agar bunday aloqalarni anshutab bulmasa, bilimlar tushunarli deb hisoblanmaydi. Olamda barcha narsalar o'zaro bir-biriga bog'liq, barcha narsalar hodisalar urtasida aloqa mavjud. SHuning uchun barcha ilmlar, barcha o'quv predmetlari o'zaro bir-biri bilan boglivdir. Talaba o'zlashtiradigan bilimlar insoniyat tajribasining bir zarrachasi hsoblanadi va shuning uchun ham yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan hamisha boglash mumkin.

8. Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi. Kishilik jamiyati rivojlanishining ilk bosqichlarida o'qitish bolalarning katta avlodga taqlid qilishlari, katta yoshdagi kishi bajargan amaliy hatti-harakatlarni qaytarish hisobiga olib borilardi. O'qitishning bu sodda shakli ishonarli va samarali bo'lganligi tufayli hozirgi kungacha saqlanib qoldi. XVII asrda Ya.A. Komenskiy ko'rgazmalilik tamoyilini har qanday tarzdagi o'qitishning muvaffakiyatli bo'lishi negizi sifatida tahrifladi. I.G. Pestalotstsi bu tamoyilni o'qitishning asosiy vositasiga aylantirdi. Bu printsipga amal qilinganda eshitish organlari bilan bir qatorda ko'rish organlari jalb etiladi. Shuning uchun ham xalqimizda "Yuz marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan ma'qul" degan maqol o'rinli qo'llaniladi. Ko'rgazmalilik zarur bo'lgan joyda me'yorida ishlatilsa samara beradi, me'yor bo'zilganda esa talabalarning fikri asosiy materialdan yiroqlashadi. Ularning tafakkur doirasi torayadi, aksincha ko'rgazmalilik kerakli joyda o'rinli qo'llanilsa o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt davomida saqlanadi.

Ko'rgazmalilik tamoyilining hozirgi izohi quyidagi asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi:

1. Ko'rgazmalilik deganda talabaning hissiy bilishini tashkil qilish tushuniladi.

2. Ko'rgazmali qurollardan foydalanish o'quv jarayonida hissiy bilishni tashkil etishning bir jihati hisoblanadi.

9. Ta'limning onglilik va faollik prinsipi. Bu printsip talabalarning o'quv-

bilish faoliyatiga psixologik jihatdan asos qilib olingan qoida sifatida quyidagi uchta muhim jihatni: talabalar tomonidan o'quv materialining ongli ravishda tushunilishini, o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lishni, bilish faoliyatining shakllanishini o'z ichiga oladi.

10. Ta'limning puxtalik prinsipi. O'quv materialini o'zlashtirishning puxtaligi ko'pgina omillarga: tushuntirishning ilmiyligi va tizimlilikiga, tushunishning ongliligiga; talabalarning bilish faolligiga, uqish sabablariga, o'qituvchining mahorati va shu kabilarga bog'liq.

11. Tarixiylik prinsipi. O'quv materialini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida mashg'ulotlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida tarixiylik prinsipiga amal qilinsa dasturiy material boyitiladi, yangisi bilan bog'lanadi, istiqbolda o'rganiladiganlariga ishora qilinadi va uni puxta o'zlashtirishga imkon yaratiladi. Shu yo'l bilan gahlimdagi ketma-ketlikni ifoda etish imkoniyati tutiladi, natijada o'zlashtirilgan bilim, hatti-harakat usullarini yaxlitligi ta'minlanadi.

12. Ta'limni individuallashtirish prinsipi. Bir talaba umumiy xislatlaridan tashqari individual xislatlarga ham egadir. Talabaning bilishi, irodasi, hissiyotiga oid xususiyati, shaxsiy xislatlari ta'limning borishiga ijobiy yoki salbiy tahsir ko'rsatishi yoki betaraf qolishi mumkin. Talabalarning individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda mashg'ulot (dars) jarayonini tashkil qilish - o'qitishni individuallashtirish deb yuritiladi.

Kasb-hunar pedagogikasida kasbiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi xususiy printsiplar qullaniladi. Bu printsiplar umumiy didaktik printsiplar bilan bevosita aloqador bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan talablar va u amal qilishi lozim bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi.

13. Kasbiy mobillik prinsipi - insonni tez fursat ichida hayotga tatbiq etilayotgan yangi texnika va samarali texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatini ko'zda tutadi. Mehnatning tezkor moslashuvchanligi, ijodiy tavsifi bevosita inson dunyoqarashi, bilimlar ko'lamining kengligi, kasbiy faoliyatda

uchraydigan muammolarning yechimini tezkorlik bilan topishiga bog'liq psixolog olim L.S. Vygotskiy iborasi bilan aytganda "Amaliyotda ilgari yurib, u uchun yo'l ochib beradigan ta'lim yaxshi hisoblanadi". Shuning uchun ham bugungi o'quvchi nimani bilishiga emas, balki nimani uddalay olishi va ertangi kunda nimalarga qodir bo'lishi mumkinligiga ahamiyat bermoq zarur.

14. Kasbiy ta'limning modullilik prinsipi modulli ta'limning mohiyati shundan iboratki, o'quvchi o'ziga berilgan axborotlar balki va metodik ko'rsatmalardan iborat shaxsiy o'quv dasturiga asoslanib mustaqil holda didaktik maqsadga erishadi. Modulli ta'lim maqsadi mazmuni va tashkil etish metodikasi quyidagilarni aniqlashga imkon beradi: ta'lim mazmunan o'ziga xos, dinamik o'zgaruvchan va tezkor bilimlarni ajratib olish; dasturning variativ harakteriga ega; ijtimoiy buyurtmaga binoan mazmun o'zgaradi. Modulli ta'limdan foydalanish o'quv materiallarini, ya'ni uning bilimlari prinsipini to'zishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, yaxlitligini saqlab qolgan holda mazmunni o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish imkonini beradi.

Modullilik prinsipini amalga joriy etish quyidagilarni ta'minlaydi:

- sub'yekt maqsadlarga erishish uchun barcha faoliyat kurinishlarini integratsiyalashga va muntazam ravishda sub'yekt maqsadlariga yetishish borasida muqobil yechimlarni izlashga;

- istiqbolda sub'yektni kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga yunaltirishga;

- modullar hayotning barcha sohalaridagi, shu jumladan fan-texnika, texnologiyalardan o'zgarishlarni tezkorlik bilan hisobga olish imkoniyatini beradi.

15. Qulay muhit hosil qilish prinsipi - eng avvalo mehnat va hayot xavfsizligi, moddiy-texnik va o'quv-uslubiy negiz, texnik, texnologik, ergonomik, iqtisodiy, pedagogik, sanitariya-gigiena, ekologik va shu kabi talablarga amal qilishni ko'zda tutadi. Bunday muhitni hosil qilish quyidagicha ijtimoiy, psixologik, pedagogik tizimlarni ishlab chiqish va amalga joriy etishni talab

etadi.

Me'yoriy mehnat sharoitini yaratish, pedagogik tahsiri maqbullashtirish tizimi.

16. Politexnik printsi - zamonaviy texnik va ishlab chiqarish texnologiyalarini umumiy asoslari bilan tanishtirish, tizimli bilim hosil qilish demakdir. Politexnik printsiptni amalga oshirish quyidagi shart- sharoitga amal qilishni talab etadi.

ta'lim-tarbiya mazmunining fan-texnika taraqqiyoti asosiy yo'nalishlariga mosligi;

- o'quv materialini o'zaro aloqador yaxlit bilimlar shaklida tashkil etish;
- o'rganilayotgan materialni bo'lajak kasbiy faoliyat bilan bog'lash;
- o'quv materialining o'quvchilar yoshi va individual xususiyatiga mosligi;
- o'quvchilarning bilishga qiziqishlarini qondirish imkoniyatlari;
- tayanch umumilmiy bilimlar va ko'nikmalarga tayanish;
- ta'lim mazmunining moddiy-texnik bazaga mosligi;
- ishlab chiqarish mehnatiga tahsir etuvchi omillarning hisobga olinishi;

17. Ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo'shib olib boorish prinsipi. Nazariy ta'lim bilan amaliyotning bog'liqlik prinsipi. Nazariya va amaliyotning aloqadorligi ikki tomonlama jarayon. Ular bir-biri bilan organik aloqador. Bu prinsipning amalga oshirilishi quyidagi shart-sharoitlarga amal qilinishiga bog'liq:

Nazariy bilimlar amaliyotga nisbatan ilgarilab borishi, amaliy mashg'ulotlarda uning to'g'riligi tekshirilishi lozim.

Har qanday mehnat jarayonida turli soha bilimlari va malakalari sintezlanishi zarur.

Malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish uchun soha bilimlari sintezlanishi lozim. Shu jihatdan ta'lim mazmunini integratsiyalash quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshiriliish kerak: birinchidan, yagona predmet doirasida kasbiy bilim va malakalarni birlashtirish,

ikkinchidan, maxsus bilim va malakalarning o'zaro aloqadorligi gorizontal yo'nalishda.

18. O'quv jarayonida kasbiy faoliyatni modellashtirish prinsipi

19. Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik prinsipi - ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning maqsadga muvofiqligi, ularga bo'lgan davlat va jamiyat talab hamda ehtiyojlarining maqbul qondirilishini ko'zda tutadi.

20. Ta'limda predmetlararo bog'liqlik prinsipi: ta'lim muassasalarida o'tilayotgan umumta'lim, maxsus va kasbiy turkum o'quv predmetlari boshqa o'quv predmetlari bilan o'zaro bog'liq holda olib borilishi lozim. Bunda o'quv predmetdagi mavzular takrorlanmasdan, balki bir-birini tuldirib boradi.

21. Reduktsiyalash prinsipi. - fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarining amaliyotga keng ko'lam va tezkorlikda joriy etilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan axborotlarning shiddatli oqimi sharoitida o'quv materialini imkoni boricha qisqartirish, ya'ni eng muhim tizim hosil kiluvchi qismini ajratib olishni ko'zda tutadi. Bu qisqartirish Davlat ta'lim standarti orqali belgilangan mazmunning yetarli va zarur darajasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasligi zarur.

22. Refleksivlik prinsipi - sub'yektning uz shaxsiy faoliyatiga, o'zlashtirgan hayotiy tajribasiga baxo berishi, uzgalarning u haqidagi fikrlari va ular bilan hamkorlik muloqoti va munosabatlarini tavsiflaydi.

23. Maqbullik prinsipi - pedagogik shart-sharoitlarning kulayligi, mavjud imkoniyatning hisobga olinishi, oz vaqt, mablag' va zo'riqish kuchlari sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi.

24. Ta'lim-tarbiya jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv prinsipi - tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim-tarbiya jarayonini samarali, xususan o'quvchilarning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichlariga utish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni ko'zda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiyani ijtimoiylashtirish, o'quvchilar tomonidai ijtimoiy tajribaning individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishini ko'rsatadi.

25. Ijtimoiy-iqtisodiy ta'minot prinsipi - pedagogik jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini nazarda tutib, barcha turdagi ta'lim muassasalari faoliyatini bu jarayon ishtirokchilari imkoniyatlari, davlat va jamiyat talablari, fan taraqqiyoti, ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olish, ularni uyg'unlashtirish, integratsiyalashtirishni ko'zda tutadi.

26. Muntazamlilik prinsipi. Uzluksiz ta'lim tizimining bug'inlari orasida, davlat talablari va davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, o'quv predmetlari dasturlari orasida ma'lum ketma-ketlikka amal qilishni ko'zda tutadi. Muntazamlilik ob'yektlar, jarayonlar, hodisalar, tushunchalar, dalillar orasidagi ichki aloqalar, nazariy qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish urtasidagi mantiqiy bog'liqliklarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Bu printsip o'rganilayotgan materialdan yetakchi g'oyalar, tushunchalar, qoidalarni aniqlash, ularning boshqa tushunchalar bilan aloqalarini o'rnatish, ta'limdagi ba'zi bir umumiy qonunlarni yoritib berish uchun ular rivojlanishining manbai hisoblanadi. Muntazamlilik prinsipi amalga oshirilayotganda albatta, uzviy, predmetlararo, o'zaro aloqalarni ko'zda tutish muhimdir.

27. Ta'lim mazmunining barkarorligi va dinamik o'zgaruvchanligi prinsipi. Kasb-hunar ta'limida ma'lum o'quv materialini uzoq vaqtlar davomida o'zgarmasdan kolishi va fan-texnika taraqqiyoti, ishlab-chiqarish" texnologiyalari, madaniyat, globallashtirish kabilarga ko'ra ma'lum o'quv materialini muntazam ravishda takomillashib borishini ko'zda tutadi.

Ta'lim-tarbiya printsiplari ko'plab pedagoglar tomonidan tadqiq etilgan, lekin u tugallanmagan, tugallanishi mumkin bo'lmagan tizimdir.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar ta'limi pedagogikasida kasbiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi xususiy printsiplar qo'llaniladi. Bu printsiplar umumiy didaktik printsiplar bilan bevosita aloqador bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayoniga quyilgan talablar va u amal qilishi lozim bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi.

4-MAVZU: ASOSIY- DIDAKTIK TUSHUNCHALAR. KASB HUNAR TA'LIMIDA UMUMDIDAKTIK TAMOYILLAR.



Reja:

1. Pedagogik jarayon mohiyati va to'zilmasi.
2. Kasbiy ta'lim tamoyillari.
3. Pedagogik jarayonni loyihalash.
4. Kasb-hunar ta'limi jarayonining ishtirokchilari



Asosiy tayanch iboralar

Ruhiy holat

O'zaro hamkorlik

O'zaro ta'sir

Natija

Dunyoqarash

Pozitsiya

Tarbiyaviy vazifalar

Rivojlantiruvchi vazifalar

Nazorat qilish

Xulosa qilish

Tushuncha

Tanlov

Ma'lumki, har qanday ta'lim-tarbiya ishida, shuningdek, kasb-hunar ta'limida o'qituvchi va o'quvchilar ushbu jarayonning bevosita ishtirokchilari hisoblanadilar. Bu ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi natijasida, ya'ni ularning o'zaro ta'sir, muloqot va munosabatlari tufayli ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshadi.

Ma'lumki, kasb-hunar kollejlariga o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarining to'qqizinchi sinflarini bitirganlar safidan qabul qilinadi. Odatda ularning yoshi 15-18 larda bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar. Vatandoshimiz yetuk psixolog olim E.Goziev va uning maslakdoshlari fikricha bu yoshdagi o'spirinlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladilar:

- jismoniy barkamollikning ifodalanishi;
- * ruhiy jihatdan muayyan ko'rsatkichga erishilganligi;
- * xulq, faoliyat va muomala jarayonlarida individuallikning shakllanishi;
- * e'tiqod, dunyoqarash va pozitsiyada barqarorlikning mavjudligi;
- * bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda individuallik;
- * faoliyatga oid individual uslubning paydo bo'lishi;
- * kasbiy motivatsiyaning ustuvorligi;
- * ma'naviy ehtiyoj, barkaror qiziqishning qat'iyan yetakchiligi;
- mutakassislikka munosabatning shaxsiy pozitsiyaga bo'ysundirilganligi;
- * kollej va oliy maktab muhiti o'ziga xosligining ular shaxsiyatida ifodalanishi;
- * amaliyot va muhitga moslashishning sifat jihatidan tafovutlanishi.

Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fani xulosalari kasb-hunar kollejlarida o'quvchilar o'z xulqi va o'quv-bilish faoliyatini boshqara olmasligini ko'rsatadi. Bundan kasbiy ta'lim jarayonida o'qituvchining o'rni muhim ekanligi kelib chiqadi.

Pedagogik jarayonning mohiyati unda ishtirok etuvchi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro xamkorlik faoliyati mazmunida uz ifodasini topadi. Bunda o'qituvchining faoliyati o'quvchilarni yo'naltirish, safarbar etishdan iborat bo'lib, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar bilan belgilanadi, o'qituvchi o'quv materialini o'quvchining ongiga yetkazish uchun eng avvalo nutq (suz)dan, shuningdek, shart-sharoit, vaziyat, shakl, metod, vositalaridan foydalanadi.

Kasb-hunar kollejlarida pedagogik jarayonni tashkil etish, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilishda faqat o'qituvchi emas, balki muhandis-pedagog,

tajribali mutaxassis kabilar ham ishgirok etishi mumkin. Lekin, boshqa o'qituvchilardan farqli ravishda kasb ta'limi o'qituvchisi psixologik-pedagogik, sohaviy va ixtisoslik bo'yicha tayyorgarlikni o'zida mujassamlashtiruvchi tizimli ma'lumot oladi.

- 1- Psixologik-pedagogik tayyorgarlik bitiruvchiga o'quv predmetini mustaqil ravishda loyihalashtirish, mazmunini tanlab olish va uni o'qitish metodikasini ishlab chiqish malakalarini egallash imkoniyatini beradi.
- 2- Sohaviy tayyorgarlik esa ishlab chiqarish ta'limi va amaliyotini tashkil etish, amalga oshirishda rahbarlik qilish va natijalarini nazorat qilib baholash ishlarining mohiyatini anglab yetishga imkon beradi,
- 3- Kasb ta'limi o'qituvchisi yoki muhandis-pedagoglarning lavozimiy vazifalari esa ixtisoslikka oid bilim, ko'nikma va malaka hamda shaxsiy fazilatlarni talab etadi.

Rosssiyalik olimlar Ye.I. Serkova va V.D. Simonenkolarning ko'rsatishicha kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik tarkibiy qismlari orasidagi maqbul munosabatning 60 foizini sohaviy tayyorgarlik, 27 foizini psixologik-pedagogik tayyorgarlik va 13 foizini ixtisoslik bo'yicha tayyorgarlik tashkil etadi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish mumkinki, pedagogik jarayonning markazida uning teng nufuzli ishtirokchilari - o'qituvchi va o'quvchilar turadi. Bu ishtirokchilarning birini ikkinchisiga nisbatan yuqori nufuzga ega deb e'tirof etish o'ziga xos bir yoqlamalikka olib keladi. Ular orasidagi ongli o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, o'zaro munosabat, ularning bir-biriga ko'rsatadigan aks ta'sirlarini hisobga olish zarur.

Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha ixtisoslik mazmuni bir-biridan 60 foizdan ortiq miqdorda farq qiladi. SHuning uchun ham oliy ta'lim tasniflagichiga mutaxassislikni sohalar bo'yicha turlashda alohida nom va kodlar kiritish talab etiladi.

Xozirgi paytda respublikamizda besh bosqichli kasbiy pedagogik ta'lim tizimi mavjud. Ular mazmuni va uqish muddatlariga ko'ra bir-biridan

farqlanadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisiga mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish talabi ularning kasbiy tayyorgarlik darajasining yuqori bo'lishiga ishoradir. SHu o'rinda ijtimoiy pedagogik shart-sharoit, muhit bir vaqtning o'zida kasbiy pedagogik rivojlanishni talab etuvchi motiv va rag'bat bo'lib xizmat qilishini yodda tutish zarur.

Barcha turdagi ta'lim muassasalarida, shuningdek, kasb-hunar kollejlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi va uning natijalarini nazorat etib, baholovchi asosiy shaxs o'qituvchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 5- moddasida "Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi tegishli ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslarga berilishi" ta'kidlangan. Bunda kasbiy tayyorgarlik tushunchasiga alohida e'tibor berish zarur. CHunki ma'lum ma'noda barcha odamlar ta'lim tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanishadi, biroq faqat o'qituvchilargina kasbiy pedagogik shug'ullanadilar. Demak, o'qituvchilar pedagogik qonuniyatlar asosida faoliyat ko'rsatib, o'z burch va vazifalarini sifatli bajarishga javobgar shaxe hisoblanadilar. Har bir o'quvchi, yosh avlod jamiyat va davlat taqdiri uchun javobgarlik his - tuyg'ulari o'qituvchi vazifasini tavsiflaydi. O'qituvchi mehnatining bugungi natijasi bilan jamiyatimizning ertangi istiqboli bevosita bog'liq. SHuning uchun ham "Barkamol avlod Uzbekiston taraqqiyotining poydevori"shiori Prezidentimiz tomonidan shakllantirilib, xalqimiz tomonidan e'tirof etilgan.

Sabr-toqat va kelajakka ishonch o'qituvchining muhim kasbiy fazilatidir. Kasb-hunar ta'limi o'qituvchisining ishi juda murakkab ko'rinishdagi inson-inson; inson-texnika va texnologiya munosabatlariga tegishli. CHunki kasbiy pedagogik jarayon ishtirokchilari hamkorlik nuqtai nazaridan chegaralangan.

Pedagogik vazifa - kasbiy bilim va hatti-harakat usullarini qo'llash borasidagi faoliyatni amalga oshirishdir. Buning natijasi ularoq o'quvchi ta'lim oladi, tarbiyalanadi va ma'lum ma'noda rivojlanadi.

O'qituvchining bosh vazifasi ta'lim-tarbiya, shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarini nazorat etish hamda baholash hisoblanadi.

Zamonaviy o'qituvchi faoliyati o'qitish emas, balki o'qib-o'rganishga yo'naltirish; tarbiyalash emas, balki tarbiyalash jarayonlarini boshqarishga qaratilgan. SHuning uchun ham pedagog-murabbiyni Suqrot - "fikrlar doyasi" deb atagan edi. O'qituvchi tayyor ma'lumotni yetkazishi emas, balki o'quvchilar ongida tushuncha, tasavvur, xulosa hosil qilishi zarur.

O'qituvchilar nima bilan shug'ullanishi va ular mehnatining o'ziga xos xususiyatlari ko'p sonli tadqiqotchilar tomonidan bayon etilgan. Ulardan biriga, o'qituvchining bosh vazifasi pedagogik boshqaruvchilik, deb biluvchilarga e'tiborimizni qaratsak. Boshqaruv vazifasini aniqlashtirish uchun "pedagogik loyiha" tushunchasidan foydalanamiz, "Pedagogik loyiha" deganda har qanday o'ylangan va oxiriga yetkazilgan o'qituvchi faoliyati tushuniladi. Masalan, dars, mavzu yoki bilimni o'rganish, viktorina tashkil etish, ekologik ekspeditsiya uyushtirish va shu kabilar. Bu ishlarning barchasini o'qituvchi bajaradi. Bunda boshqaruv qanchalik o'ylab, sinchkovlik bilan amalga oshirilsa, shuncha xatolarga kam yo'l quyiladi va natijada yuqori samaradorlikka erishiladi.

Pedagogning birinchi vazifasi loyihani shakllantirish davridanoq paydo bo'ladi va u ma'lum maqsadni ko'zda tutadi. Ma'lumki, maqsad pedagogik faoliyatda muhim omil, bu jarayon ishtirokchilarini ma'lum ma'noda hamkorlikdan umumiy natijaga chorlaydi va yunaltiradi.

Boshqarish jarayonining mohiyati ishtirokchilar hatti-harakatlarini maqsadga erishish yo'lida muvofiqlashtirish minimum farqlarga yo'l qo'ygan holda maksimal natijaga erishishdan iborat. Ta'lim-tarbiya ishida boshqarish, eng avvalo, talabalarning bilimlariga asoslanadi; ularning tayyorgarlik darajasi, imkoniyatlari, tarbiyalanganligi, rivojlanishiga tashhislash asosida erishiladi. O'quvchilarning jismoniy o'ziga xos jihatlari va ruo'iy rivojlanganligi ularning aqliy va ahloqiy tarbiyalanganlik darajasi, yashash shart-sharoitlari kabilarni bilmasdan turib, to'g'ri maqsad quyib unga erishish vositalarini tanlab ham

bo'lmaydi. Bu muhim qoidani o'z vaqtida K.D. Ushinskiy paykab, "Pedagogika insonni barcha jihatlarida tarbiyalay olishi uchun uning barcha jihatlarini bilish zarur", - deb ta'kidlagan edi. Demak, o'qituvchi pedagogik vaziyatlarni tashhislash va bashorat etish metodlarini mukammal bilishi kerak. U metodlar odatda ilmiy tadqiq etish metodlarini takrorlaydi. Bundan tashhislash bilan bashorat etishning uzviy bog'liqligi kelib chiqadi. O'qituvchidan aniq shart-sharoitga asoslangan holda faoliyat natijalarini oldindan ko'ra olish qobiliyati talab etiladi. O'zining faoliyati natijalarini oldindan ko'ra olmagan pedagogii tavakkaliga ish ko'radigan yo'lovchiga, ongsiz o'rgimchakka o'xshatish mumkin, xolos. Yuqorida zikr etilgan fikrlarni muxtasar holda I.P. Podlasıy quyidagicha jadval shaklida ifodalash mumkinligini ko'rsatdi.

O'qituvchi o'zining xamkorlari, shart-sharoitini tashhislaydi hamda istiqbolni oldindan tasavvur etib, ta'lim-tarbiya faoliyatini loyihalashga kirishadi.

O'qituvchining loyihalovchilik vazifasi tula amalga oshiriladigan faoliyatning modelini kurishdan, ushbu shart-sharoit hamda ajratilgan vaqt omillari hisobga olingan holda maqsadga eltuvchi yo'l va vositalarni tanlash, maqsadga erishtiruvchi aniq bosqichlarni ajratish, ularning har biri uchun xususiy vazifalarni belgilash, erishilgan natijani nazorat qilish va baholash ko'nikmalari hamda shakllarini aniqlash kabilardan iborat. Haqiqqiy o'qituvchi auditoriyaga rejaning barcha ikir chiqirlarini batafsil, aniq bilmasdan, o'ylamasdan kira olmaydi. Bunda rejaning hajmi emas, balki mohiyati, ya'ni uning o'qituvchi kuz ungida gavdalanishi muhimdir. SHu o'rinda aytib utish joizki, o'qituvchi faqat bitta emas, balki bir qancha reja variantlarini to'zishi zarur, chunki kuz ilgamas, hisobga olinmay qolgan omillar ham bo'lishi mumkin.

Tashhislash, bashorat etish, loyihalash, rivojlantirish har qanday ta'lim-tarbiya faoliyatida o'qituvchining tayyorgarlik kurish bosqichidagi asosiy vazifadir.

Ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning navbatdagi ikkinchi bosqichida o'qituvchi tashkilotchilik, axborotchilik, nazoratchilik, baholovchilik va o'zgartirishlar kirituvchilik vazifalarini bajaradi.

O'qituvchining tashkilotchilik vazifasi kuzlangan maqsadga erishish yo'lida talabalarning diqqat-e'tiborini jalb etish, ular bilan hamkorlik faoliyatida ishtirok etishdan iborat.

O'qituvchini axborotchilik vazifasining mohiyati ayni makon va zamonda o'qituvchiga asosiy akborot manbai sifatida qarash (tasavvur etish)ni ko'zda tutadi. U takomil darajada hamma narsani, ya'ni o'qitadigan predmetni, psixologiyani, fiziologiyani, pedagogikani biladi, ularga asoslanib kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshiradi, deb faraz qilinadi.

Ba'zi hollarda o'qituvchilarni baholashda nazoratchilik va o'zgartirishlar kirituvchilik vazifalari yaxlit olib qaraladi. O'qituvchi bunday vazifani eng avvalo, ragbatlantirish maqsadini ko'zda tutib, ta'lim-tarbiya jarayonini harakatlantiruvchi kuch sifatida e'tirof etadi. SHuni aniq bilish zarurki, ta'lim-tarbiyada zurlash va qistovlar bilan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Talabalar bilan ishlashda ustalik bilan ularda uqib o'rganishga istak va qiziqish uygotish yo'llarini topish zarur. Nazorat va baholash chogida faqatgina o'quvchilarning qanday o'zlashtirganlarigina emas, balki o'zlashtirmasliklariga sabab bo'lgan jihatlar ham kuzga tashlanadi. Demak, bu bosqichda yigilgan axborotlar o'qituvchining istiqboldagi faoliyatini rejalashtirish, takomillashtirish va maqbullashtirish uchun asos bo'ladi. O'qituvchi bajaradigan vazifalarning ko'pligi uning ishida talaygina ixtisosliklar (aktyor, rejissyor, menedjer, taxlil etuvchi, tadqiqotchi va x.k.) asosiy xususiyatlari mujassamlashganligidan dalolat beradi O'qituvchi kasbiy pedagogik vazifalardan tashqari oilaviy, fuqarolik, jamoatchilik vazifalarini ham bajaradi.

Kishilik jamiyatida odamzod uz-o'zini anglagandan boshlab, ustozlar mavjud bo'lgan. Quyosh olamni yoritar ekan, ular kelgusida ham bo'ladilar.

Bizning barcha muvaffakiyatlarimiz hamda tushkunlikka tushganimizda

eng yaqinlarimiz bo'lgan ota-onamiz va o'qituvchilarimiz yonimizda bo'ladilar. SHuning uchun ham xalqdmizda "Ustoz otangdan ulug" qabilidagi maqol keng ko'lamda qo'llaniladi.

Uzoq tarixdan ma'lumki, o'qituvchi ustozlar qanday bo'lsa, jamiyatning ham ushunday temir qonuniyati mavjud.

Kasb hunar kollejlarida ta'lim tarbiya jarayoni va uni loyihalashtirish.

"Loyihalash" iborasi pedagogikaga texnika sohasidai kirib kelgan bo'lib, reja to'zish ma'nosini anglatadi. Pedagogik faoliyatni loyixalashtirish zaruriyati uning mazmunini murakkabligi bilan bog'liq.

Pedagogik loyihalashtirish pedagog kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, u tashkilotchilik, bilish (gnostik), muloqotga kirishuvchanlik (kommunikativ) va boshqa vazifalar bilan uzviy bog'liq. V.S. Bezrukovning fikricha, kasb ta'limi o'qituvchilari pedagogik loyihalashtirish uchun 28 foizga yaqin ish vaqti sarflar ekanlar.

Pedagogik loyihalashtirishning vazifalari turlicha bo'lib, yangi pedagogik texnologiyalarni amalga joriy etishga imkon beradi. Loyihalashtirish hiobiga ta'lim-tarbiya jarayoni texnologiyalanuvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Loyihalashtirish malakasini egallash pedagoglarga samarali omillarni izlab topish imkoniyatini beradi.

Pedagogik loyihalashtirish vazifalari

Pedagogik loyiha eng avvalo, model bo'lib, ideal va pedagogik amaliyotda pedagogik faoliyatni qiyoslash yo'li bilan ilmiy bilishning samarali vositasidir. Loyihalash asosida kelgusida ta'lim jarayonining rivojlanishrshi ilmiy bashorat etish mumkin. SHuningdek, loyihalashtirish pedagogika nazariyasi bilan amaliyotni boglab turuvchi omildir. U ta'lim- tarbiya jarayonining barcha tarkibiy komponentlaridan, shu jumladan, pedagogning intellektual imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi. Pedagogika nazariyasi pedagogik loyihalashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Loyihalar uz urnida pedagogik amaliyotni takomillashtiradi.

Pedagogik loyiha ob'ektlari pedagogik tizimlar, pedagogik texnologiyalar,

mazmuni, metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari va natijasini yaxlit holda mujassamlashtirilib, u ishtirokchilarning bevosita o'zaro bog'liq ta'siri natijasida tahsil oluvchilarni rivojlantirish maqsadida loyihalashtiriladi.

Pedagogik vaziyat pedagogik jarayon doirasida ma'lum vaqtda bu jarayonning xolatini tavsiflovchi loyihalashtirish ob'ektidir. Pedagogik vaziyat bexosdan kelib chiqishi yoki maxsus loyihalashtirilishi mumkin.

Pedagogik vaziyat real shart-sharoitni hisobga olgan holda pedagogik jarayonni aniqlashtirish maqsadida loyihalashtiriladi.

Pedagogik texnologiyalar loyihalashtirish ob'ekti bo'lib, pedagog tomonidan turli metod, shakl va vositalardan foydalanilgan holda hatti-harakatlar ketma-ketligini belgilaydi.

Ta'limiy makonni loyihalashtirish yangi turdagi o'quv binolari kurish, ularni jihozlash va shu kabilar uchun amalga oshiriladi.

Pedagogik loyihalashtirish texnologiyasi pedagogik tizimlar, jarayonlar, texnologiyalarni loyixalashtirish murakkab va ko'p bosqichli faoliyatdir. V.S. Bezrukova fikricha u: modellashtirish, loyixalashtirish va konstruktsiyalashtirish boskichlaridap iborat.

Pedagogik modellashtirish ob'ektning ideal obrazini shartli ravishda ishlab chiqish bo'lib, uning muhim jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Modellar yozma, matn, grafik va faraziy bo'lishi mumkin. Ularda pedagogik maqsadlar, vazifalar, samarali shart-sharoit, ob'ektning tarkibiy qismlari va ularning faoliyat ko'rsatish usullari uz aksini topadi.

Loyihalashtirishning ikkinchi bosqichi loyixa to'zish bo'lib, bunda model pedagogik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan darajaga yetkaziladi. Pedagogik loyihalashtirishning uchinchi bosqichi konstruktsiyalash bo'lib, unda loyiha batafsil kislmlarga bulinadi, real shart-sharoitga yaqinlashtiriladi, ya'ni bunda asosan metodik ishlar bajariladi.

Nazorat savollari:

1. Uzluksiz ta'lim tushunchasining mazmuni qanday?
2. Uzluksiz ta'lim tuzulishi qanday?
3. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari nimalardan iborat?
4. Kasbiy ta'lim turi va tizimi nimalardan iborat?
5. Kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy omillari nimalardan iborat?
6. Uzluksiz ta'limi tizimida o'rta maxsus ta'limining o'rni va ahamiyati qanday?

5- MAVZU. KASBIY METODLARI VA VOSITALARI. KASBIY TA'LIMDA DARS MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI VA TURLARI.



Reja:

1. Pedagogikada o'qitish metodlarining asosiy masalalari
2. Kasb ta'limining og'zaki nutq metodlari
3. Kasb ta'limining ko'rgazmali metodlari
4. Kasbiy ta'lim vositalari
5. Kasbiy ta'lim shakllari



Asosiy tayanch iboralar

Pedagogik izlanishlar	O'qitish jarayoni
Ilmiy tadqiqot usullari	Talabalar faoliyati
Nazariy usullar	O'zlashtirish
Kuzatish metodi	Moslashtirish
Talim shakllari	Usullar yig'indisi
Tasviriy vositalar	Pedagogik jarayon

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalar faoliyatining yo'nalishini, o'qitish jarayonining qanday tashkil etilishi va olib borilishi hamda o'qituvchining ish harakatlarini belgilaydi. Bu metodlar o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun qo'llaniladigan usullar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimida o'qitish metodlari bilan birga «usul» va «vosita» degan atamalar ishlatiladi.

Usul - ma'lum o'quv materialini o'tishda qo'llanayotgan asosiy o'qitish metodi bilan birga ikkinchi bir o'qitish metodining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rishdir.

Vosita - o'qitish metodlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari - asbob, qurol, apparat va shu kabilardan foydalanishdir.

Ta'lim metodlari o'qitish jarayonida va pedagogik tafakkurning ko'p asrlik rivojlanishi tarixida muhim o'zgarishlarga duch keladi. Pedagogikada ta'lim metodlarini tasniflash va belgilashga bir xil yondashish mavjud emas. Ayrim mualliflar metodlarni belgilashda bilish manbalarining xususiyatlarini asosiy deb hisoblaydilar.

Metod yunonchada -izlanish yo'li, o'rganish, tushunish demakdir.

Ta'lim metodi ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishga qaratilgan o'qituvchi bilan talabalar faoliyatidir (Yu.K, Babaskiy).

O'qitish metodlari - o'qituvchining ishlash uslubi bo'lib, u bu uslub orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalami shakllantiradi (M.A.Djalilov).

Kasbiy ta'limda ta'lim metodlari didaktikaning eng asosiy kategoriyasidan hisoblanadi. Agar ta'lim mazmuni nimaga o'qitish kerak degan savolga javob bersa, metodi esa qanday o'qitish kerak degan savolga javob beradi.

Fan, texnika va ishlab chiqarish taraqqiy etib borishi munosabati bilan mehnat hamda kasb ta'limi metodlari doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bu metodlarning rivojlanishi va takomillashuvi ilg'or pedagogik tajribaning to'planishi, ilmiy-metodik tadqiqotlarning kengayib, chuqurlashib borishi asosida didaktik tamoyillarning, mehnat va kasb ta'limi tizimlarining takomillashib borishi bilan o'zaro bog'langan holda ro'y bermoqda.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonining eng muhim jihatlaridan biri, ta'lim metodlaridir. Ishlab chiqarish ta'limi metodlari deganda, ustoz bilan o'quvchilarning birgalikda tashkil qilingan faoliyatining shunday usullari tushuniladiki, ular yordamida o'quvchilar amaliy bilimlarni, ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ularning kasbiy mahorati, mehnatga munosabati asoslari shakllantiriladi, aqliy hamda jismoniy kuchlar, ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi. Ular bilim va ko'nikma manbalari jihatidan:

Nutqiy (tushuntirish, suhbat, yozma yo'riqnoma va hokazolar);

Ko'rgazmali (mehnat usullari va harakatlarini ko'rsatish, ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish, ekran vositalaridan foydalanish, o'quvchilarning kuzatishlari va hokazo); amaliy (mashqlar, laboratoriya-amaliy ishlar);

ishlab chiqarish-texnika vazifalarini hal etish;

bilimlar, mehnat ko'nikmalarini va malakalarini tekshirish; tadqiqot metodlari va faol izlash usullarga bo'linadi.

Nutq metodlaridan odatda, kirish instruktaji o'tkazilayotganida, shuningdek, talabalar ish jarayonida joriy instruktaj bilan tanishishlari davomida foydalaniladi.

Ko'rgazmali metodlar ham kirish instruktaji uchun xosdir. Bu metod ish usullari va operatsiyalarini o'rganish davrida alohida ahamiyatga ega. Ishlab

chiqarish ta'limi uchun amaliy metodlar, avvalo, mashqlar g'oyat muhimdir.

Keyingi paytlarda ishlab chiqarish ta'limida ta'lim berishning «faol» metodlari deb ataladigan ishlab chiqarishga old amaliy o'yinlar, real ishlab chiqarish vaziyatini, ishlab chiqarish hujjatlarini tahlil qilish, ratsionalizatsiya takliflarini jamoa muhokamasida o'tkazish, o'quvchilar ishlab chiqqan asil texnologiya jarayonlarini jamoada muhokama qilish tobora keng qo'llanilmoqda.

Ta'limning boshqa har qanday jarayoni singari ishlab chiqarish ta'limi jarayoni ham muayyan ta'lim vositalaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

O'quv-ishlab chiqarish uskunalari, asboblari va moslamalar, priborlar, hujjatlar (o'quv va ishlab chiqarish hujjatlari), ishlov beriladigan, foydalaniladigan materiallar, ko'rgazmali qurollar, ta'limning boshqa vositalari va hokozolar, ya'ni ishlab chiqarish jarayoni normal kechish uchun bo'ladigan va uni ta'minlaydigan barcha narsalar ishlab chiqarish ta'limi vositalari jumlasiga kiradi. Ishlab chiqarish ta'limi jarayoning samaradorligi ko'p jihatdan, ba'zan esa hal qiluvchi darajada ta'lim vositalarining mavjudligi sifati va holatiga bog'liq bo'ladi.

Endi yuqorida sanab o'tgan har bir metodni alohida ko'rib chiqamiz.

Kasb ta'limining og'zaki nutq metodlari

Materialni og'zaki bayon qilish. Bu metod o'quv materialini shunday bayon qilishni nazarda tutadiki, buning natijasida yangi texnika, mehnat tushunchalari ochib beriladi. Umuman, mehnat usullari va topshiriqlarini bajarish yuzasidan tushuntirishlar beriladi. Bu metod asosida o'quvchilarning, ustaning jonli so'zi yotadi, bu so'z esa talabalarga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadi, ularning tasavvurini boyitadi, ijodiy fikr yuritishga undaydi, ko'pgina shaxsiy ijobiy sifatlarini tarkib toptirishga yordam beradi.

O'qituvchi (usta) og'zaki bayon qilish jarayonida o'z yozuvlari, hisoblar, hisob-kitoblar, eskizlardan keng foydalanadi. O'quv materialini bayon qilish muntazam, mantiqan izchil va tugallangan bo'lishi kerak. Bunda talabalar

materialni oson anglab olishlari uchun o'qituvchi (usta) o'z tushuntirishini o'quvchilarga savollar berish bilan ularning o'zlashtirishini va diqqatini tekshirish kerak.

Og'zaki bayon qilish metodi ayrim kamchiliklarga egadir (ba'zi o'quvchilarning passiviigi va dars mazmunini yaxshi o'zlashtirmasligi kuzatiladi), natijada o'qituvchi (usta) ko'pincha darsning o'zlashtirilishi jarayonini tez boshqarish imkonidan mahrum bo'lib qoladi. Bu kamchiliklarga barham berish uchun darsda retorik savollar berish (ya'ni bular shunday savollarki, ularga o'qituvchining o'zi javob qaytaradi), shuningdek, ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish, (texnologiya hujjatlarini, kinematik sxemalarni tahlil qilish, hisob-kitoblar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi (usta) mavzuni bayon qilishni tamomlar ekan, o'quv materialining asosiy qoidalariga qisqacha yakun yasashi lozim.

Suhbat. Bu mehnat va kasb-hunar ta'limining shunday usulidirki, unda o'qituvchi to'g'ri qo'yilgan savollar yordamida o'quvchilarda ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar hosil qilishga undaydi.

Mehnat va kasb ta'limi metodi bo'lgan suhbatdan yangi materiallarni o'rganish vaqtida ko'proq foydalaniladi, ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va amaliy tajriba uning bazasi bo'lib, xizmat qiladi.

O'quvchilarning yangi o'quv materialini suhbat usuli bilan o'rganishi o'quvchilardan mashg'ulotga puxta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Bu tayyorgarlik shundan iborat bo'ladiki, o'qituvchi (usta) dars rejasi to'zish vaqtida suhbatning asosiy mazmunini belgilab oladi, asosiy savollarni to'zib chiqadi, butun suhbatning borishini, o'quvchilar berishi mumkin bo'lgan javoblarning mazmunini o'ylab oladi, qisqacha kirish va yakunlovchi suhbatlarni tayyorlaydi.

Talabalar suhbatining borishi jarayonida o'qituvchining savollariga javob berar ekanlar, o'zlariga ilgarigi materiallardan ma'lum bo'lgan faktlar, qoidalarni tahlil qiladilar, yangi yakunlarni ifodalaydilar va umumiy xulosa

chiqaradilar.

Kasb ta'limi bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar, o'quv materialining mazmuni suhbat metodidan foydalanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Masalan, ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida ishlatiladigan mashinalar, mexanizm va asboblari, texnologiya, mehnat jarayonlari hamda operatsiyalarai, mehnatni rejalashtirish, tashkil etishni o'rganish, qiyosiy tahlil qilish asosida talabalarning fikrlash faolligini rivojlantiradi. Ularning olgan bilimlarini e'tiqodga aylantiradi.

Kasb ta'limi darslarida foydalaniladigan suhbat metodining afzalligi shundaki, u talabalarning bilishga oid qobilyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, ularning fikrini faollashtiradi, ta'lim jarayonini jadal boshqarish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Biroq bu metodni universal metod deb hisoblab bo'lmaydi, chunki u talabalarda mehnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishni ta'minlamaydi.

Instruktaj metodi. Instruktaj - ishlab chiqarish ta'limining amaliy o'qitish jarayonida talabalarda kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan muhandis-pedagog (ustaning) asosiy ish uslubi ko'rsatmasi.

Instruktaj - tushuntirish va ko'rsatish metodlarining birgalikdagi qo'llanishi bo'lib, metodik nuqtayi-nazardan instruktaj bu tushuntirish va amaliy harakat hamda uslublarni birgalikda bajarishdir.

Tushuntirish va ko'rsatishni birgalikda har xil ishlatish natijasida bo'lajak mutaxassislarda texnik, texnologik tushunchalarni, texnikaviy fikrlashni, mehnatni sevis, qiziqish va kasblarga mehrni tarbiyalaydi.

Instruktaj tashkiliy ahamiyatga ham ega bo'lib, ko'p holda amaliy ishlarni bajarishdan oldin ish jarayonida va ish oxirida o'tkaziladi, Instruktaj o'z navbatida: kirish, joriy va yakuniy instruktajlardan iborat.

Kirish instruktajini mashg'ulotning tashkiliy shakliga ko'ra, **butun** guruhga, **brigada** va ayrim talabalarga amaliy ish bajarishdan oldin o'tkaziladi.

Bu instruktajda - talabalarga mashg'ulot mavzusi, maqsadi aytiladi.

- mashg'ulotning ta'minoti (uskunalar, priborlar, asboblari, moslamalar,

materiallar) bilan tanishtiradi va ish joylarining tashkiliy tamoyillarini aytib o'tadi;

- ichki bajarish ketma-ketligini tushuntiradi va bajarish usullarini ko'rsatadi;
- texnik va texnologik hujjatlar bilan tanishtiradi;
- ish jarayonida uchraydigan o'ziga xos kamchiliklarning paydo bo'lishi haqida ogohlantiradi;
- o'z-o'zini nazorat qilish va nazorat usullari bilan tanishtiradi;
- ish bajarish vaqtida, xavfsizlik choralariga e'tibor berishni tushuntiradi.

Kirish instruktajida talabalarga zaruriy hajmdagi texnik texnologik bilimlarni beradi. Shuning uchun ham kirish instruksiyasida oddiy dars shakllari elementlari mavjuddir, ya'ni tushuntirish, suhbat, hikoya, kitob bilan ishlash, ko'rsatish, kuzatish va boshqalar.

Ishlab chiqarish ta'limida kirish instruktajining katta ahamiyatga ega bo'lgani sababli bunga chuqur tayyorgarlik ko'rish va rejalashtirish kerak.

Joriy instruktajda ustoz talabalarning amaliy ishlarni bajarish jarayonida ularning mehnat faolliyatiga tuzatishlar kiritadi va to'g'ri bajarishga ularni yo'naltiradi.

Joriy instruktaj jarayonida o'quvchilar ish faoliyatini faqat nazorat qilmasdan uni boshqarish va rejalashtirib borish kerak. Joriy instruktajda o'quvchilarning ish joylarini tashkil qilganliklarini (asboblarni joylashtirishni, texnologik haritalar, zagotovkalar), mehnat jarayonini amalga oshirayotgan qirralarni kesuvchi asboblarning stanoklarda joylashishi, asboblarni va detallarning mahkamlanganligini va hokazolarni kuzatadi.

Yakuniy instruktaj ham guruhli, brigadali, yakka tarzda bo'lishi mumkin. Yakuniy instruktajda tushuntirish, suhbat, ko'rsatish va namoyish etish uslublari birgalikda qo'llaniladi.

Kasb ta'limining ko'rgazmali metodlari

Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish mehnat va kasb-hunar ta'limining o'rganilayotgan obyektlarni ko'rgazmali-hissiy idrok qilishga asoslangan metodidir. Bu metod o'quv materialini bayon qilish jarayonida

quyidagilarni ko'rsatishni nazarda tutadi:

1. tabiiy namunalar: mashinalar, stanoklar, mexanizmlar, moslamalar, asboblarni, zagotovkalar, materiallar va hokazolar;
2. yassi va hajmdor qo'llanmalar (plakatlar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, maketlar, modellar va hokazolar);
3. ekranli qo'llanmalar (diapozitivlar, diafilmlar, o'quv kinofilmlari va hokazolar).

Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish vaqtida muayyan izchillikka amal qilish, talabalar kuzatayotgan obyektni bayon qilayotgan material mazmuni bilan bog'lash kerak.

Kasb-hunar ta'limi darslarida ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish metodining samarali bo'lishi quyidagi talablarga rioya qilishga bog'liqdir:

1. Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish vaqtida ularning barcha talabalarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishini ta'minlash zarur.
2. Ko'rgazmali qo'llanmalar o'quv materiali mazmunining eng muhim belgilarini aks ettirish lozim.
3. Ortiqcha kuzatish obyektlari bo'lmasligi lozim, chunki ular talabalar diqqatini chalg'itishi mumkin.
4. O'qituvchi ko'rsatilayotgan narsaning talabalar tomonidan idrok etilishi jarayoniga aniq rahbarlik qilishi lozim.

Mehnat usullarini ko'rsatish - mehnat va kasb-hunar ta'limining mehnat usullari, jarayonlari va ularning qismlarini o'rganish vaqtida foydalaniladigan alohida metodi bo'lib, yangi mehnat ishlarini o'rganish vaqtida foydalaniladigan metoddir. Yangi mehnat faoliyatini o'rganish vaqtida o'qituvchi undan talabalarni o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan eng muhim mehnat usullarini alohida ajratib ko'rsatish zarur.

Mehnat usuli shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin:

- O'qituvchining mehnat usulini ish jarayonida ko'rsatish.
- Mehnat usulini alohida qismlarga (ish va ish bajarishdagi harakatlarga)

ajratish va ulardan bar birini sekin sur'at bilan ko'rsatish.

- Mehnat usulini ish jarayonida takroriy ko'rsatish.
- Talabalarning ko'rsatilgan mehnat usulini (uning qismlarini) sinov tariqasida bajarish bilan o'zlashtirishlarini tekshirish.

Mehnat usulini ko'rsatish vaqtida uning talabalarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishini ta'minlash zarur.

Mustaqil kuzatishlar mehnat va kasb ta'limining shunday metodidirki, u o'quvchilarning tabiiy sharoitlarda hodisa va ishlab chiqarish jarayonlarini bevosita idrok qilishni ta'minlaydi. Bu metoddan texnologiya va mehnat jarayonlarining borishini, mashinalar va ularning ish rejimini o'rganish uchun stanoklar, mashinalarning ishidagi nuqsonlarini aniqlash, mehnat usullarini hamda ularning ayrim qismlarini o'rganish vaqtida foydalanish mumkin.

Mustaqil kuzatishlar jarayon talabalarda texnologiya yoki mehnat jarayonining borishini to'g'ri va tez aniqlab olishga oid ayrim ko'nikma malakalarnigina emas, balki bir-biriga o'xshash xususiyatlar, hodisalar, faktlarni guruhlarga ajratishda, ulardagi o'xshash hamda farq qiluvchi belgilarni topishda, xulosalar chiqarishda namoyon bo'ladigan aqliy faoliyatni rivojlantirish ham ro'y beradi.

Talabalarning mustaqil kuzatishlarini quyidagi sxema asosida tashkil etish va o'tkazish maqsada muvofiqdir.

1. O'qituvchining kuzatish obyektlarini tanlashi.
2. Kuzatishga oid yakka tartibdagi jamoa topshiriqlarini tayyorlash va berish (bu topshiriqlarda kuzatish vaqtida aniqlanishi lozim bo'lgan masalalar aniq ifodalangan bo'lishi lozim).
3. Bevosita kuzatishlarning bajarilishi (kuzatishni qanday olib borish, qanday tizimda va ishchilikda o'tkazish kerakligi haqida yo'1-yo'riq beriladi).
4. Kuzatish natijalarini yozma, grafik hisoblar tarzida rasmiylashtirish.
5. Kuzatish natijalarini jamoa tarzida muhokama qilish va ularga baho berish.

Mehnat va kasb ta'limi darslarida mustaqil kuzatishga oid topshiriqlar o'z murakkabligini, xususiyati va mazmuniga qarab o'qituvchi (usta) tomonidan turli muddatlarga berilishi mumkin.

Nazorat savollari:

Kasbiy metodlari qanday bo'ladi?

Kasbiy vositalari deganda qanday vositalar kiradi?

Kasbiy ta'limda dars mashg'ulotini tashkil qilish deganda nimani tushunasiz?

Kasbiy ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari va turlari haqida ma'lumot bering? Kasbiy ta'limni tashkil etishda qanday an'anaviy usullar mavjud?

Dars mashg'ulotini tashkil etish mexanizmi qanday bo'ladi?

6-MAVZU: KASBIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI TASHHIS ETISH.



Reja:

1.
alabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etish.
2.
ozor munosabatlari sharoitida kasbiy ta'limga qo'yiladigan talablar.



Asosiy tayanch iboralar

Taraqqiyot jarayoni	)-	Namoyish etuvchi ta'lim
O'qitish tamoyillari	-	Daturlashtirilgan ta'lim
Tarbiyalash tamoyillari	2-	Kompyuterlashtirish
Dogmatik o'qitish	3-	Innovatsion ta'lim
Bilimlarni o'zlashtirish	4-	Masofaviy ta'lim
Tushuntiruvchi ta'lim	5-	O'qitish tizimi

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida sifatli ta'limga erishishning eng muhim vazifalari belgilanib, amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan bu jarayonda O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur o'rinda ana shu masalaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunida umumiy o'rta ta'limni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish huquqiy-me'yoriy jihatdan belgilab qo'yilgan. Shu jihatdan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etishning metodikasi muammosini tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Bilim – borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi bo'lib, u inson ongida aks etadi hamda bilimning ilmiy, empirik va nazariy turlari farqlanadi. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, o'quvchilarning bilim darajasini quyidagilar tashkil etadi: 1) o'quv fanlari bo'yicha nazariy tushunchalarga ega bo'lish; 2) o'quv fanlari bo'yicha yangi axborot va ma'lumotlarni egallash; 3) voqelik va hodisaning mazmunini tushunish; 4) ijtimoiy ong va mustaqil fikrga ega bo'lish. Mazkur mezonlar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining bilim darajasini belgilaydi.

Ko'nikma – bu malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi hamda o'quvchilarda takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi. Shu jihatdan ko'nikma ongli faoliyatni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va aqliy kuch sarflagan holda bajarish jarayonining natijasi hisoblanadi.

O'quvchilarning ko'nikmasi o'zlashtirgan bilimlari asosida tarkib topadi. Ko'nikma quyidagi xususiyatlarga ega: 1) bilim olishga odatlanish; 2) axloqiy fazilatlarni o'zlashtirish; 3) ijtimoiy jihatdan faollashib borish; 4) yangiliklarni o'zlashtirishga qiziqish. Bular umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining ko'nikmasini tashhis etishda mezonlar hisoblanadi. Malaka – O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida mazkur tushunchaga quyidagi ta'rif berilgan: "Shaxsning kasbiy faoliyatining muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalari darajasidir" (3-modda). Shu jihatdan o'quvchilarning malakasini quyidagilar tashkil etadi: 1) o'quvchilarning bilimdonlik darajasi; 2) o'quvchilarning qobiliyatlik darajasi; 3) o'quvchilarning mahoratlik darajasi; 4) o'quvchilarning ko'nikmalik darajasi. Bu mezonlar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining malaka darajasini tashhis etishda asos hisoblanadi. Umuman o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari mazmuni quyidagi tasvirga ega: 1-chizma. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining tarkibi yondashuvimizga ko'ra o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etish mazmuni quyidagilardan iborat: 1) o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash; 2) o'quvchilarning ko'nikma darajasini aniqlash; 3) o'quvchilarning malaka darajasini aniqlash; 4) o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish. Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hamda ularni rivojlantirib borish uchun asos hisoblanadi. Shu jihatdan bu jarayonda tashhis etish omilidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhislash vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning bilim darajasi o'sib borishini o'rganish; o'quvchilarning ko'nikma darajasi o'sib borishini aniqlash; o'quvchilarning malaka darajasini aniqlash; o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borish tadbirlarini belgilash hamda tavsiyalarini ishlab chiqish. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhislash uslublari quyidagilardan iborat: maxsus to'zilgan testlardan

foydalanish; statistika; induktsiya va deduktsiya; bashorat qilish; tadbirlarni rejalashtirish va amaliy tavsiyalarni taqdim qilish. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhislashning asosiy bosqichlari quyidagilardir: mo'ljallarni aniqlash; aniqlangan darajalarni modellashtirish; holatni rivojlantirish; o'quvchilar bilan individual ishlash. Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etishda asos hisoblanadi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etish zaruriyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

1) o'quvchilarning bilim darajasi bo'yicha aniq ma'lumotga ega bo'lish va ularning bilimini rivojlantirishga doir reja to'zish;

2) o'quvchilarning ko'nikma darajasini aniqlash va uni rivojlantirish tadbirlarini belgilash;

3) o'quvchilarning malaka darajasini aniqlash va uning o'sib borish yo'nalishlarini belgilash;

4) o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasini xalqaro ta'lim dasturlari asosida tashhis etish. Bunday yondashuv o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasini maqsadli rivojlantirib borish imkonini beradi. Umuman, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etishning an'anaviy metodikasi mexanizmlari quyidagicha yaxlit idrok etiladi: 2-chizma.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etishning an'anaviy mexanizmi bugungi kunda 2020-2021 o'quv yilidan boshlab mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim maktablarida TIMSS, PISA va STEAM xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilmoqda. Shu sababli mazkur dasturlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etish zaruriyat bo'lib turibdi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini ushbu dasturlar asosida tashhis etish quyidagi imkoniyatlarni beradi: a) o'quvchilarning har bir fan bo'yicha bilim darajasini va savodxonligini chuqurlashtirish; b) o'quvchilarning ko'nikmasini amaliy faoliyat asosida rivojlantirib borish; v) o'quvchilarning


malaka darajasini turli tadbirlar vositasida o'stirib borish; g) o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajalarini tashhis etishda xalqaro ta'lim dasturlarining talablariga asoslanish. Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etishning zaruriyatini belgilaydi. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun maxsus guruh to'ziladi. Guruhning tarkibida quyidagilar ishtirok etishi taqozo etiladi: har bir o'quv fanining o'qituvchilari; sinf rahbarlari; taklif etiladigan metodistlar va mutaxassislar; maktab jamoasining vakili; maktab psixologi. Bu guruh o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etish rejasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bizningcha, bunday reja choraklik muddatda to'zilishi kutilgan samarani beradi. Chunki tashhis etishning natijasiga ko'ra, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini yanada rivojlantirish tadbirlari ishlab chiqiladi. Shunday qilib umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etishda xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.

1. O'quvchilar bilimini tashhis etishning mohiyati. Ta'lim tashhisi mohiyati haqida gapirishdan oldin tashhisni umumiy yondashuv hamda tashhislashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida qabul qilamiz. Tashhis - bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashhissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Ta'lim tashhisida oqibatlar, erishilgan natijalar

va ta'lim olganlik farqlanadi. Shuningdek, ta'lim olganlikni tashhislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirishda erishilgan daraja sifatida ham qaraladi. Didaktik tashhisning maqsadi o'quv jarayonini uning samaradorligi bilan bog'liq holda aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashhis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashhis

natijalarini ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim samarasini ta'minlovchi jarayon va bosqichlarni aniqlaydi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashhislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy



Tashxislashning asosiy tarkibiy qismlari

hamrohi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ularning fikrlaricha, bahoning:

- 1) ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini qat'iy belgilovchi - sifat ko'rsatkichi, yoki;
- 2) u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi, kamchiliklarini ko'rsatuvchi ko'rsatkich ekanligi aniq belgilanishi zarur.

Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A. Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob'ektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida

yotadi. Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yo'zaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim, Didaktik nazorat ta'limning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim. Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning murakkab shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashhislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega.

Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashhislash natijalari shaxsning yetuklik darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting - shaxsning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

2. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim. Nazorat tushunchasi ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, o'lchash va baholashni anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ham ataladi. Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida teskari aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat

o'quvchining bilim darajasi, sifati, shuningdek, uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Tekshirish tizimidagi birinchi bosqich ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli.

Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bosqich har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashhislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni o'rganishdir. Bunday tekshirish shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga muvofiq belgilanadi. Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bosqichi sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'zlashtirilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarning mustahkamlik darajasini tashhislash imkonini bermaydi. Tashhisning boshqa shakl va metodlari bilan birga qo'llanilsagina ushbu tekshirish kutilgan samarani beradi.

Tizimning to'rtinchi bosqichi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi - kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashhislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi - tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bosqich ta'lim oluvchilarning

ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir.

O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda mavjud bilim darajasi (sifati)ni tashhislashdir. Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholash (jarayon sifatida) va baho (natija sifatida) ham oladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda. Sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ma'lum ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin - 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmaslik muhim. Baholovchi son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholar harfli (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega. Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi BAT yuz foiz nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B - o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A - amalda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi;

T - o'zlashtirish nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarning to'liq hajmi.


Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100 foiz -

axborotni to'liq o'zlashtirish va 0 foiz - uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'lumki, baholash funksiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho - pedagog ixtiyoridagi o'qish, ijodiy motivasiyani rag'batlantirish, shaxsga ta'sir ko'rsatish vositasi. Aynan xolis (ob'ektiv) baholash ta'sirida o'quvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi o'quvchilar o'quv faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab topishni taqozo etadi.

Hisobga olish - bu ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib, xulosalash demak. O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

- 1) o'quv dasturi asosida mavzu va bulimni o'rganishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;
- 2) har bir yakunlangan mavzu bo'yicha o'quvchilarning faoliyati to'g'risida xulosa chiqarish;
- 3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;
- 4) o'quvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi:



Nazorat qilish va hisobga olish vazifalari

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining qanday darajada ekanligini aniqlashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi va o'qituvchining o'quv metod hamda usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

Ta'lim vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilish olishlariga imkon tug'iladi. Chunki guruhdagi boshqa o'quvchilar javob berayotgan o'quvchining fikrlarini diqqat bilan tinglashadi va avval egallangan bilimlarni mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yecholmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi. Nazoratning tarbiyalash vazifasi shundan iboratki, o'quvchilar har doim tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydi, ko'ngilochar o'yinlardan o'zlarini tiyishga kuch topadi, intizomga o'rganadi.

Shuningdek, tekshirish va baholash o'quvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustahil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin o'quvchining bilimini baholashda o'qituvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham o'quvchilarning yo'zaki dars tayyorlashiga olib keladi.

Eng asosiysi, o'zlashtirishni hisobga olish shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga vijdonan

yondashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo'lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga yo'naltirilmog'i lozim.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirish hamda his-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu o'z-o'zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi.

O'qituvchi mazkur vazifalardan xabardor bo'lish asosida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini hisobga olishni to'g'ri tashkil etadi.

3. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar. O'quvchilarning ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan pedagog talablar (buni pedagog olim N.A.Sorokin ta'rifida berishni ma'qul deb topdik) ta'lim nazariyasi va amaliyotida quyidagicha belgilangan:

- 1) har bir o'quvchining o'quv faoliyatini nazorat qilishni talab etadigan, sinf yoki guruhning o'quv ishi natijalari o'quvchining shaxsiy natijalarining o'rnini almashtirishga yo'l bermaydigan nazoratning individual tavsifi;
- 2) nazoratni ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida: boshlang'ich idrok etishdan to bilimlarni amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida o'quvchilarning o'quv faoliyatlarining boshqa tomonlari bilan birgalikda olib borishning tizimlilik;
- 3) nazoratning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini hal etadigan, uni olib borishga o'quvchilarni qiziqtiradigan turli shakllari;
- 4) o'quv dasturining barcha qismlarini qamrab olgan, o'quvchilarning nazariy bilimlari, intellektual hamda amaliy ko'nikma va malakalarini tekshirishdan iborat nazoratning keng ko'lamlilik;
- 5) o'quvchilarni har jihatdan bilib olmasdan turib, o'qituvchining xato xulosalar chiqarish, sub'ektiv munosabatda bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, shuningdek, o'zlashtirish natijalarini baholashda baho mezonlariga qat'iy rioya qilishni talab etadigan nazoratning xolisligi (ob'ektivligi);
- 6) har bir fan, uning bo'limlarining maxsus xususiyatlari, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy

qobiliyatlarini hisobga olgan holda turli nazorat metodlarini tanlashning tabaqalashganligi;

7) muayyan sinf (guruh) o'quvchilarining o'quv ishlarini nazorat qilishda barcha o'qituvchilar tomonidan qo'yiladigan talablarning bir xil bo'lishi.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya qilish orqali nazoratning ishonchliligi ortadi va yoquv jarayonida o'z vazifalarini hal qilishga imkon yaratiladi.

4. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari. Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uchta vazifasi borligini alohida uqtiradi:

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab davlat ta'lim standartlari qanday bajarilayotganligi nazorat qilinadi va vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchilarda bilimlar yanada kengayadi. Bu bilan ta'lim muassasalari oldida turgan ta'limiy maqsad bajariladi.

3. Ta'lim sohasida yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi, ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun ham ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Ana shu vazifalardan kelib chiqib o'quvchilar o'quv faoliyatini hisobga olishning bir qator shakl va metodlari asoslangan.

Har bir fan bo'yicha o'quvchining o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash chorak yoki yarim yillik davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari orqali baholanadi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

Joriy nazorat - bu o'rganilayotgan mavzularni o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar

qo'yib borishni nazarda tutadi.

Oraliq nazorat - bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan (mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi) bir necha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lim bo'yicha o'quvchilarning bilimlarni aniqlash.


Yakuniy nazorat - bu nazorat chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan mavzular to'liq o'tib bo'lingach, o'tilgan mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. O'quvchilarning faoliyatini hisobga olish metodlari og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan bo'lishi mumkin.

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir. Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham atashadi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq, o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin. Ko'pgina fanlarda og'zaki tekshirish o'quvchilarning javoblarini yozma mashqlarni tashkil etish asosida to'ldirib boriladi. Masalan, o'quvchilarning "Qo'shma gaplar" mavzusini qanday o'zlashtirganliklarini tekshirishda ana shunday yo'l tutish mumkin. Ular o'z javoblarini isbotlash uchun misol keltiradilar.

Bu misollarni doskaga yozib, sintaktik va grammatik jihatdan tahlil qiladilar. Matematika, fizika va ximiyadan og'zaki tekshirish qoidaga muvofiq misol va toptiriqlarni amaliy ko'nikma va malakalar baholash maqsadidan kelib chiqib hal etiladi. Keng tarqalganligi va samarali ekanligiga qaramay o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashda og'zaki tekshirish ayrim kamchiliklarga ham ega. Chunonchi, uni qo'llash jarayonida:

- nisbatan ko'p mehnat sarflanadi;
- dars mobaynida 3-4 nafar o'quvchinigina bilimini tekshirish mumkin.

Shu bois o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun turli shakllardan foydalaniladi.



Og'zaki frontal tekshirish o'quvchilardan og'zaki so'rash bo'lib, ular guruhga qaratilgan savollarga javob beradilar. Bunday tekshirishda javoblar qisqa bo'ladi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchilarni nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi, ammo o'quvchilarning nutqini o'stirmaydi. Bunday nuqsonlar individual so'rashda ko'zga tashlanmaydi. Ammo so'rashning bu shaklida guruhdagi boshqa o'quvchilarning to'laqonli ishlashlariga erishish juda qiyin. Kombinatsiyalangan (tezlashtirilgan) tekshirishda o'qituvchi bir necha o'quvchini bir vaqtda doskaga chaqiradi, biri og'zaki javob beradi, 3-4 nafar o'quvchi esa kartochkalar bo'yicha yozma ishni bajarishadi va hokazolar. Bu tekshirishning murakkab usuli bo'lib, o'qituvchidan yetarlicha tajriba va diqqatlarini guruhdagi hamma o'quvchilarga taqsimlay bilishni talab qiladi.

Yozma tekshirish - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi. Yozma tekshirish topshiriq, ya'ni, insho yozish hamda turli nazorat va mustaqil ishlarni bajarishni uyda ham amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu jarayonda o'qituvchining bajarilgan ish bilan tanishib chiqishi,

uning sifatini tekshirishi uchun ko'p mehnat va vaqt sarflanadi. Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin.

O'quvchining butun dars davomidagi barcha faoliyatlarini nazorat qilish tekshirishning maxsus turi bo'lib, u o'quvchining darsdagi ishtiroki uchun ball qo'yish bilan yakunlanadi. Bu o'quvchini doimo harakat qilishga va faollikka undaydi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda. Reyting deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikasiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish. Uning turli uslublari sifat tavsiflarini miqdoriy o'zgarishlarga aylantirishga yordam beradi.

Ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etdi. Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o'quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilayotganligi, ta'lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o'quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar bilimini baholashning besh balli tizimining eskirganligi, zamon talablariga javob bera olmaganini uni reyting tizimi asosida baholash uslubi bilan almashtirishni taqozo etdi. Shu o'rinda "Qanday sabablarga ko'ra besh balli baholash mezonini o'zini oqlamadi?" degan savolga javob berish

o'rinlidir.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'limni dekmokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Besh balli baholash tizimi qattiqqo'llik, o'qituvchining mustabidligi hamda uning ta'lim jarayonida yakka hukmronligini ta'minlashga xizmat qilib kelgan.

Demak, ushbu jarayonda talab va amaldagi holat bir-biriga muvofiq kelmaydi.

Ikkinchidan, baholash mezoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ixtiloflarni keltirib chiqarishga emas, aksincha, o'zaro faol hamkorlik, bir-birini tushuna olishlari uchun xizmat qilishi lozim.

Uchinchidan, baholash mezoni faqatgina o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasini nazorat qilish uchungina emas, balki ta'limni tashhis etishning faol ko'makchisiga aylanishi zarur.

Baholashning besh balli tizimi birdan beshgacha farqlanuvchi dastlabki baholar qo'yish tartibini bildirib, mohiyatan baholar o'rtasida yig'indisining o'rtacha arifmetik qiymati asosida choraklik (yillik) bahoni belgilashdan iborat. "Reyting" inglizcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi inson faoliyatidagi ijobiy va salbiy sifatlarning doimiy ravishda o'zgarishib turishini anglatadi. Reyting tizimi o'quvchilarning bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli bo'lib, uning yordamida o'quv fani ta'lim standartining barcha imkoniyatlari bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar sifatini baholash jarayonini ta'minlab beradi.

Reyting tizimida o'zlashtirish natijasi nazoratning ko'rsatilgan barcha shakllardan o'tish jarayonida to'plangan ballarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Har bir nazorat turi uchun 10 balldan taqsimlanganda (o'quv fani uchun 100 ball hisobida) unga 7, 5, 8, 7 ball qo'yilsa, o'quvchining chorak yoki yarim yillik uchun to'plagan bali 27 ballni tashkil etadi, bu esa 55 foizdan kam, shuning uchun u yetarlicha reyting ballini to'plamaguncha va barcha nazorat shaklidan o'tmagancha attestasiya qilinmaydi. Demak, reyting tizimi olingan baho bilan egallangan bilim o'rtasida tafovut kelib chiqishining oldini oladi.

Reyting tizimi yana bir qator afzalliklarga ega, chunonchi:

- ta'lim jarayonida baholash tizimi imkoniyatlarini kengaytirish;
- o'quvchi bilimini eng adolatli mezonlar yordamida aniqlash;
- ta'limni standartlashtirish jarayoni uchun zarur imkoniyatlarni ochib berish;
- ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan o'quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy mavzularning to'laligicha o'zlashtirilishi;
- o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishlash intilish, erkin fikr yuritish, bilimlarni egallashga nisbatan izchil yondashuv yuzaga keladi;
- o'quvchilarda yomon baho olishga bo'lgan qo'rquv yo'qolib, uning o'rniga bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish yo'lida mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. Boshqacha aytganda, qo'rquv o'rniga intilish, rejalashtirish, harakat qilishga ehtiyoj tug'iladi, o'rganishga nisbatan qiziqish ortadi.

Biroq, bugungi kunda ham maktab amaliyotida besh balli baholash tizimidan foydalanilayotganligi bois pedagoglar mazkur tizimning rag'batlantiruvchi rolini oshirish yo'llarini izlamoqdalar. Bu borada bir necha usullardan foydalanishmoqda. Xususan:

- 1) baholarni qo'shish va ayrish alomatlari bilan ifodalash. Sinf jurnallarini yuritishning amaldagi qoidalari ifodaviy belgili baholarni qo'llashga imkon bermaydi. Shu bois pedagog murosa qilib, sinf jurnaliga aniq baholarni qo'yadi, plyus-minuslarni esa shaxsiy yon daftarchasida qayd etib boradi;
- 2) raqamni balli baho (qo'shimcha baho) bilan to'ldirishi. Bu usul instruktiv ta'qiqlarga ega emas, biroq pedagoglar tomonidan kam qo'llaniladi, zero, bu usul dars davomida shusiz ham tanqisligi seziladigan vaqtni ko'proq sarflashni talab etadi;
- 3) o'qituvchining kundalik daftarga baho qo'yish bilan birga ota-onalar uchun qaydlarni yozishi. Bu usul o'quvchining oila oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishga asoslanadi. Quyidagi holat inobatga olinmasa, bunda biror g'ayri oddiylik yo'q. Kundalikda qayd etilgan yozuvlar mazmuni bilan tanishish

ularning asosan salbiy mazmunda ekanligini ko'rsatadi. Ma'lumki, salbiy fikrlar o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan rag'batni barbod qiladi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, 5-6-sinf o'quvchilarida ta'lim olishga bo'lgan rag'batning pasayishini ta'minlovchi omil - aynan kundalikdagi salbiy mazmundagi qaydlardir.

4) kommunikativ motiv - tengdoshlarining munosabati, fikri. O'quvchilar tengdoshlarining munosabati, fikrlariga nisbatan e'tiborsiz bo'la olmaydilar. Pedagog ana shu omildan foydalana olishi zarur, biroq uni suiste'mol qilish yaramaydi, zero, bunday yondashuv ham o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan rag'batni susaytiradi. XIX-XX asr boshlarida gimnaziyalarda shunday qoida ustun bo'lgan: o'quvchini jamoa oldida maqtash mumkin, lekin koyish mumkin emas. Bugun ham ta'lim amaliyotida ana shu qoidaga amal qilish foydadan holi emas.

5) kommunikativ ta'sirni kuchaytirish, bu o'rinda o'quvchilarni o'z sinfdoshlarining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini his qilish, unga yordam ko'rsatishga o'rgatishdan iborat;

6) o'zlashtirish ekranlaridan foydalanish. Sinfda ekran osib qo'yilib, unda o'quvchilarning barcha baho ko'rsatkichlari qayd etib boriladi. Buning kamchiligi a'lochilarda kibrlanish, past o'zlashtiruvchilarda esa befarqlik yuzaga keladi. Bunday holatning oldini olish uchun o'quvchilarni axborotni to'g'ri qabul qilishga o'rgatib borish zarur.

7) o'z-o'zi bilan musobaqa tashkil etish, har hafta oxirida o'quvchi o'z faolitini tahlil etadi. Yakunlangan haftada o'zlashtirish pasaysa, garchi u a'lochi bo'lib qolaversa ham o'quvchi musobaqada boy beradi. Aksincha, kuchsiz o'quvchi yakunlangan haftada samarali ishlasa, g'olib chiqqan hisoblanadi. O'z-o'zi bilan musobaqada barcha o'quvchilar teng sharoitda bo'ladilar, ya'ni, past o'zlashtiruvchi o'quvchi bitta past bahoni kam olsa, yutgan, a'lochi o'quvchi esa bitta a'lo bahoni kam olgan bo'lsa yutqazadi. Anglanganidek, bu usul o'zlashtirish uchun emas, balki o'zlashtirishni yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar.

Kasbiy ta'lim jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari qanday tashhis etiladi?

Bozor munosabatlari sharoitida kasbiy ta'limga qo'yiladigan qanday talablar mavjud?

Kichiq tibbiy mutaxasislarni o'qitishda qanday ishlab chiqarish jarayonlari mavjud?

7-MAVZU: TIBBIY TA'LIMGa OID XORIJ KASBIY TAJRIBASINI O'RGANISH BO'YICHA QIYOSIY IZLANISHLAR OLIB BORISHNING MAQSADI VA MAZMUNI.



Reja:

1. O'quvchilar bilimini tashhis etishning mohiyati.
2. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari.
3. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar.
4. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari.
5. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari.



Asosiy tayanch iboralar

Kasbiy ta'lim
Isloh qilish
Intellectual salohiyat
Qiyosiy izlanish
Ta'limi tizimi
Oqilona boshqarish
Yaxlit axborot makoni
Xizmat ko'rstaish bozori
Barqaror rirojlanish

Tegishli tashkilot
Tibbiy ta'lim
Xorij tajribasi
Kasbiy tajriba
Tajriba maqsadi
Tajriba mazmuni
Hisobga olish
Nazorat qilish
Barkamol avlod.

Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni

Butun dunyo miqyosidagi, ayniqsa. rivojlangan davlatlardagi ta'lim jumladan kasbiy ta'lim sohasidagi ishlar, bu sohadagi yangiliklar, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari barcha mamlakatlar qatori bizning mamlakatimizda ham o'rganilib ularning tajribasi o'z amaliyotimizga tatbiq qilib borilmoqda.

Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borish natijalarini jahon ta'lim jarayoniga tatbiq etishda mazkur davlatlarning tegishli tashkilotlari bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar ham bir qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Jumladan YUNESKO tashkilotining tashkii topishi va fan texnika taraqqiyotini, ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan ishlari diqqatga sazovordir.

YUNESKO Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan madaniyat masalalarini rivoj lantirishga ixtisoslashtiri lgan tashki loti bo'lib, u 1946-yilda tashkii etilgan. BMT ikkinchi jahon urushidan keyin suveren davlatlarning ixtiyoriy birlashuvi asosida jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash hamda davlatlar o'rtasida tinch hamkorlikni rivojlantirish maqsadida to'zilgan. BMT o'zining to'zilishiga ko'ra

Bosh Assambleya (Yalpi majlis) xavfsizlik kengashi xalqaro sudga ega. Bulardan tashqari, BMTning doimiy amalda bo'lgan faoliyatini kotibiyat olib boradi va uning ishini Bosh Assambleya say lab qo'ygan bosh kotib boshqarib boradi.

Bosh Assambleya har yili jahon siyosatining dolzarb muammolarini muhokama qiladi va bu masalalar bo'yicha BMTga a'zo bo'lgan davlatlarga yoki xavfsizlik kengashiga tavsiyalar beradi.

YUNESKO faoliyati xilma-xil va ko'p qirralidir. Uning ta'lim sohasidagi ishlari ko'p yo'nalishlarda olib boriladi. Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi tendensiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni, ayrim ilmiy izlanishlarni ham oddiy ham ma'naviy rag'batlantirish va boshqalar. Fan va texnologiyani rivojlantirish borasida YUNESKO bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur, asosan, ekologik muhitni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ta'lim sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolari bilan bog'liqdir.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy jihati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda, mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish ham da ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Ma'lumki, uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimda ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi. Qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlavdi. Pedagogik tadqiqotlarning rivojlanishi va natijalarining o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi,

shuningdek, tadqiqot natijalarini jadallik bilan tarqalishini ta'minlovchi axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratilmoqda.

Ta'limga, jumladan kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi quyidagilardan iborat:

- kasb-hunar ta'limi tarixi, metodologik asoslari va rivojlanish istiqbollari ilg'or pedagogik tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish ta'lim jarayonida o'qitish vositalarini keng qo'llash, DTSlari, rejalar va dasturlar mazmunini tahlil etish va boshqalar bo'yicha ilg'or chet el tajribasini o'rganish va ularni ta'lim tizimimizga qo'llash va uni takomillashtirish:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayoniga moslash va ta'lim tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish, uning amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi me'yoriy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim tizimiga chet-el investitsiyalari jalb etishni amaliyotga joriy etish va o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning mazmuni. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga tegishli chet el tajribasini o'rganish bo'yicha izlanilar quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borilishi

mumkin:

- Kasb-hunar ta'limining uzluksizligini ta'minlash uni mazmunan isloh qilish va takomillashtirish;
- Kasb-hunar ta'limi tizimini oqilona boshqarish;
- Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;
- Kasb-hunar ta'limi tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish va xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish;
- Kasb -hunar ta'lim ining fan ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish;
- Kasb-hunar ta'limi va kadrlar tayyorlash sohasidagi chet elliklar bilan xalqaro hamkorlikni ta'm inlash va boshqalar.

Gerinaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Italiya va Yaponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turganligi. Gerinaniya, Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta 'lim-tarbiya nazarivasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar pedagogic tadqiqot markazlari shug'ullanavotganligi sabab ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilganligiga e'tibor qaratiladi.

O'quv dastuiiarini qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda: ekstensiv va iritensiv usul bilan amalga oshirilgan bo'lib, taiabalar ushbu yo'nalishlar mohiyatini o'rganishlari lozim. Birinchi holatda o 'quv muddati uzavtiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; ikkinchi holda esa, m utlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'1, ko'pchilik mutaxassislarning e'tiroficha maqbul hisoblanadi. 1961 -yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSHda o'rta maktablarni isloh qilish boshlangan edi.

Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to'rt vil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilim lar(uch vil). ijtimoiy fanlar (uch yil). kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi. Har bir yo'nalish o'z navbatida bir necha qismga bolinadi.

Masalan, matematika, algebra, trigonometriya, ish yuritish. Kompyuter texnikasini qo'llashdan iborat barcha majburiy predmetlar tarkibiga yangi kurslar kiritildi. 1985-yildan e'tiboran barcha yuqori bosqich kollejlarning to'qson foizi shu besh bazisli tamoyillar asosidagi dasturlar bilan ish olib bonnoqdalar. Natija: majburiy tayyorgarlik bo'yicha ta'lim hajmi qisqardi. shu bilan bir qatorda dastur chuqurlashtirilib o'rganiladigan kurslar hisobiga tig'izlashtirildi.

XX asrning 80-yillarida majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto, ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa, iqtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi. 80-yillardan boshlab, Buyuk Britaniyada ham AQSH dagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti. matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan fanlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir. Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy fanlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan kimyo, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilyapdi. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, axolishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi fanlarga bo'linadi. Yaponiya maktablari Ikkinchi jahon urushidan keyinoq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan. Aftidan, rivojlangan davlatlarda o'quv dasturining rivojlanishi mana shu yo'nalish asosida qurilmoqda. Rivojlangan

xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan yilga oshib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, 80-yillarda AQSH o'quvchilarining 50-yillarga nisbatan reyting ko'rsatkichi 973 dan 893 ga tushib ketgan, Fransiyada ham litsey bitiruvchilari va litsey sohasida faoliyat ko'rsatuvchidan muvaffaqiyatsizlikka uchrayotganligi ta'kidlanadi. Ta'limda ro'y berayotgan bu salbiy holatni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi. To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQSH da bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan, Milliy telekom panija maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkii etgan. O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib boorish bo'yicha chet mamlakatlarning ko'pchiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda. Chet el amaliyotida o'quvchilarni tabaqalantirish, odatda, boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshirilayotganligi, fransuz pedagoglari esa, sinf o'quvchilarini uch tabaqaga:

1. Gomogenlar - matematika va gum anitar yo'nalishda ish olib borsa bo'ladigan o'quvchilar;
2. Yarim gomogen - tabiiy sikldagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'quvchilar;
3. Gegeron - barcha fanlardan har xil saviyada o'zlashtiradigan o'quvchilarga ajratganlariga to'xtab o'tiladi. Xulosa qilib aytganada, XX asrning 80-yillarida chet davlatlarda o'zlashtirm ayotgan va ulgurmayotgan o'quvchilarning ko'payib ketishi tabaqalashtirilgan ta'limga ehtiyoj tug'ilganligiga olib keldi.

Hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim. Rossiyada umumiy ta'lim o'z ichiga boshlang'ich asosiy va o'rta (to'liq) ta'limni qamrab oladi. O'rta maktabda o'qish muddati 11 yilni tashkii etib, bundan 1-4-sinflar boshlang'ich, 5-9-sinflar asosiy, 10-11 -sinflar to'liq o'rta ta'lim dasturi asosida ta'lim oladilar.

Ishchi yoshlar uchun kechki maktablar tizimi ham saqlanib qolgan. Keyingi yillarda bunday ta'lim ancha qisqargan. Shu bilan birga, ikki yoki undan ortiq mahal o'qiladigan maktablar ham qisqargan. Iqtisodiy qiyinchiliklar Rossiyada umumiy ta'lim maktabining

bir o'quvchisiga sarflanadigan harajat miqdori kamayishiga olib keldi. Ta'lim berishning yangi shakllari va nodavlat ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. O'rta maktablar va o'qituvchilar o'quv dasturi va adabiyotlarni mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ijtimoiy fanlarning mazmuni ancha o'zgardi: siyosatshunoslik, jamiyatshunoslik, iqtisodiyot, huquq kabi ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha qator fakultativ kurslar tashkil etildi, maktablarda informatika, ekologiya, hayot faoliyati xavfsizligi asoslari kabi yangi fanlar o'qitila boshlandi. Rossiyada umumiy o'rta ta'lim maktablari soni 70 mingga yaqin bo'lib, ularda 20 million o'quvchilar tahsil olmoqda. 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'rta ta'limga jalb etilishi jihatidan Rossiya jahonda yuqori o'rinlardan birida turadi va bu 81% ni tashkil etadi.

Rossiyada kasbiy ta'lim. Rossiyada kasbiy ta'limning uchta darajasi bor: boshlang'ich daraja - boshlang'ich kasbiy ta'lim beruvchi o'quv yurtlari (PTU) mutaxassisligi bo'yicha ishchi va xizmatchilarni yetishtirib chiqaradi.

Bularda o'qish muddati, o'quvchining ma'lumot darajasiga bog'liq.

9-sinfni tugatganlar 2-3 yil, 11-sinfni bitirib kelganlar 1 yoki 2 yil

tahsil olishadi. Texnikum muassasalariga teng bo'lgan 3-4 yillik o'quv yurtlari ham mavjud. O'rta daraja-amaliyotchi mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. U ikki asosiy ta'limiy dastur: asosiy (bazaga tayangan) va oshirilgan darajada amalga oshiriladi. Asosiy daraja dasturini egallagandan so'ng, bitiruvchiga «texnik» ixtisosligi beriladi. Oshirilgan darajada yana 1 yil chuqurlashtirilgan holda o'qib chiqadi, unga «katta texnik» ixtisosligi beriladi. Bunday ixtisoslik beradigan o'quv muassasalari texnikum yoki kollejlardir. Oliy daraja-universitet, akademiya yoki institutlarda beriladi. Oliy ta'limning mazmuniga qo'yilgan talablar, o'quv yuklamasi miqdori va bitiruvchining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar kasbiy oliy ta'limning davlat standartlari bilan

belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ma'lumot.

Fan nomzodi darajasi Rossiyada diplomli olimning birinchi tashrif qog'ozi hisoblanadi. Nomzodlik ilmiy darajasini olish uchun oliy ma'lumotga ega bo'lish, nomzodlik minimumlarini (ular uchta) topshirish, dissertatsiya yozish, uni dissertatsiya kengashda him oya qilish va Rossiya Federatsiyasi ta'lim vazirligi qoshidagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi nazoratidan o'tkazish lozim bo'ladi. Nomzodlik darajasi quyidagi shakllarda olinishi mumkin: Kunduzgi aspirantura; Sirtqi aspirantura; Tadqiqotchilik; Mustaqil tadqiqotchilik.

Qiyosiv tahlil natijalari asosida respublikam izda kasbiy ta'limning rivojlanish omillarining o'ziga xosligini hisobga olgan xulosalar.

Yuksak taraqqiyotni ta'minlashda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

- Milliy dasturning amalga oshirilishi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muhitga ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish jarayonida shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnini beqilab olishi faoliashmoqda.
- Ta'limning milliy modelini amalga oshirish jamiyatda erkin fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib kelmoqda.
- Kadrlar tayyorlashning milliy modeli jamiyatning potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish omili sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning modelini amalga oshirish milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy bosqichga ko'tarishga qaratilgan bo'lib, bu esa, o'z navbatida fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amaliyotga tatbiq etish O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashda muhim

ahamiyat kasb etmoqda.

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillariga hamohang bo'lib, ularning har ikkalasi barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgandir.

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini to'la ta'minlashga xizmat qiladi.

- Mamlakatimizda ta'lim oluvchilar nim a'naviy - axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublari ishlab chiqilib, joriy etilmoqda.

- Ta'lim va kadrlar tayyorlash borasida ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiya qilishning samarali tizimi yuzaga keldi.

- Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta'limning talab darajasidagi sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amaliy samarasi va barqaror rivojlanishining kafolatlari, ustuvor yo'nalishlarini ta'minlaydigan normativ moddiy-texnik va axborot bazasi yaratildi.

- Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etilmoqda.

- Kadrlar tayyorlash sohasida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik rivojlanmoqda. Xulosa qilib shuni e'tirof etish kerakki, mamlakatimizda qabul qilingan barcha ijtimoiy dasturlar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Ta'lim - tarbiya jarayoni bilan bog'liq ravishda qabul qilingan barcha farmonlar, qarorlar va dasturlar mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko'ra, davlatimizning yuksalish maqsadlariga erishishining ishonchli kafolati bo'lib. O'z mustaqil fikriga ega, mustahkam irodali, chuqur bilimli, hech kimdan kam bo'lmagan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bilamizki, ko'pgina rivojlangan davlatlar kundan kunga o'z tajribalarini ilm-fan, iqtisodiyot, texnika va boshqa jabhalarda o'zlarini yuksaltirib bormoqdalar. Rivojlangan davlatlar o'z ustilarida juda qattiq ishlab innavatsion g'oyalar bilan boshqa raqobatdosh davlatlarni ortda qolirishmoqda. Bu quvonarli yangiliklardan biri deb hisoblasak bo'ladi. Chunki raqobat bor ekan, har doim rivojlanish va yuksalish bo'ladi. Yuksalish yana ham tez bo'lishi uchun rivojlangan davlatlar boshqa raqobatchilarining ilm-fan uchun o'ylab topgan yangi g'oya va metodlarini o'rganib o'zlarini maqsadlarida keng ko'lamda ishlatishmoqdalar. Chunki biz o'ylab ko'rmagan yo'llarni boshqa bir odam o'ylab buni targ'ib qilishi mumkun va shu tariqa boshqalarning rivojlanishiga katta turtki bo'lishi mumkun. Shu bois biz ham rivojlangan davlat sifatida o'z g'oya va metodlarimizni targ'ib qilishimiz va boshqa davlatlar g'oyalarini o'rganishimiz zarur. Xalqaro tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz. Davlat standartiga ko'ra, shifokor quyidagilarni bilishi kerak:

- kasalliklarning individual va aholi profilaktikasini amalga oshirish;
- sog'lom va kasal odamlarni klinik ko'rikdan o'tkazish;
- bemorlarni tashhislash va davolash
- kasalliklar bilan rejalashtirilgan va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va o'rganish ta'lim tomonidan ko'zda tutilgan patologik sharoitlar tibbiyot universitetida o'qish dasturi va rejalari; tibbiy olib boorish hujjatlar sud-tibbiy ekspertizasini o'tkazish;
- ko'rsatish aholini ommaviy qirg'in qilish markazlarida tibbiy yordam ko'rsatish;
- unga bo'ysunuvchi tibbiyot xodimlarining ishini tashkil etish texnologiya talablarini hisobga olgan holda sog'liqni saqlash muassasalarining bo'limlari xavfsizlik va xizmatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq sog'liqni saqlash;
- sog'lom va kasal odamlarni sog'lomlashtirish ishlarini samarali olib

borish. Shuning uchun tibbiyot oliygohlari talabalariga bu talablarning barchasini bajarish uchun turli tuman va esda qolarli metodlarni ishlatish lozim. "Aqliy hujum" usuli. Bunda qatnashchilar birlashgan holda amaliy va ilmiy muammolarni yechishga harakat qiladilar;

–uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarini ilgari (generatsiya qiladilar) suradilar.

Aqliy hujum jarayonida qatnashchilar qiyin muammoni bir-birlari bilan fikr almashgan holda yechishga harakat qiladilar. Muammoni yechishda uni tanqidga uchramasligi uchun o'zlarining ko'proq shaxsiy fikrlarini (generatsiya qiladilar) bayon etadilar, keyin esa mos keladigan, ratsional, samarali, optimal va ilg'or g'oyalarni (fikrlarni) tanlab, muhokama qilib, ularni kengaytiradilar, chuqurlashtiradilar, ularni isbotlanishi yoki rad etilishi imkoniyatlarini baholaydilar. Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarning o'quv-bilimini orttirish, faoliyatini faollashtirish, muammolarni mustaqil tushunish va yechishda ularning motivatsiyasini o'stiradi va muomala madaniyatini tarbiyalaydi, kommunikativ (o'zaro fikr almashinuvi) malakalarini rivojlantiradi, fikrni inertsiya (holatni saqlash hususiyati) holatidan ozod etish va ijodiy vazifalarni yechishda, o'rganib qolingani fikrlarni yengilashga yordam beradi. Bu usul orqali tibbiyot oliygohlari talabalari hodim bo'lib ishlash jarayonlarida qiyinchiliklarsiz bemorlarga tez va tog'ri tashhis qo'ya oladilar. O'zlarini bilim va malakalarini o'z ish jarayonlarida qiyinchiliksiz va samarali tarzda ishlatish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. I.Ya.Lerner bo'yicha o'qitish usuli bir necha ketma-ket usullaridan iborat bo'lib, har bir metod o'quvchilarning faolligini oshiradi: tushuntirish va illyustrativ usul, reproduktiv usul, muammoni ko'rsatish usuli, qisman izlash yoki evristik usul, tadqiqot usuli. 1) Eng oddiy tushuntirish va illyustrativ usul - pedagogik jarayonga o'qitishning innovatsion usullari joriy etilishidan oldin qo'llanilgan. Usul turli xil usullardan foydalangan holda bilimga asoslangan o'rganish shakli deb ataladigan "tayyor" bilimlarni olishdan iborat. 2) Reproduktiv usul - namuna yoki qoida misolida o'rganish.

Mashg'ulotning bu shakli asosan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladi, bu mashg'ulotlarda talabalar aniq to'zilgan sxema bo'yicha amaliy ishlarni mustaqil bajaradilar. Mashg'ulotlarni o'tkazishning bunday shakllari faol va interaktiv usullar joriy etilishidan oldin ham qo'llanilgan. Muammoni taqdim etish usuli - dars o'qituvchining uni hal qilishni talab qiladigan muammoni taqdim etishi bilan boshlanadi. Bundan tashqari, o'qituvchi materialni taqdim etar ekan, muammoni hal qilishda turli xil yondashuvlarni taklif qiladi, ularni taqqoslaydi, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini ilmiy isbotlaydi. 4) Qisman qidirish yoki evristik (yunoncha heurisko - qidiraman, ochaman) usuli - "yangi" ni kashf qilish usuli. Dars shunday to'zilganki, munozara jarayonida o'quvchilarning bilish qobiliyati, fanga qiziqishi va to'g'ri yechimni mustaqil izlash faollashadi. 5) Tadqiqot metodi talabalarning mustaqil tadqiqot ishlari tamoyiliga asoslanadi. Talabalar berilgan muammo bo'yicha adabiyotlarni o'rganadilar, tahlil qiladilar, muammoning echimini qidiradilar. Ilmiy-tadqiqot ishlari ijodiy izlanishni, tadqiqot faoliyatiga qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik amaliyotda faol va interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatini faollashtirishga yordam beradi, o'quv jarayonida ijodiy ishtirokini rag'batlantiradi. Bu usul o'quvchilarni bilim darajasini aniqlashda juda katta yordam beradi. Jamoaga yo'naltirilgan ta'lim (JYT - jamoaga asoslangan o'rganish) 70-yillarda Oklaxoma universiteti biznes kafedrası o'qituvchisi Larri Mishelsen tomonidan taklif qilingan. Muvaffaqiyat bilan, usul Qo'shma Shtatlardagi tibbiyot maktablarida qo'llaniladi, ularning 77 dan ortig'i oliy tibbiy xodimlarni tayyorlash uchun JYTdan foydalanadi. Jamoaga yo'naltirilgan o'qitish – bu, guruhlar tarkibi doimiy bo'lishi kerak bo'lgan har hil darajadagi 3-4 o'quvchidan iborat kichiq guruhlarda ishlashga asoslangan o'qitish usulidir. JYT usulining asosiy maqsadi talabalarni jamoada ishlashga o'rgatish, yangi bilimlarni tushunish va o'zlashtirishga yordam berish; har bir talaba jamoaning qo'llab-quvvatlashini his qilishi kerak, bu unga o'ziga ishonch, o'zini -o'zi takomillashtirish istagini beradi. Jamoaga yo'naltirilgan trening, nomidan

ko'rinib turibdiki, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Darsni o'tkazishning ushbu texnologiyasi talabalarga kursni o'rganish maqsadini tushunishga, ma'ruza, seminarda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga qaratilgan. Jamoa ishi qiyin masalalarni tushunish va o'zlashtirishga yordam beradi, muammolarni hal qilishda o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Kelajakdagi shifokorlarda diagnostika va davolashda malakaga asoslangan yondashuvni ishlab chiqish uchun klinik bo'limlarda Case-based learning (CBL) keng qo'llaniladi. Keysga asoslangan mashg'ulotlar jamoada vaziyatli vazifalar, biznes-rol o'yinlari yordamida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv o'quvchilar o'rtasida rol va mas'uliyatni taqsimlash imkonini beradi. Jamoada ishlash talabalarga qiyin muammoni birgalikda hal qilishga yordam beradi, bir-biriga yordam beradi, jamoa a'zosining qarorlarini qabul qiladi va hurmat qiladi, ularni o'z nuqtai nazarini himoya qilishga o'rgatadi, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, jamoada ishlashni rivojlantirishga yordam beradi. Jamoada ishlashning shartlaridan biri talabalarni to'g'ri tanlashdir. Jamoa shunday tanlanadiki, uning tarkibiga bilim darajasi turlicha bo'lgan, kuchli va zaif o'quvchilar kiradi. Faqatgina ushbu qoidaga rioya qilingan taqdirda, natijaga erishish mumkin - muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, qiyin vaziyatda yordam va yordam ko'rsatish qobiliyatini o'zida aks ettiradi. Klinik holatni tahlil qilishda talabalar tegishli bo'limlarda ilgari olingan bilimlarni eslab qolishlari kerak. Shunday qilib, tashhis qo'yish uchun laboratoriya testlarini, anatomiyani, patologik anatomiyani (a'zolar va tizimlarning to'zilishi), fiziologiyani (a'zolar va tizimlarning funktsiyalarini), patologik fiziologiyani (mumkin patologik anomaliyalar, ularning oqibatlari) sharhlashda bioqimyo, immunologiya bilimlari talab qilinadi. va boshqalar). Davolash rejasini to'zish uchun farmakologiya (dorilarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasi) va boshqalarni bilish muhimdir. Konfutsyi aytkanidek: "Men eshitaman va uno'taman, men ko'raman va eslab qolaman, men bajaraman va tushunaman"

so'zlariga asoslanib barcha o'qitish tizimida mana shu tamoyilga asoslanadi, jumladan tibbiyot oliygohlarida ham. Bu gapga asoslanib shuni ta'kidlab o'tish joizki, barcha tibbiyot oliygohlarida amaliyot o'tamagan talabaning shifokorlik faoliyatini amalga oshirishi juda ham qiyin. Ilmiy bilim bo'la turib, uni amaliyotda qo'lay olmasa, bunday talaba o'z ishida ko'p qiyinchiliklarga uchraydi. Shu sababdan eng asosiy va kerakli metodlardan biri bu "Amaliy metod"dir. Bu metod orqali talaba bemorlar bilan muloqot qiladi, ularni holatini ko'radi, ko'rikdan o'tkazadi va o'z amaliy ko'nikmalarini oshirib borishadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak barcha metodlarning asosiy maqsadi tibbiyot talabalarini kelajakda o'z kasblarining yetuk mutaxasisi bo'lib yetishib chiqishiga, ularni har qanday vaziyatda to'g'ri va oqilona yechim topishiga, og'ir vaziyatlarni to'g'ri baholashga, yechim topishga va barcha bemorlar bilan chiroyli muomalaga o'rgatishdan iboratdir.

Jahonda zamonaviy tibbiy ta'lim amaliyotida O'rta tibbiy xodimlarni, xususan tibbiyot hamshirasining kasbiy maqomiga qo'yiladigan talablar o'zgarganligi bois, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash talablari ham o'zgarib takomillashib bormoqda. Endi ularning kasbiy faoliyati nafaqat kasbiy bilim va kompetensiyalar bilan balki, shaxsning aksiologik xususiyatlari (axloqiy, ma'naviy) bilan belgilana boshladi. Hamshiralarning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablar ularning kasbiy o'sish motivatsiyasiga va bemorlar bilan kasbiy munosabatda bo'lishga tayyorligini (bemorlar bilan hamkorlik, hamdardlik, mulohaza asosida aloqalarni o'rnatish qobiliyati) hisobga olgan holda shakllana boshlandi. Jahon miqyosida sog'liqni saqlash va tibbiy ta'lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalari ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Uzluksiz tibbiy ta'lim akkreditatsiya markazi kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan tibbiy ta'limni samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik muhitni yaratish, O'qitishning yangi paradigmalarini ishlab chiqish hamda nazariya va amaliyot integratsiyasini rivojlantirish tavsiya qilingan. Bu esa, ta'limda innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vizuallashtirilgan didaktik vositalarning integrativ imkoniyatlaridan samarali

foydalanish usullarini tadqiq etish tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalashga xizmat qilishini ko'rsatadi. Mamlakatimizda professional ta'lim negizida sifatli tibbiy ta'lim tizimini joriy etishga qaratilgan tub islohotlar natijasida o'rta tibbiy xodimlar tayyorlashning malaka talablari, kasbiy standartlari, o'quv dasturlari takomillashtirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5-maydagi «Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida»gi PF-6221- sonli Farmonida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va yetakchi xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda, o'rta tibbiyot xodimlari maqomini oshirish nuqtai nazaridan ularning malaka talablari, vazifalari, vakolatlari, javobgarligi, ixtisoslik yo'nalishlarini kengaytirish, lavozimlarini, shuningdek o'quv dasturlari va rejalarini to'liq qayta ko'rib chiqqan holda, o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish masalalari belgilandi. Shu bois, professional ta'limda tibbiyot texnikumlari va kollejlarida tibbiyot hamshiralarini tayyorlash mazmunini takomillashtirish, ularning, kasbiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya berish usullarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda mutaxassisning kasbiy madaniyatini rivojlantirish, sog'lomturmush tarzi va uning falsafiy, pedagogik masalalari bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. O.M.Musurmonova o'z tadqiqotlarida shaxs sog'lom turmush tarzini ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ilmiy-pedagogik jihatdan isbotlagan. Shuningdek sog'lom turmush tarzi qirralari mohiyatini ma'naviy qadriyatlar nuqtai nazaridan asoslab bergan. N.A.Akbarov texnika oliy O'quv yurti talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan, kasbiy madaniyatni shakllantirishga doir ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Q.L.Ishonov tomonidan pedagogika kollejlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish texnologiyasi yaratildi, pedagogika kollejlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini

shakllantirish jarayonini takomillashtirish yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan. O.Yo. Ernazarova shaxs faoliyatda kasbiy va axloqiy madaniyat uygʻunligi, shaxsning mehnat bozori Oʻzgaruvchan sharoitlariga moslashib borishini taʼminlovchi konseptual akmeologik texnologiyalarning innovatsion, differensial, yoshga oid, ijtimoiy va pedagogik taʼsir turlari boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. M.P.Imomov tomonidan kollej oʻquvchilarining kasbiy madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilib, kollej oʻquvchilarida kasbiy madaniyat shakllanganligi holati va uni rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillari shart-sharoitlari aniqlangan. Shuningdek “Kollej oʻquvchilarida kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy madaniyatni rivojlantirish” maxsus oʻquv kursi va uning dasturi ishlab chiqilgan. Tibbiyot yoʻnalishdagi professional taʼlim muassasalarida oʻquvchilarni tibbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy, konseptual va texnologik asoslari muayyan daraja oʻrganilgan boʻlsa-da, tibbiyot texnikumlari va kollejlarda boʻlajak hamshiralarni tayyorlashda ularning kasbiy madaniyatini shakllantirish masalasi maxsus oʻrganilmagan. Kasb-hunarlar orasida oʻrta tibbiy xodimlar, xususan hamshiralik kasbi eng nozigi hisoblanadi. Chunki ular bevosita inson salomatligi va taqdir ustida ishlaydilar. Binobarin, bu ikki tomon madaniyati yoki nutq odobi bir-biriga chambarchas bogʻlanganligini koʻramiz. Biz koʻzda tutgan kasbiy madaniyat nutq-muomala, maʼrifat, maʼnaviyat bilan va albatta, tibbiy bilimlar bilan ham bogʻliqdir. Shu maʼnoda, yuqorida keltirilgan fikrlar tibbiyot xodimlarining kasbga munosabati, axloq-odobi, shuningdek shifokor va bemorlar orasidagi turli munosabatlarni namoyon yetuvchi muhim tushunchalardir. Yetuk kasbiy madaniyatga ega boʻlgan insongina halollik poklik, imon, insof, vijdon kabi umuminsoniy qadriyatlarni chuqur egallay olishi mumkin, toki bu qadriyatlar sharqona oqillikka asoslanib shakllanayotgan mustahkam maʼnaviy poydevor boʻlib hizmat qiladi. Shuningdek, boʻlajak hamshiralarning kasbiy madaniyatini takomillashtirishga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga qiziqish, buyuk ajdodlarga munosib

bo'lishga intilish, har bir fuqaroning salomatligini saqlashda o'z o'rnini va rolini anglashga intilish hissini shakllanganligi sezilarli ta'sir etadi. Zamonaviy ta'limda bo'lajak hamshiralarni tayyorlashda nafaqat insoniyatning kasbiy sohada erishgan yutuqlari, bu yutuqlardan hayotda qanday foydalanish, professional malakalarini oshirish, ularda kompetentlikni, umuminsoniy madaniyatni ham takomillashtirish ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bo'lajak hamshiralarni kasbiy madaniyati keng qamrovli tushuncha bo'lib, xodim va bemor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga daxldor qadriyatlar, me'yorlar va fe'l-atvor andozalarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun, bo'lajak hamshiralarni tarbiyalashda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan o'zbek xalqi milliy qadriyatlari, an'analari, Markaziy osiyo mutafakkirlari qarashlariga asoslanmoq kerak. Islom dinining asosi bo'lgan Qur'oni karim va Hadisi sharif, Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Yusuf Xos Xojib, Amir Temur, Abdulla Avloniy va Sharq mutafakkirlarining asarlarida olg'a surilgan g'oyalarni insonparvarlik halolliq pokliq millatni sevishtirish, mehnatsevarlik hurfiylik kabi g'oyalarni singdirish lozim. Kasbiy madaniyat - tushunchasida kasbiy bilimlar va fikrlar uslubi bilan faol ishlab-chiqarish, kasbiy faoliyat o'rtasidagi aloqadorlik omillari namoyon bo'ladi. Kasbiy madaniyat mazmunida madaniyat va kasbning o'zaro ta'siri xususiyatlari mavjud bo'lib, tarkibiga kasbiy ong, kasbiy faoliyat, kasbiy munosabatlar kiradi. Kasbiy madaniyat biror faoliyat sohasini kasb qilib olgan va odatda unga maxsus tayyorgarlikdan o'tgan kishilar tomonidan yaratiladi. Bo'lajak hamshiralarning kasbiy madaniyati deganda uning kasbiy faoliyat doirasidagi, uning shaxsiy sifat tavsifining mohiyati - tizimli ta'limdan iborat deb qarashimiz mumkin. Bo'lajak hamshiralarning kasbiy madaniyati tashkil topgan ko'rsatgichlar darajasi va asosiy tizimli komponentlariga quyidagilarni aytishimiz mumkin: - intellektual rivojlanish darajasi (eng avvalo, tafakkurning rivojlanishi); - kasbiy faoliyatning har tomonlama tashkil topishi va darajasi; - asosiy kasbiy etika, ma'naviy harakter va odob madaniyati; - o'zaro munosabat madaniyati; - so'zlashuv madaniyati; - tashqi ko'rinish madaniyati.

Ma'lumki, hamma kasblar uchun bir xilda kerak bo'lgan odob-axloq qoidalari yoki madaniyati mavjud. Shuningdek har bir kasbga xos madaniyat (kasb madaniyati) ham bor. Masalan, tibbiyot kollejlarida ta'lim beruvchi o'qituvchining kasbiy madaniyati ham o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Shunday qilib, bo'lajak hamshiralarning kasbiy madaniyati uch bosqichda rivojlanadi: Birinchi bosqich – kasbiy faoliyat bilim, ko'nikma va malakalarini kompetentlik darajasida egallash, kasbiy va umumiy kompetentlikni egallash bosqichi (o'quv rejadagi barcha fanlar bo'yicha shakllanadi). Ikkinchi bosqich – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini rivojlantirish, shuningdek kasbiy faoliyatda bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash (O'quv va dimlom oldi amaliyotlarida shakllanadi). Uchinchi bosqich - kasbiy faoliyat va kasbiy rivojlanish qadriyat darajasida qaraladi ya'ni, kasbiy faoliyatni juda yaxshi amalga oshirish, kasbiy mahorat darajasi (bevosita kasbiy faoliyatda shakllanadi). Kasbiy madaniyatni yaxlit akmeologik hodisa va konsultativ ta'sir sifatida tahlil qilganda qadriyatli yo'naltirilgan jihat dolzarb hisoblanadi. Insonning hamma faoliyati o'zining jarayoni, natijasi bilan qadrli, u atrofdagilarning yaxshi munosabatlari, jamiyatda o'z o'rnini belgilashiga imkon beradi.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy ta'lmga tegishli iig'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanislilar olib borishning maqsadi va mazmuni nimalardan iborat?
2. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Italiyava Yaponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim mazmuni nimalardan iborat?
3. Hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta 'lim mazmuni nimalardan iborat?
4. Qiyosiy tahlil asosida vujudga kelgan kasbiy ta 'limning rivojlanish omillari va erishilgan natijalari nimalardan iborat?

8-MAVZU. KASBIY TA'LIMDA TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI, TARBIYANING UMUMIY METODLARI VA TURLARI.



Reja:

10. Ta'lim oluvchi shaxslarning pedagogik xususiyatlari.
11. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchilar shaxsi tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar.
12. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi shaxsi. Shaxsning ijtimoiylashuvi.



Asosiy tayanch iboralar

- | | |
|----------------------|--------------------|
| • Takrorlanuvchanlik | • O'zgaruvchanlik |
| • Texnologiya | • Ko'nikuvchanlik |
| • Kasbiy Pedagogika | • Tibbiyot |
| • Olam | • Loyihalashtirish |
| • Dunyoqarash | • Tushuncha |
| • Mohiyat | • Anglash |

Ta'lim oluvchi shaxslarning pedagogik xususiyatlari.

Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak. **"Individ"** nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ"

sanaladi. Individ (lotincha "individuum" so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida Shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti- harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. **Individuallik** esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashashsharoitlaridan etarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. Individual yondashuv shaxsning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchilar shaxsi davlat ta'lim siyosatida insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanishning o'zi nima? Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va xatosiz baholashuchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak,

shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya shaxsga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchilar shaxsi tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar.

Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday? Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir ohim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Progmaticizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni fa'sat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit bola yashaydigan sharoit, shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va

faylasuflar ta'limotiga suyaniladi. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga etadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi. amiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud. shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi. Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham etakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchilar shaxsiga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik holarlarni tahlil etishimiz lozim

Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchilar shaxs rivojlanishida faoliyatnig o'rni. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi. Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar

yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi. O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir. Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi. Ta'lim jarayonidagi faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik shaxsning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlcha bo'ladi. Ta'lim muassasasida, hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak. Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir. Talaba shaxsiga hurmat. O'tgan davrlarda bo'lgani kabi, o'qituvchilar turli xil jamoatchi-iqtisodchi talabalar jamoasi bilan bog'liqdir. O'ziga hoslikdan faxrlanishning ma'nosi talabalarning kelib chiqishini bilishi va madaniy xilma-xillikni hurmat qilishni talabalarga o'rgata olishdir. Talabarga ularning madaniyati va turli xil usumlari haqida malumotlarni bo'lishishga imkon berish nafaqat loyihalar va faoliyatlar o'rtasidagi moslikni mustahkamlaydi, balki bu sinfdoshlarni bir birini chuqurroq o'rganish tajribasi ekanligini isbotlaydi. Ko'plab o'qituvchilar bu g'oyani qabul qilishda muammolarga duch kelishlari mumkin. Talabalarning guruhdan tashqari kechadigan hayoti va faoliyati ular dars davomida o'rganadigan fanlari singari hayotda o'z o'rinlarini topishga hizmat qiluvchi asosiy omillardir. Sport, teatr to'garaklari, va boshqalar munozaralar, maktabdan tashqari darslar – bularning barchasi hayotiy mahoratni o'stirish uchun muhim omildir. Bu faoliyatlarning barchasi vaqt talab qiladigan va shunga qaramay maktab topshiriqlari bilan vaqt masalasi bo'yicha muammo

bo'lishi mumkin. O'qituvchi malum bir topshiriqni bajrish uchun talaba uchun noqulay vaqt belgilasa, shaxs tayinlangan vazifani amalga oshira olmasligi va bundan aziyat chekishi hamma uchun oydin. Garchi talaba uchun vaqtni, muddatni qadrlash muhim bo'lsada, o'qituvchining gohi-gohida talabalarga imkon berishi ularning fanga va vaqt tushunchasiga bo'lgan hurmat hissini kuchaytiradi. Bundan tashqari, talaba kamchilik va salohiyati bilan bir biridan tubdan farq qiladi. Tabiiy fanlarda o'zining bor mahoratini ko'rsata olgan o'quvchi, ijtimoiy fanlarni o'zlashtirishda birmuncha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bazi talabalar ta'lim sohasida barkamollikka erishadilar- bu pedagoglarning yutug'idir va buni ezozlashimiz keak. Qanday guruh talabalariga dars o'tishdan qat'iy nazar pedagog talabalarning iqtidor doirasidagi sohalarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun ularni ruhlantira olishi kerak; hoh bu ilmiy soha yoki mehanik soha bo'lsin. Talabalarning muvaffaqiyatiga etibor qaratib va uni qadrlagan holda kelajakda o'zlari orzu qilgan kasb egasi bo'lishiga yordam beradi.⁴ shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi. Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik jismoniy va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Shaxsning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va unihisobga olish muhimdir. Chunki rivojlanayotgan shaxs organizimining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlcha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlcha bo'lishi mumkin. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur. Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament lot.

«temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Bugungi meditetnologiyalar davri juda katta ta'sir etmoqda shaxs tushunchasiga. Masalan, 11 yosh bilan 17 yosh o'smirni tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun shaxsning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.
2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha bo'lgan yosh davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kchik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar)–7 yoshdan 11,12yoshgacha.
5. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar) 14-15 yosh.
6. Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) – 16-18 yosh.

Kchik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi. Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi. Shaxsqiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchraShuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o'quvchilariga emosionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo'ladi, his-tuyg'ulari mazmuni o'zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar. O'rta maktab yoshi o'smirlik 12-15 yosh. O'smirlikning murakkabligi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy etilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi.

Hozirgi davr o'smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to'garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitobo'qishga qiziqishi ortadi.
2. O'z-o'zini anglash, baholash, tarbiyalashshakllanadi. U o'zini

boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda, o'smir harakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Lekin o'smirlarning hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas, 38% foiz o'smir hech qaysi o'quv fanlarini o'qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o'quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o'quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kchik yoshdagi o'smirlar qiziqishi o'qituviga bog'liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o'qishlari ham barqaror emas. Turli to'garaklarga 21% foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40% foiz o'quvchida, sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q. Eng muhim qiziqish – teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88% foiz o'smir tomosha qiladi. Ular oddiy kunni o'z ixtiyorlari bilan qanday o'tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85% foiz o'smir vaqtini o'z holcha o'tkazadi, 70% foizi kino yoki televizor ko'radi, 50% foizi sport bilan shug'ullanadi, 45 % foizi uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga boradigan o'smirlarning soni 15% foizni tashkil etadi. O'smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti "qiyin" vazifalarga to'liq bo'ladi. Bu yoshda o'smirlar kattalar oldida o'zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. "Dangasa", "qo'pol", "bee'tibor", "qobiliyatsiz" degan kattalarning baholarini ular og'rinib qabul qiladilar. O'smir yoshida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. 14 yoshdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim. O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur; qizlar esa – o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar. Shuning uchun o'smirda o'z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o'smirda burch hissi, mas'uliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Muhimi, o'smir shaxsini hurmat hilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olish zarur. Katta maktab yoshi – o'spirinlik davri 15-18 yosh. Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga

ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi. O'spirinlik bu aʼliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxs xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g'o'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi. Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim. Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir. Albatta, bu borada, ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin-yoshlar mustahil hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi shaxsi. Shaxsning ijtimoiylashuvi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Bugungi globallashtirish texnik asr shaxsni ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirib yubordi. Agar ijtimoiylashuv shu tarzda davom etsa bolalar yoshidagi shaxstushunchasi o'z- o'zidan o'zgarib ketadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda shaxs jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar. Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir

ko'rsatadi. Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni iichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud. Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin. Shaxsga bo'lgan hurmat darajasi. Har bir shaxsning o'zlashtirish qobiliyati va tezligi boshqalarnikidan tubdan farq qiladi. Agar darsning izchilligi va saviyasi o'quvchi bilim salohiyatiga muvofiq tarzda bo'lsa sinfning ko'pchilik talabalari har bir bo'lim yakunidagi berilgan ta'lim standartlariga javob bera olishi kerak. Shunga qaramay ba'zi talabalar hattoki biror bo'lim yoki bob yakunlanayotgandagina yakunlanayotgan mavzu haqidagi tushunchalari endi "uyg'onayotgan" bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda qisqa hulosaviy nazorat tekshiruvlaridagi o'zgarmas darajalar, kelajakdagi kasbiy mahoratlarida o'sishi mumkin.

Agar ushbu darajalash tizimi o'zgruvchan bo'lsa, yoki talaba bir bo'lim yoki bob yakunlangandan keyin zaruriy mahoratni namoyish qila olsachi? Agar ular buni ma'lum bir o'rtacha vaqtda bajarsa, yoki bo'lim yakunlangandan so'ng orqaga qaytib bilim darajasi salohiyatini aks ettiruvchi bahosini o'zgartirishi kerakmi? Agar o'qituvchilar talaba shaxsini qadrlashni va ularning qobiliyatlarini nazorat qilishni hohlasa ular bor kuchlari bilan harakat qilishlari uchun talabarga har qanday imkoniyatni berishlari kerak. Bu esa baholash standardning asosiy tarkibiy qismi hisoblanishi kerak. Sentyabr va Yanvar oylaridagi yil bo'yi jamlangan ballarni qo'shib o'rtacha bahoni chiqargandan ko'ra o'qituvchilar talabalarning chorak yakunidagi bilim darajalarini aniqlagani maqulroq. Namuna tariqasida, agar bir talaba o'rganilayotgan bo'lim davomida o'zlashtira olmasa va bu iqtidorni keyinroq namoyon qilsa, uning dars davomida olgan bahosi yakuniy baholanishiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Oshkora tuzilgan va tartibga solingan baholash mezoni shaxsning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi va o'z kelajagini yarata olishiga bo'lgan ichonchini mustahkamlaydi. Yil yakunidagi o'rtacha baho ko'rsatkichining eski mezoni talabalarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytiradi: avvalgi egallangan past baholar keyinroq ham baholanishga ta'sir ko'rsatsa qattiq

ishlashdan naf ko'rmagan talabalarda yil yakunida o'zlashtirish o'sish o'rniga pasayadi. Har bir kishi turli hil tezlikda o'zlashtirishi tufayli baholanishning yangicha mezonlari yil boshidagi past baholar yil yakunidagi yuqori ballarga ta'sir qilmaslik o'rganuvchilarda o'qishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.⁵ Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi haxs zero, 2020 yil 23 sentyabr O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi yangi qonunida» da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.«Individ», «Shaxs», «individuallik» tushunchalarini sharhlang.
2. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi haxsga hamda rivojlanish va shaxsrivojlanishini ta'riflang.
3. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarhaqida nimalarni bilasiz?
4. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi shaxs faoliyati haqida so'zlab bering.
- 5.Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi haxsning yosh xususiyatlarini tavsiflang.
6. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi haxsning ijtimoiylashuvini qandaytushunasiz?

9-MAVZU. KASBIY TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI HAQIDA TUSHUNCHA.



Reja:

1. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha.
2. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni bajarish.
3. Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi.
4. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish.

5. Ta'lim sifati monitoring.



Asosiy tayanch iboralar

- | | |
|--------------------|-------------|
| •Ta'lim muassasasi | •Shaxs |
| •Menejment | •Tarkib |
| •Menejer | •Boshqarish |
| •Monitoring | •Tizim |
| •Dunyoqarash | •Hujjat |
| •Rahbarlik | •Ustav |

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhim.

Ta'lim muassasasini boshqarishning pedagogik- psixologik asoslari

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhim.

Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma'lum bir ob'ektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida

amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, «ta'sir etish» tushunchasining o'rniga «o'zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo'llanilmoqda.

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Xo'sh, menejment va menejer atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi? Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta'lim muassasida davlat-jamoa boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor.

Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida so'z yuritilganda, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 4.6-bandida so'z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to'xtalib o'tilganligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilicha, ta'lim muassasasi menejmentida quyidagi holatlar nazarda tutiladi:

- uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib borilishi;
- barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga muvofiq belgilanadi;

- ta'limning normativ-huquiy bazasi rivojlantiriladi;
- moliya-xo'jalik faoliyatini olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi;
- ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi;
- muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta'lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, olimlar ta'lim menejmetining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

- ta'lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega;
- ta'lim menejmenti – bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);
- menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi;
- ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, endilikda ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o'tiladi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi –ta'lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar hamda ota-onalarga ta'lim dasturlarini, turlarini, ta'lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Xalq ta'limi Vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi O'zbekiston Respublikasida ta'limni boshqarishning davlat yuqori organlari hisoblanadi. Vazirliklar o'zini vakolatlik doirasida:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqaradi; ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslub masalalarida ularga rahbarlik qiladi;
- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan talablarning bajarilishini ta'minlaydi;
- o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etadi, o'quv va o'quv-usulbiy adabiyotlarni yaratadi va nashr etishni tashkil qiladi;
- ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlaydi;
- davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;
- pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi.

Maktabni boshqarish ishiga maktab inspeksiyasi, ya'ni, vazirliklar va xalq ta'limi bo'limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular maktab faoliyatini o'rganadi, ta'lim-tarbiya jarayonining natijalarini tahlil qiladi, ilg'or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni anihlab, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi, maktab direktori va o'qituvchilarga metodik va moddiy yordam ko'rsatadi.

Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Bir yilda bir marta o'tkaziladigan maktab konferensiyasi ham jamoatchilik boshqaruviga kiradi. Konferensiyada maktab Kengashi, uning raisi saylanadi, maktabning Ustavi qabul qilinadi.

Davlat ta'lim muassasalari bilan bir vaqtda nodavlat ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatishi ham ta'limni boshqarishning jamoatchilik harakterini ifodalaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom, ta'lim muassasalarining Ustavi – ta'lim muassasalarini boshqarish va unga rahbarlik qilishning asosiy hujjati. O'zbekiston Respublikasining «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizomda quyidagi masalalar yoritilgan:

1. Umumiy qoidalar.
2. Umumiy o'rta ta'limning maqsadi va vazifalari.
3. Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish.
4. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni.
5. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
6. Umumiy o'rta ta'limni boshqarish.
7. Mablag" bilan ta'minlash va moddiy-texnika ta'minoti.
8. Xalqaro hamkorlik.

Nizomga asosan, umumiy o'rta ta'limning maqsadi o'quvchilarni davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim mazmunini yoritish Nizomning asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, majburiy va qo'shimcha komponentlar umumiy o'rta ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi.

Majburiy komponent davlat ta'lim standarti bilan belgilanadi va o'quvchilarni tayyorlashning o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida bilimlar asoslarini yanada puxta o'rganish va kasb egallash uchun yetarli bo'lgan zarur darajasini belgilaydi. Qo'shimcha komponent o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyati, maktabning moddiy-texnika va kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqib belgilanadi. qo'shimcha o'quv yuklanmalarining hajmi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligining Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan normativlariga muvofiq belgilanadi. O'quvchilar bilim sifati va ta'lim natijalarining davlat ta'lim standartiga

muvofiqligini nazorat qilishni ta'minlash uchun joriy, oraliq va yakuniy nazorat bilan birga bosqichli nazorat o'tkazish ham nazarda tutiladi.

Bosqichli nazorat o'quv yili tamom bo'lgandan keyin imtihonlar, test sinovlari, sinovlar shaklida amalga oshiriladi. Uning asosida reyting aniqlandi va o'quvchini navbatdagi sinfga o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Maktabga bevosita rahbarlik boshqarishning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan direktor, davlatga qarashli bo'lmagan ta'lim muassasalarida esa muasssis tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim xalqaro hamkorlik asosida ham tashkil etiladi. «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomning sakkizinchi bo'limida qayd etilganidek, umumiy o'rta ta'limni boshqarish organlari va ularning mahalliy organlari sanalgan ta'lim muassasalari halqaro hamkorlikni pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlarning tajriba o'rganish va malaka oshirish maqsadida progressiv xalqaro jamg'armalar va tashkilotlarning grantlarini olish sohasidagi davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo bitimlar hamda shartnomalar asosida amalga oshiradilar.

Mazkur Nizom umumiy o'rta ta'lim (maktab)ni har tomonlama boshqarish mohiyatini o'zida ifoda etadi.

«Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 204-sonli qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizom mazmunida quyidagi maslalar yoritilgan⁶

Umumiy qoidalar.

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish.
2. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga o'quvchilarni qabul qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni.
3. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
4. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish.
5. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini mablag' bilan ta'minlash va moddiy-texnika

ta'minoti.

6. Xalqaro hamkorlik.

Umumiy qoidalarda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumiy o'rta ta'lim negizida o'qitish muddati 3 yil bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanishi hamda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga muvofiq amalga oshirilishi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning yuridik shaxs hisoblanishi, qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etilishi bayon etilgan.

Ta'lim muassasasini boshqarishning tamoyillari va vazifalari. Har qanday faoliyat singari boshqarish faoliyati ham o'z vazifalarini bir qator tamoyillarga asoslanib amalga oshiradi. Pedagogik adabiyotlarda ta'lim tizimini boshqarishda asos bo'lib xizmat qiluvchi tamoyillarni ular tomonidan bajariladigan vazifalar (rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish)ga tayanilgan holda belgilanishiga alohida urg'u berilgan. Mazkur o'rinda ta'lim muassasasini boshqarishning har bir tamoyiliga alohida-alohida ta'rif berishga harakat qilamiz. Ta'lim muassasasi boshqaruv nazariyasi va tarixida boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

Pedagogik tizimni boshqarishni demokratiyalash va insonparvarlashtirish. Pedagogik kadrlarni tanlov va shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama qilish, axborotlarning barcha uchun ochiq va tushunarli joriy etish, ta'lim muassasasi jamoatchiligi oldida ma'muriyatning muntazam hisobot berishi, o'qituvchi va o'quvchilarga ta'lim muassasasi hayotiga oid o'z fikrlarini bildirishga imkon berish, ta'lim muassasasida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishini anglatadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lish, unga ishonish, pedagogik faoliyatda sub'ektning sub'ektga munosabati darajasiga erishish, o'quvchi va o'qituvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, o'z iste'dodlari va kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish insonparvarlik tamoyiliga asoslangan

boshqaruv mohiyatini anglatadi.

Boshqarishning tizimliliği va yagonaligi. Ta'lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida rahbar ta'lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida va uning belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Tizimning birinchi belgisi yagonaligi hamda uni bo'laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligidadir. Ikkinchi belgisi tizimning ichki to'zilishining mavjudligini anglatadi. Uchinchi belgisi tizimning integratsiyalana olishidir. Tizimning har bir tarkibiy qismi o'ziga xos sifatga ega bo'lgani bilan, o'zaro harakat orqali tizimning yangi integratsiyalana olish sifati hosil bo'ladi. To'rtinchi belgisi ta'lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligidir. Chunki ta'lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ushbu ta'lim jarayonini qayta quradi hamda o'zining maqsadlariga erishish uchun tashqi muhitni o'ziga bo'ysundiradi. Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir yoqlama boshqaruvning oldini oladi.

Boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining ratsional uyg'unligi. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo'lganda, albatta, ma'muriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o'qituvchilar va o'quvchilarning ehtiyojlari, talab va istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o'qituvchilarning keraksiz mehnat va vaqt sarflashlariga olib keladi.

Shuningdek, markazlashtirilmaslikka ham keragidan ortiq e'tibor berilsa, pedagogik tizim faoliyatining sustlashishi ko'zga tashlanadi.

Ta'lim muassasasi ichidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni uyg'unlashtirish ma'muriy va jamoatchilik boshqaruvi rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratadi hamda kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi.

Yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi tamoyili pedagogik jarayonni boshqarishda yakka hokimlikka yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Boshqarish faoliyatida o'quvchilarning tajribasi va bilimiga tayanib, turli qarashlarni taqqoslab, oqilona xulosalar chiqarish o'ta muhimdir.

Vazifalarni kollegial hal qilish har bir jamoa a'zosining javobgarligini yo'qqa chiqarmaydi.

O'z navbatida yakkahokimlikning o'ziga xos jihatlari bor. Yakkahokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga amal qilishni ta'minlaydi. Qarorni qabul qilishda kollegial yondashuv ma'qul bo'lsa, qarorning ijrosini ta'minlashda yakkahokimlikka bo'ysunish ma'quldir.

Ta'lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik harakteri ushbu tamoyilni amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda axborotlarning ob'ektivligi va to'liqligi. Ta'lim tizimini boshqarishning samaradorligi axborotlarning qanchalik aniq va to'liqligiga ham bog'liq. Agar axborotlar aniq, to'liq yig'lsa yoki haddan ziyod ko'p bo'lsa, qaror qabul qilishda chalkashlikka olib keladi.

Biz ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirishi haqidagi ma'lumotlarni yig'amiz, lekin ularning qiziqishlari, xulq-atvori, shaxs sifatidagi yo'nalishiga e'tibor beramiz. Ana shuning uchun ham tarbiya jarayonida ko'plab og'ishlar kuzatiladi.

Ta'lim muassasasining rahbari o'zining faoliyatida menejer vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun u o'z faoliyatida kuzatish, anketa, test, instuktiv va metodik materiallardan keng foydalana bilishi lozim. Ta'lim muassasasi ma'muriyati maktab ichidagi axborotli boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Boshqaruv jarayonida axborotdan samarali foydalanish ta'lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi. Ta'lim muassasasini boshqarishda foydalaniladigan axborotlar turlichadir (38-chizma).

Axborotlar jamg'armasini shakllantirish va undan jadal foydalanish boshqaruv ishini ilmiy tashkil etishni yuksaltiradi.

Maktab ichki boshqaruvining o'ziga xosligi quyidagi vazifalarda aniq ko'rinadi: Ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish.

Maqsad qo'yish va rejalashtirish.

Tashkil qilish.

Maktab ichki boshqaruvini nazorat qilish.

Tartibga solish.

Ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va rivojlanishini tahlil qilmasdan, avval erishilgan natijalarni hozirgilari bilan taqqoslamasdan turib, uni boshqarib bo'lmaydi.

Ta'lim muassasasini boshqarish samaradorligi rahbarning ham, o'qituvchilarning ham pedagogik tahlil uslubiyatini teran bilishlariga bog'liq. Agar o'z vaqtida, professional darajada pedagogik jarayon to'g'ri tahlil qilinmasa, jamoa orasida o'zaro bir-birini tushunmaslik, ishonchsizlik kelib chiqadi. Hozirgi paytda pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud:

kundalik tahlil;

tizimli tahlil;

yakuniy tahlil.

Kundalik tahlil o'quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma'lumot yig'ib, undagi kamchiliklarning sababini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritiladi. Kundalik tahlilning predmetiga o'quvchilarning har kungi o'zlashtirish va intizomlari darajasi, ta'lim muassasasi rahbarining darsga hamda sinfdan tashqari darslarga qatnashishi, maktabning tozalik holati, shuningdek, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi.

Tizimli tahlil darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimini o'rganishga qaratiladi. Tizimli tahlil mazmuni ta'lim metodlarini to'g'ri uyg'unlashtirish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, o'qituvchilarning sifatli tarbiyaviy ishlarni olib borishlari, ularning pedagogik madaniyatini ko'tarish hamda ta'lim muassasasida innovatsion muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini ta'minlash kabilardan iborat.

Yakuniy tahlil o'quv choragi, yarim yillik va o'quv yili yakunida amalga oshiriladi hamda asosiy natijalarga erishish yo'llarini o'rganishga qaratiladi.

Yakuniy tahlil uchun ma'lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy va oraliq nazorat yakunlari, o'quvchilarning va sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi. Har qanday pedagogik jarayonni boshqarishning asosi maqsad qo'yish va rejalashtirishdan iborat.

Boshqaruv faoliyatining maqsadi – ishning umumiy yo'nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad – rejaning asosi. Boshqaruvda asosiy maqsad aniqlanganidan keyin, unga erishish uchun qo'shimcha maqsad qo'yiladi. Ta'lim muassasasini boshqarishni rejalashtirish pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Bunday qarorlar ma'lum bir muddat davridagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali yoki yakuniy ishlarni bajarib bo'lgandan so'ng qabul qilinishi mumkin.

Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo'llaniladi:

- muddatli (perspektiv);
- yillik;
- yakuniy.

Muddatli rejalashtirish qoidaga muvofiq so'nggi yillarda ta'lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida bir necha yilga mo'ljallab qabul qilinadi.

Ta'lim muassasasida qabul qilinishi mumkin bo'lgan muddatli reja quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

Rejalashtirilgan muddatda ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalar. Guruhlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilarning yillik o'zlashtirish darajasi muddatlari.

Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiya (yangilik)larni olib kirish muddatlari.

Ta'lim muassasasini pedagogik kadrlariga qo'yilgan talablar.

Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish.

Ta'lim muassasasini texnika hamda o'quv-metodik (qurilish ishlari, axborotlashtirish, ko'rgazmali qurollar, kutubxona fondini boyitish) ko'lamini rivojlantirish.

O'qituvchi va o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish.

Yillik rejalashtirish butun o'quv yili hamda yozgi ta'tilni qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o'quv yili davomida amalga oshiriladi va ta'lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Yakuniy rejalashtirish o'quv choraklari uchun to'ziladi, u bir yillik rejaning aniqlashgan ko'rinishi hisoblanadi. Shu tarzda rejalashtirishning bunday aniqlashgan ko'rinishlari o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar qo'mitasining faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bu rejalar o'qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejaları bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi. Umuman olganda, boshqarish faoliyatida rejalashtirish vazifasining to'la amalga oshirilishi ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshiradi.

Qabul qilingan rejalarni to'liq amalga oshirish uchun tizimli harakatning boshqaruvchilari uning tarkibiy qismlarini bir-biri bilan aloqada bo'lishini tashkil etishlari kerak. «Tashkil etish» tushunchasi bir qancha ma'nolarda qo'llaniladi.

Birinchidan, baho sifatida aliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan hamda darsdan tashqari tadbirlarning uyushtirilishini ta'minlaydigan o'quv-tarbiya jarayonining maqsadida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, tashkil etish deganda belgilangan rejalarni amalga oshiruvchi, oldinga qo'yilgan maqsadga erishish uchun butun pedagogik jarayonni boshqaruvchi ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyati tushuniladi.

Boshqarishni tashkil etuvchi asosiy boshqarmalar sifatida ta'lim muassasasining kengashi, pedagogik Kengash, direktor boshqaradigan majlis, direktor o'rinbosarlarining majlisi, tezkor yig'ilishlar, metodik seminarlarni qayd etish mumkin.

Pedagogik Kengash faoliyati demokratik va oshkoralik tamoyillariga

asoslanib olib boriladi. Pedagogik Kengashlarda anketalar, savol-javoblar, nazorat ishlar, tanlov ishlari ko'riladi. Bundan tashqari pedagogik Kengash yig'ilishlarida ta'lim muassasasi hayoti va faoliyatiga doir dolzarb masallar hal qilinadi. Shuning uchun pedagogik Kengashni turli muhokamali, muammoli masalalardan ozod qilish uchun ta'lim muassasalardan direktor yig'inlari tashkil etiladi. Direktor yig'ilishlarida rahbariyat va o'qituvchilar ishtirok etib qolmay, boshqa ishchi xodimlar ham qatnashishlari mumkin.

Ta'lim muassasasi o'rinbosarlarining yig'ilishlarida kundalik savollar va ma'muriy boshqarishga oid masalalar muhokama qilinadi. Bunday majlislar ta'lim muassasasi rejasi bo'yicha o'quv yilining choragi (semestri)da yoki har oyda bo'lib o'tadi.

Tezkor axboriy majlislar ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etishning zarur shaklidir. Tezkor axboriy majlislarning mavzusi mavjud sharoitlardan kelib chiqadi. Bu kabi majlislar pedagogik xodimlar, o'uvchilarning barchasi uchun tashkil qilinadi.

Ichki nazorat ham ta'lim muassasasini boshqarishda alohida o'rin tutadi. Nazoratni tashkil etishda yetishmovchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha talablarni bilish zarur. Bunday talablarga tizimlilik, ob'ektivlik, harakatlilik, to'ldiruvchilik kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ta'lim muassasasi ichki nazoratining turlari, shakllari va metodlarini turkumlashtirish hozirgi vaqtda muammoli masala bo'lib qolmoqda. Shunga qaramasdan, ichki nazoratning quyidagi turlari ajratilib ko'rsatiladi:

Mavzuli nazorat qandaydir aniq masalani o'rganishda ta'lim muassasasi jamoasi, o'quvchilar guruhi yoki alohida o'qituvchining pedagogik faoliyati tizimi, ta'lim muassasasidagi ta'lim darajasi, shuningdek, o'quvchilarning ekologik va estetik tarbiyasi tizimiga e'tibor qaratiladi.

Frontal nazorat butun pedagogik jamoa, metodik kengash yoki alohida o'qituvchi faoliyatini o'rganishga qaratiladi.

Alohida nazorat biror bir o'qituvchining faoliyati, sinf (guruh) rahbarlarining tarbiyaviy ishlarini mavzuli, frontal tkshirishga asoslanadi. Sinf-

muloqot nazorat shaklida sinf jamoasining dars va darsdan tashqari jarayonida shakllanishiga ta'sir etuvchi o'ziga xos omillar e'tiborga olinadi. Predmetli nazorat shakli bitta yoki bir necha sinf (guruh)larda, butun ta'lim muassasasida ta'lim olinganlik darajasini aniqlashda qo'llaniladi. Mavzuli nazorat shaklining bosh maqsadi turli fan o'qituvchilari va sinflarning alohida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishdagi ishlarini o'rganishdan iborat. Majmuaviy (kompleks) nazorat shakli bir necha o'quv fanlari bir yoki bir necha sinf (guruh)larda turli o'quvchilarning ishlarini o'rganishni tashkil etish maqsadida amalga oshiriladi. Tartibga solishning asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilishda ta'lim muassasasining oldiga qo'yilgan maqsad va rejalarini amalga oshirish, boshqaruv ishini tashkil etish hamda nazorat qilishda yo'l qo'yilgan holatlarni tuzatishdan iborat.

10. MAVZU: TIBBIY TA'LIM MUASSASASIDA ILG'OR KASBIY PEDAGOGIK TAJRIBALARNI O'RGANISH VA SAMARALI FOYDALANISH HAMDA OMMALASHTIRISH.



Reja:

1. Oliy ta'limning maqsadi va vazifalari.
2. Oliy ta'limni boshqarish bosqichlari.
3. Oliy ta'limni boshqarish tizimlari.
4. DTS ta'limni rejalashtirish va uni loyihalashtirishning yangi shakli sifatida.



Asosiy tayanch iboralar

- Uzluksiz ta'lim
- Yetakchi bo'g'in
- Kasbiy Pedagogika
- Oliy maktab
- Dunyoqarash
- Isloh etish

- Imkoniyat
- Yaratuvchanlik
- Tibbiyot
- Bunyod etmoq
- Tushuncha
- Malakali mutaxassis

Oliy o'quv yurtlari Respublika uzluksiz ta'lim tizimining yetakchi bo'g'ini hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mustaqil O'zbekistonda ro'y berayotgan ta'lim o'zgarishlarida oliy ta'limni isloh etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, oliy maktab Respublika milliy boyliknig o'sishiga imkoniyat yaratuvchi, kuchli, muntazam o'sib boruvchi iqtisodiyotni bunyod etuvchi mutaxassislarni yetkazib beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" risolasida davlatimizning mutaxassislar tayyorlashga bo'lgan munosabati yorqin ifodasini topgan: "Yoshlar, ularning iqtidorliligi va bilim olishga chanqoqligidan ta'lim va ma'naviyatini tushunib yetish boshlanadi. Bizning davlatimiz mutaxassislar tayyorlashning ilg'or jahon tajribasini keng jalb etadi, va, eng avvalo, bevosita O'zbekistonning o'zida yuqori sifatli ta'lim uchun sharoitlar yaratadi".

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlariga muvofiq O'zbekistonning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini masalasini rivojlangan mamlakatlar darajasida hal etishga qodir, yuksak darajada ma'naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash oliy ta'lim tizimining vazifasi hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq zamonaviy ta'lim-kasb dasturlari

asosida sifatli o'qituvni ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;

- yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarni, jumladan xorijiy ilmiy markazlarda, tayyorlash;

- mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqboli, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya, iqtisod va madaniyat zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlashning tashkil etilishi va usulini muntazam takomillashtirish;

- ta'limni individuallashtirish, masofadan o'qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalari, vositalarini joriy etish;

- mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, Vatanga, oilaga va atrof muhitga muhabbat ruhida, milliy uyg'onish mafkurasi hamda umuminsoniy qadriyatlarni chuqur his etish asosida oliy ta'limnig gumanitar yo'nalishini, yoshlar tarbiyasini ta'minlash;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali uyg'unlanuvchi usullarini amaliyotga tatbiq etish;

- ta'lim xizmati ko'rsatish bozorida, raqobat muhitini yuzaga keltirish;

- oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish va mustaqilligini kengaytirish.

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlatga qarashli va davlatga aloqadorsiz oliy ta'lim muassasalari, bular davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim-kasb dasturini amalga oshiradi;

- ilmiy-pedagogik muassasalar, bular oliy ta'limni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini olib boradi;

- ta'limni boshqaruvchi davlat idoralari, shuningdek, ular tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlar.

1993 yildan respublikaning barcha oliy o'quv yurtlariga test sinovlari orqali abituriyentlar qabul etilmoqda. Talabalar oliy o'quv yurtlarida ikki bosqichli ta'lim asosida bakalavr va magistr darajalarini egallashlari mumkin.

Bakalavriat – ixtisosliklar yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan nazariy va amaliy bilim beruvchi tayanch oliy ta'lim.

Magistratura – bakalavriat asosida o'quv muddati ikki yildan kam bo'lmagan, muayyan ixtisoslik bo'yicha oliy ta'lim.

Oliy ta'lim universitetlarda, institutlarda va akademiyalarda amalga oshiriladi. Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash umumiy o'rta, o'rta maxsus, o'rta kasb-hunar o'quv muassasalarining turidan qat'i nazar, o'rta ma'lumot manbai asosida amalga oshiriladi.

Universitet :

- oliy va oliy ta'lim muassasasini tugatgandan keyingi ta'lim-kasb dasturini ta'limning turli sohalari va tayyorlashning yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiradi;

- iqtisodiyot turli soharining mutaxassislari, oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar pedagog xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni amalga oshiradi;

- fan turli sohalari bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib boradi;

- fanlarning tegishli soharida ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Akademiya : - fanning muayyan sohalari va tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha oliy va oliy ta'lim muassasasini tugatgandan keyingi ta'lim-kasb dasturini amalga oshiradi;

- bilimning muayyan sohalari va tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi;

- fan, texnika yoki san'atning biror sohasida nazariy va amaliy tadqiqotlar olib boradi;

- o'z faoliyatini sohasida yetakchi ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Institut:

- oliy va oliy ta'lim muassasasini tugatgandan keyingi ta'lim-kasb dasturini, qoidaga ko'ra bilimning bir sohasidagi tayyorlov yo'nalishi bo'yicha amalga oshiradi;

- iqtisodiyotning muayyan sohalari uchun mutaxassislarni qayta tayyorlaydi va malakasini oshiradi;

- amaliy ilmiy tadqiqotlar va tajriba konstruktorlik ishlari olib boradi.

Fuqarolar ikkinchi oliy ma'lumotni bitim asosida olish huquqiga egadir. O'zbekistonda 60 ta oliy o'quv yurti bor. Jumladan, 16 universitet, 7 tibbiyot, 6 pedagogika, 4 qishloq xo'jaligi, 3 madaniyat, 1 temiryo'l, 1 aloqa va b.

2. Oliy ta'lim boshqarish bosqichlari.

Respublikamiz mustaqilligi sharoitida ta'lim boshqaruvini takomillashtirish va unning samaradorligini oshirish ta'lim taraqqiyotini xal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun boshqaruvni demokratik, adolatli, izchil, tahliliy olib borish diqqat markazida turadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga muvofiq oliy ta'limni boshqarishni quyidagi bosqichlari ko'zda tutilgan.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, uning vakolati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- oliy ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini olib boradi;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatlangan davlat idoralariga, shu jumladan oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (OO'MTV)ga rahbarlik qilish;
- ta'limni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ta'lim muassasalarini barpo etish, qayta to'zish, tugatish tartibini belgilash;
- ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash, pedagog va ilmiy xodimlarni attestatsiyalash tartibini belgilash;
- O'zbekiston Respublikasidagi boshqa davlatlar ta'lim muassasalariga ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olishi uchun ruxsat berish;
- chet davlatlarning ta'lim standartlarini tasdiqlash;
- ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat granti miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul tartibini belgilash;
- davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlarini tayinlash;
- ta'lim olayotganlarni akkreditatsiyalangan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga ko'chirish tartibini belgilash;

- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlar.

2. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi (OO'MTV), uning vakolatiga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta'lim va boshqa muassasalarga metodik rahbarlikni amalga oshirish va rahbarlik qilish;
- davlat ta'lim standartlari talablari, ta'lim darajasi va mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;
- o'quv jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitishning informatsion vositalarini joriy etish;
- o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar yaratish va nashr etishni tashkil etish;
- ta'lim olayotganlarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi va ta'lim muassasasidagi eksternet to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqish;
- pedagog xodimlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat oliy ta'lim muassasasiga rektor tayinlash to'g'risida taklif kiritish;
- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlar.

Oliy ta'lim sohasidagi boshqaruv bilan shug'ullanuvchi shaxslarga yuksak darajadagi ma'suliyatlilik, vakolatlilik hamda tartib, ma'muriy qoidalarni ichki va tashqi vositalar yordamida muntazam samarali baholash qobiliyati xos bo'lishi lozim.

3. Oliy ta'lim muassasalari. Davlat OTM bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan rektor tomonidan boshqariladi. Davlatga aloqadorsiz OTMda rektor ta'sischi (mulk egasi) tomonidan tayinlanadi.

Rektor "Oliy ta'lim to'g'risida"gi Nizomga muvofiq ta'lim muassasasining ish natijalari uchun ma'suldir. U O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ta'lim muassasasi nomidan faoliyat ko'rsatadi, barcha idoralar,

muassasalar va korxonalar bilan uni namoyon etadi, mulkni tasarruf etadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnoma beradi, bankda ta'lim muassasaning hisob raqamini ochadi, kreditlarni taqsim qiluvchi hisoblanadi.

Rektor o'z vakolati doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

- barcha xodimlar, talabalar va boshqa ta'lim oluvchilar uchun buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;
- bosh buxgalter va boshqa shtatdagi xodimlarni ishga tayinlaydi va ishdan bo'shatadi;
- ilmiy-tadqiqot, tajriba-eksperiment va boshqa ta'lim muassasasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar, bo'linmalar vakolatini belgilaydi;
- ishchi, xizmatchilar, shuningdek ilmiy-pedagog xodimlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan va mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatishni amalga oshiradi;
- ta'lim muassasasi xodimlari lavozim maoshiga ustama va qo'shimchalar belgilaydi;
- ichki tartib qoidalarini kasaba uyushmasi yoki boshqa vakolatli organ xodimlari bilan kelishib tasdiqlaydi;
- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarini amalga oshiradi.

Ta'lim muassasasi faoliyati asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun unda Ilmiy kengash to'zilai. Uning tarkibi, vakolati, shakllantirish tartibi va faoliyati ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli idorasi - OO'MTV tadiqlangan "Ilmiy kengash to'g'risida"gi Nizomda belgilanadi.

OTMda, jamoatchilik boshqaruvi organi bo'lmish Murabbiylik kengashi to'zilai. Uning takibiga ta'sischi, hokimiyat mahalliy organining, ishbilarmonlar doirasining, boshqa ta'lim muassasalarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning, homiylarning vakillari kiradi.

Talabalar va ilmiy-pedagog xodimlar manfaatini yoqlash, ularni himoya qilishni ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi amalga oshiradi.

Oliy ta'lim sohasidagi rahbarlik vazifasi jiddiy ijtimoiy ma'suliyatdir. Uning ahamiyati shu sohadagi barcha hamkorlar, shu jumladan o'qituvchi va ta'lim

olayotganlar barchasi bilan erkin muloqot yo'li bilan sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

Umumiy manfaatlar, o'zaro hurmat va ishonch asosidagi hamkorlik oliy ta'limni yangilanishning asosiy usulidir. Hamkorlik ta'lim siyosatini milliy va to'zilmaviy miqyosda ishlab chiqish hamda joriy etishda ma'sul shaxslar o'rtasida, professor-o'qituvchilar va talabalar, OTM ma'muriyati texnik xodimlar, mehnat sohasi, OTMlar, jamoatchi guruhlar o'rtasida mavjud bo'lishi mumkin.

3. Oliy ta'limni boshqarish tizimlari.

Boshqarishning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarining to'zilmaviy vazifasi o'qitishning, oliy kadrlar tayyorlashning va ilmiy tadqiqotlar oliy darajasini mustahkamlash, shuningdek, jamiyatga xizmat qilishdan iborat bo'lishi kerak.

Jahonda ta'limni boshqarishning ikki tizimi shakllangan : markazlashgan va markazlashmagan.

Boshqarishning markazlashgan tizimi Fransiya va sobiq ittifoqda yaqqol namoyon bo'lgan. Mazkur tizimga muvofiq ta'lim dasturlari va o'quv rejalari, pedagog kadrlarni tayinlash, ko'chirish va ishdan bo'shatish, ta'lim muassasasidagi tartib va boshqalar, Maorif vazirligining meyoriy hujjatlar, qarorlar, buyrqlar, farmoyishlar va yo'riqnomalari bilan qat'iy chegaralangan.

Shunday markazlashgan boshqaruv muayyan vaqtgacha fransuz ta'lim tizimining afzalligi bo'lib kelgan. Lekin, ta'lim muassasalarining miqdori oshishi bilan boshqaruv tizimi sezilarli darajada kengayadi va xodimlarining tashabbusini cheklab qo'yadi. Shuning uchun hozirgi paytda bu tizim ta'lim muassasalariga erkinlik berish, markazlashishdan chetlashish tomon qayta qurilmoqda.

Markazlashmagan boshqaruv tizimi, AQSH, Angliya, Germaniya va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlarda barqaror shakllangan. Bu tizim ta'lim muassasalariga keng imkoniyat berishni ko'zda tutadi.

Germaniyada ta'lim tizimi har bir federal yer tasarruvidadir. Lekin, federal

yerlar o'rtasida ta'limning turlarini uyg'unlashtirishni ta'minlash uchun federal organ – Yer ta'lim va madaniyat vazirligi konferensiyasi mavjud. U ta'lim siyosati bo'yicha kelishuv tavsiyalari ishlab chiqadi. Bu tavsiyalarga quyidagilar kiradi : kasb ta'limi tizimidagi bir xil tartibga soluvchi qonunlar (ta'lim muddati, o'qishga ruxsat berish, diplomlar); ta'limdagi moddiy ta'minot; ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya loyihalarini moliyalash; xalqaro hamkorlik.

Germaniya OTMLari o'quv jarayonini tashkil etish va ta'minlash borasida keng imkoniyatga ega. Bir qolipdagi reja asosida , ya'ni fanlar ro'yxatini va ular mehnat talabligini belgilovchi rejalar asosida professorlar o'quv mashg'ulotlari va fan mazmunining to'zilishini o'zlari belgilaydilar.

AQShda ta'lim muassasalari faoliyatiga maktablar okrugiga ajraluvchi Shtatlar tomonidan amalga oshiriladi. Okrugga Ko'mita boshchilik qiladi, unga, odatda, bizmensmenlar, ziyolilarning barcha – byudjet, o'qituvchilarni ishga olish va bo'shatish, ularning maoshi, darsliklarni tanlash va va tavsiya qilish masalalarni hal etish uning vazifasiga kiradi.

AQShda ta'lim muassasalari keng imkoniyatga ega va boshqaruv idoralaridan muayyan darajada mustaqillikka ega. Shunga ko'ra ular ta'lim dasturlari tavsifi va sifatiga ko'ra bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shunga ko'ra ta'lim sifati tayanch darajasini ta'minlash uchun ta'lim muassasalarini **akkreditatsiyalash**dan keng foydalaniladi. Bu ta'lim muassasalarini, foydalanilayotgan ta'lim dasturlarini hukumatga aloqadorsiz, ekspert tekshiruv va nazoratini amalga oshirish vositasidir.

Nazorat savollari.

1. Tibbiy ta'lim muassasasida ilg'or kasbiy pedagogik tajribalar o'rganishga nimalarga ahamiyat berish kerak?
2. Ilg'or kasbiy pedagogik tajribalar samaraligini qanday ommalashtirish mumkin?
3. Kasbiy pedagogik faoliyat va kasbiy pedagogik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?

4. O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatidagi tarkibiy qismlarni sanab bering?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. - T.: 1997-yil.
2. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». – T.: 1997-yil.
3. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 29-avgust 1997-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 5-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5-maydagi «Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida»gi PF-6221- sonli Farmoni Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 400-sonli Qarori.
7. Barkamol avlod orzusi, T., 1999.
8. Barkamol avlod- o'zbekiston taraqqiyotining poydevori , T., 1998.
9. O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi , T., 1992.
10. G'aybullaev va boshqalar, ijtimoiy islohatlar va ta'lim tarbiya, T., 1995.
11. Peregudov L.V.Saidov. "Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti". T., 2005.
12. Sharifxo'jayev M.,Abdullayev YO. "Menejment".Darslik. T., "O'qituvchi". 2001 .
13. G'ulomov S."Menejment asoslari". T., 2002 y.
14. Azizxujaeva N.N. Pedagogicheskie texnologiya v podgotovke uchite-lya. Tashkent, 2000 yil.

15. Akbarov N. Texnika oliy o'quv yurti talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari: Avtoref. ped.fan.dok. ... dis. – T.: TDPU, 2008. – 45 b.
16. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshalar. Umumiy pedagogikanazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2019.
17. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. Darslik. - T.: "Fanva texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
18. Imomov M.P. Professional ta'lim muassasalari O'quvchilarining kasbiy madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bO'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent., 2021. - 152 b.
19. Sharapova D.B. Kasallikka munosabatni shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar. International scientific-online conference formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary science 2022.
20. Ernazarova G.O. Kasb-hunar kollejlarda O'quvchilarni akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish. Pedagogika fanlari bO'yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2017 -Toshkent. - 68 b.

Internet saytlar

21. [httpz](http://www.ozbekiston.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
22. [http://lex.uzz](http://lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
- 23.<http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
24. <http://ziyoneyt.uz> – Ta'lim portali Ziyonet
25. <http://tma.uz> – Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

tarmoq markazi.

26. <https://minzdrav.uz>. – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi rasmiy sayti

27. <http://www.sochrane.org> – Xalqaro Koxran hamkorlik jamiyati

28. <http://osdm.org> – Dalillarga asoslangan tibbiyot mutaxassislari jamiyatining Moskva bo‘limi sayti

29. <http://www.nsbi.nlm.nih.gov/> Pub Med - Medline ma’lumotlar bazasida tibbiy ma’lumotlarni qidirish uchun mo‘ljallangan universal tizimi – AQSH Milliy tibbiy kutubxonasining elektron resurs bazasi

30. www.pedagog.uz

31. www.Ziyonet.uz

32. www.Edu.uz

Xafizova Mashxura Aminovna
KASBIY PEAGOGIKA
O'quv qo'llanma

Muharrir: O.X.Qosimova
Tex.muhammadir: Z.Usmanova
Musahhih: M.Sattarova

© "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti,
140104, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93.

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosmaxona litsenziyasi:



4268

Bosishga ruxsat etildi: 06.12.2023-yil.

Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.

"Times New Roman" garniturası. Ofset bosma usuli.

Hisob-nashriyot t.: 7,1. Shartli b.t.: 5,4.

Adadi: 100 nusxa. Buyurtma №14/12.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo'limida chop etildi.

Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy.